

S. YO'LDOSHEVA  
S. DAVLATOVA  
G. SATTOROVA

# FOLKLOR KIYIMLARI VA BEZAKLARI



85.3  
5.25

K

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI  
VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

S.YOLDOSHEVA, S.DAVLATOVA, G.SATTOROVA



# FOLKLOR KIYIMLARI VA BEZAKLARI

2 ma

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT MADANIYAT IN-TI  
AXBOROT RESURS MARKAZI  
TARTIB No 8671A

*sepanov*

TOSHKENT - «TALQIN» - 2008

*Handwritten notes in the left margin, including the word 'Muhimotlar' and other illegible text.*

Olly va o'rtta maxsus o'quv – metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar: Q. Nishonboyeva – tarix fanlari nomzodi, dotsent;  
SH. Turdilmov – filologiya fanlari nomzodi.

Muzikar qo'llanmada qo'llanmada o'zbek milliy kiyimlar va an'anaviy bezaklarining kelib chiqishi tarixi, manbalari, ajdodlarimizning kiyim bilan bog'liq qadimiy urf-odatlari va marosimlari, har bir davrda kiyimish madaniyatining taraqqiyoti va rivojlanishi xususida ma'lumotnomalar berilgan.

ISBN 978-9943-325-28-9

S "Talqin" nashriyoti, 2007-y.

## SO'ZBOSHI

O'zbek folklori va etnografiyasining rang-barangligini ko'rsatuvchi eng muhim omillardan biri folklor kiyimlari hamda bezaklarining g'oyat qadimiyligidir. Uning qadimiy asosga egaligi hududiy lokal xususiyat kasb etishi bilan belgilanadi. Har bir viloyat haqida so'z yuritganda o'sha hududga xos kiyim va an'anaviy bezak san'ati to'g'risida bahs yuritilishi tabiiy. Zero, an'anaviy folklori joylarga xos bo'lgan kiyim-kechak, liboslar, bezaklar, taqinchoqlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Folklor san'atini janrlar tarkibi, tarixiy asoslari, ijro yo'llari, ijro usullari va hududiy rang-barangligini o'rgatishda kiyim va bezaklarning alohida o'rni bor. Shuning uchun ham mazkur «Folklor kiyimlari va bezaklari» nomli o'quv qo'llanma muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Folklor kiyimlari va bezaklari zaminida mahalliy xalqning urf-odat, marosim, bayram, diniy va dunyoviy qarashlari bilan bog'liq tasavvurlar, ramziy ohanglar yetakchi mavzu sifatida talqin etilgan. Ular milliy-badiiy madaniyat tarixining ajralmas qismini bo'lib, xalqning turmush tarzi bilan bog'liq marosimlarni o'rganishda o'ziga xos an'anaviy shaklda namoyon bo'lgan. O'quv qo'llanmada folklor kiyimlari va bezaklarining paydo bo'lishi, har bir hududga xos bo'lgan marosimlarni namoyish etishda kiyimlar va pardozlarni o'sha holatga moslashtirgan tarzda qo'llash kerakligi tasvirlar orqali ko'rsatilgan.

Ma'lumki, kiyim-kechaklar xalq tarixining bir qismi bo'lib, u moddiy-ma'naviy yodgorlik sifatida xalqlarning milliy o'ziga xosligini, etnik belgilarini aks ettirganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqining kiyim va bezaklari juda xilma-xil va jozibalidir. Ular xalqning shodiyona kunlarida, marosimlarida, ko'chalik, uylik, kundalik hayotida kiyiladi. Folklor kiyimlari o'z

navbatida ichki, ustki bosh-oyoq kiyimlarga bo'linadi. Bu kiyimlar o'zbek xalqining milliy o'ziga xosligini, etnik belgilarining bekorligini, diniy va dunyoviy e'tiqodi normalarni ko'rsatuvchi omil sifatida o'z aksini topgan. Shuning uchun ham barcha davrlarda libosiga qarab insonning qaysi ijtimoiy toifaga, qaysi hududga mansubligini bilish mumkin bo'lgan.

Poyabzallar ham hududlarda turli-tuman va rang-baranglik xususiyatiga ega. Ya'ni, charmdan tikilgan etiklar, mahsilar, mo'k-ki, choriq, charm va yog'ochdan yasalgan kavushlar, zardo'zi etiklar va boshqalardan iborat.

Qo'llanmada milliy liboslardagi o'ziga xoslik jarayonini o'rganish orqali turli tarixiy davrlardagi rivojlanish bosqichlari, ularning an'anaviy va zamonaviy bichimlari orasidagi farqni xususiyatlari, shahar hamda qishloq aholisining milliy kiyimlari haqida fikr yuritilgan.

O'zbek xalqining azaliy milliy qadriyatlari, boy moddiy-madaniy durdonalari, milliy kiyim-kechaklarning takrorlanmas mahalliy xususiyatlari, ularning asiyati saqlab qolingani va uni asrab-avaylab saqlanishi bugungi kun avlodlarining muqaddas burjiga aylanishi lozim.

Qo'llanmaning muhim jihatlari shuki, u boy faktik asosga qurilgan. Unda tarixiy-etnografik manbalardagi dalillar hamda bevosita ekspeditsiya kuzatuvlari asosida yig'ilgan materiallar tahlil etilgan. Unda har bir hududga xos bo'lgan kiyim-kechaklarning etnolokal xususiyatlari va o'ziga xos bezaklari tahlil etilgan. Mualliflar an'anaviy kiyim va taqinchoqlardan folklor-etnografik asambalarda foydalanish usullariga doir metodik ko'rsatma va maslahatlar berganlar.

Shuning bilan birga kiyimlarning turlari, bichilishi va tikilishiga doir xalq an'analari, kiyimlar bilan bog'liq urf-odatlar, kiyimlarning marosimlardagi o'rni va vazifalari haqida qiziqarli tahliliy ma'lumotlar berilgan.

## MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH

Mustaqil yashash har bir xalq yoki millat uchun eng qadri va ulug' no'natidir. Uning zaminida millionlar taqdiri, yurt istiqboli yotadi. Faqat mustaqillik sharoitidagina har bir millat o'zini tom ma'noda anglash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki mustamlakachilik zulmi ostida bo'lgan xalq yoki millat o'zini-o'zi anglash imkoniga ega bo'lmaydi. Bunga bosqinchilik va zo'rovonlik siyosatini yo'l bermaydi. Bu siyosat mustamlakachi davlatning o'tkir quroli sifatida millatni o'zligidan mahrum qilishga, uning qadriyatlarini urf-odatlarini, rasm-rusumlarini kamsitishga xizmat qiladi. Bunday siyosat yordamida mustamlakachilar o'nlab millatlarning tili, madaniyati, san'atini kamsitib keldilar va bularga bepisanda munosabatda bo'ldilar. Turli xalqlarni milliy o'zligini anglashdan mahrum qilish orqali ular o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishishga harakat qilib keldilar.

Ma'lumki, bundan qariyb 130 yil muqaddam xalqimiz Chor Rossiyasining mustamlakachilari tuzog'iga ilingan edilar. Ular tomonidan qilingan mudhish ishlar keyinchalik sho'rolar hukmronligi davrida yanada ayanchli bir holda davom ettirildi. Stalin qatag'onlari davrida erki, haq-huquqlari poymol qilindi. O'sha davrlarning mudhish voqealari tufayli milliy tuyg'u, milliy g'urur, milliy ong, milliy mafkura singari millatning o'zligini ifoda qiluvchi qadriyatlarining ahaniyati tushkunlikka yuz tutdi. Bunday sharoitda milliy o'zlikni anglash emas, balki undan begonalashi hodisasi keskinlashib bordi.

Biroq har qanday bosqinchiliklar va zo'rovonliklarga qaramay o'zbek xalqi o'zligini yo'qotmadi, uni asrab-avayladi va bugungi muqaddas kurlarga olib keldi.

Xalqimiz boshiga tushgan bedodliklarga chek qo'ygan mustaqillik ayni paytda, milliy uyg'onish, milliy tiklanish, milliy o'zlikni anglash uchun cheksiz imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Binobarin,



mustaqillik yillaridagi olg'a siljishlar, tariximiz va ona tilimizni qaytadan tiklashda, unutilgan udumlarimiz, qadriyatlarimizga qaytishda, dinga bo'lgan munosabatlarimizning o'zgarishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu sohada qilingan amaliy ishlar va erishilayotgan muvaffaqiyatlar bugungi kunda milliy o'zlikni anglash borasidagi muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga egadir.

Milliy o'zlikni anglash shunchaki orzu-istak bilan amalga oshmaydi. Buning uchun mustaqillikka erishishning o'zi kifoya qilmaydi. Milliy o'zlikni anglash uchun ma'naviy qadriyatlarni qayta tiklash, uning imkoniyatlari va afzalliklaridan samarali foydalanish, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi muammolarni hal eta borish ham talab qilinadi.

Tarix har bir xalqning hayoti va turmushi o'tmishda qanday kechganligi, u jahon sivilizatsiyasida qanday o'rin egallaganligi haqida ma'lumot beradi. Shuning uchun ham o'zligini angliamoqchi bo'lgan xalq va millat uchun o'z tarixini bilishdan muhimroq vazifa yo'q.

Millatning o'zligini anglashda uning o'z tiliga ega bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Til orqali har bir millat o'zligini anglaydi va anglatadi. Tilidan judo bo'lgan millat o'zligini anglashdan ham judo bo'ladi. Shuning uchun ham bosqinchilar o'z hukmronligining dastlabki kunlaridanoq mahalliy aholining tilini kamsitishga va kelajakda uni yo'q qilishga uringanlar. O'zbekistonda faqat Chor Rossiyasi generalлари emas, hatto sho'rolar hokimiyati ham o'zbek tilini sun'iy ravishda cheklab qo'yish, uni muomaladan asta-sekin siqib chiqarish siyosatini ochiq-oydin amalga oshirganligi bunga aniq misoldir.

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy o'zlikni anglashning dolzarb muammolaridan yana biri milliy qadriyatlarni — xalqimizning asrlar davomida shakllangan va hayotining mazmumiga aylanib kelgan urf-odatları, rasm-rusumlari, an'alarini qayta tiklashdan iboratdir. Mustaqillik yillarida bu sohada bir qator muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. Navro'z, Ro'za va Qurbon hayitlarining qaytadan tiklanishi, o'tmish ma'naviy merosini o'rganish borasidagi ishlarning boshlab yuborilganligi, o'zbekona to'ylar yoki ma'rakalarning o'tkazila boshlanganligi, xalqimizning dunyoqarashida bo'layotgan o'zgarishlar milliy o'zlikni anglashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Xalqimiz tomonidan o'tmishda ardoqlab kelingan va ular hayotining mazmumiga aylangan xilma-xil urf-odatlar, rasm-

rumlar, an'analarni qayta tiklash milliy o'zlikni anglashdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu omildan amalda foydalanish milliy mafkuraning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy o'zlikni anglash har bir kishida vatanparvarlik hissini uyg'otadi. Milliy o'zligini anglamagan inson Vatanni sevish, unga mehr bilan munosabatda bo'lishi mumkin emas. Har bir inson o'zligini qanchalik ko'p va chuqur anglab borsa, bu unda vatanparvarlik hissining shunchalik ko'p oshib borishiga sabab bo'ladi. Xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari ham milliy o'zlikni qanchalik anglash bilan chambarchas bog'liqdir. Milliy jihatdan o'zligini anglamasdan turib, boshqalarga bo'lgan munosabatda samimiylikka erishib bo'lmaydi. O'zini va boshqalarni hurmat qilish uchun har bir kishi o'z millatining hayoti, tarixan shakllangan ong, yaxshi fazilatlaridan xabardor bo'lmog'i lozim. Unda bunday fazilatning shakllanishi milliy o'zlikni anglashning muhim jihataridin biri sifatida namoyon bo'ladi.

Milliy o'zlikni anglash har bir kishida milliy iftixor hissini kuchaytiradi. O'z Vatandan faxrlanmaydigan, uning muvaffaqiyatlaridan ruhlanmaydigan kishi milliy o'zlikni anglashdan begonadir. Binobarin, milliy o'zlikni anglash milliy iftixor hissi bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Bu bog'liqlikni folklor-etnografik ansambllar tomonidan keng qo'llanilayotgan milliy libos, bezak va taqinchoqlarimizda ham ko'rish mumkin. O'tmishdan meros bo'lib kelgan ko'lna liboslarni saqlash va milliy xotirani yo'qotmaslik maqsadida barcha jamoalar ijro jarayonida o'z hududiga xos milliy liboslardan keng foydalanadilar. Qadimiy etnik turmush tarzi bilan bog'liq urf-odat, marosim va udumlarni milliy libos, xalq amaliy san'ati an'alarini qo'llagan holda sahnaga chiqadilar. Bu esa tomoshabinlarga milliy ruh baxsh etib, ularning ma'naviy barkamolashuviga xizmat qiladi. Istiqloq sharofati tufayli ko'lna libos, bezak-taqinchoqlarimizdan foydalanish bu kungi avlodlarimizga qadimdan qanday bo'lsa, shundayligicha namoyish etish imkoniyati yaratildi. Bizning vazifamiz milliy g'ururimiz bo'lgan bu noyob merosni tiklab, kelajak avlodga qoldirishdan iborat.

Demak, milliy o'zlikni anglash — mavhum tushuncha emas, balki inson faoliyatining muhim jihataridan biri bo'lib, uning ma'naviy kamolotga erishuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

## KIYINISH MADANIYATI BILAN BOG'LIQ UDUMLAR

Kiyinish har bir xalqning qadim zamonlardan buyon yashab kelavotgan mintaqasi, shart-sharoiti, turmush tarzi, udum, urf-odatlari, tabiati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning ma'naviy barkamolligi, milliy madaniyatini belgilaydi.

Yaxshi kiyinish o'ziga xos san'at. Kishi bu san'atni egallashi uchun kiyinish talablariga rioya qilibgina qolmay, balki o'z estetik didini ham uzluksiz tarbiyalashi kerak. Didni tarbiyalash uchun qonunlar me'yori va o'zaro mos tushunchalarga asoslangan san'atning barchasi bilan tanishib borish lozim.

Kiyimlarda inson ta'lim-tarbiyasi aks etgan. Insonning did-farosati kiyim-boshda, hayotiy harakalarida, o'zini tuta bilishida ko'zga tashlanadi. Didli, farosatli kishi hamisha shu qiyofani saqlab qoladi. Tashqi qiyofaga e'tibor berish, ichki ma'naviy go'zallikning ifodasi hisoblanadi.

Dono xalqimiz — fahm-farosatli. Odobli insonni faqat yangi kiyinishidan emas, balki uning kiyinish madaniyatidan yaxshigina ajratib oladilar. Ayniqsa yoshiga, jinsiga qarab kiyinmaslik bu beodoblikdir. Erkakcha kiyinishlar, ba'zi yigitlar esa sochlarini o'stirib, bo'yninga munchoq, quloqlariga zirak taqib olishlari yarashmagan qiliqdir. Qizlarimiz o'zlarining ichki va tashqi qiyofalari bilan yigitlar ko'ziga hayoli, iffatli, nazokatli bo'lib, ularning hurmatini qozonishga, muhabbatiga erishishga harakat qilishlari kerak. Yigitlar esa o'zlarining tashqi ko'rinishini to'g'ri qilib jasadligi, mardligi, odob va axloqiy madaniyati bilan qizlarga yoqimli ko'rinishlari, ularning muhabbatini qozonishlari lozim. Yigitlarning ham, qizlarning ham go'zal ko'rinishi bu odob-axloq, hayo va iffat, did-farosat belgisidir.

Darhaqiqat, insonning did-farosati uning kiyimi, hayotiy harakatlari, o'zini tuta bilishidan ko'zga tashlanadi. Samimiy, oq

ko'ngil, o'ziga talabchan, umuman tarbiyali-ma'naviyatli kishi tashqi ko'rinishida sun'iylikka yo'l qo'ymaydigan tarzda kiyinish-udum, o'zini shunga munosib tutishga harakat qiladi. Didli, farosatli kishi hamisha ana shu qiyofasini saqlab qoladi. Tashqi qiyofaga e'tibor berish ichki ma'naviy go'zallikning ifodasi hisoblanadi.

Yaxshi did avvalo farosatlilikda namoyon bo'ladi. Orastalik birinchi navbatda kiyim bilan poyabzal, bosh kiyimi, sumka, qo'lqoplar rangi va shakllarining uyg'unligi demakdir. Kastum orastaligi, uning bezaklari, detallari, qismlaridagi uyg'unlashgan ranglar me'yori bilan ham bog'liqdir. Zamonaviy modadagi kiyim-daranglar majmuvi bir yoki ikki xil rangdan iborat bo'la olmaydi. Kiyimlarda ko'pgina ranglarning och, to'q va murakkab birikmasi mavjud bo'ladi. Bir rangning och, to'q xillaridan yoki bir-biriga yaqin ranglar (zangori bilan ko'k, to'q sariq bilan jigarrang)dan, shuningdek oqish, sarg'ish, pushti rang, moviy va shu kabilardan foydalanib orastalikni ta'minlash mumkin. Oq bilan qora, ko'k bilan oq ranglarni ham muvofiqlashtirib orastalikka erishish mumkin. Biroq bu qarama-qarshi muvofiqlikdir. Orastalik bilan kiyilgan kiyim uning muayyan sharoitga munosibligi, kishining mashg'uloti, voqea, muhit va shu kabilalar bilan muvofiqligi hamdir.

Kiyinishda orastalikning teskarisi — didsizlik belgisi sifatida namoyon bo'lg'uvchi bachkanalikdir. Ish joyida katta zirak, serhasham taqinchoqlar taqish, bashang kiyinish, tor yoki o'ta keng yubka, shim kiyish, bachkanalik — bu modani buzish demakdir. Agar buni zamonaviy moda deb da'vo qilsalar, aksincha didsizlikdir.

Zamonaviy modalarni inkor etuvchi ayrim kishilar «bizlar modaga asoslanib kiyinmaymiz», — deb o'ylashadi. So'nggi modada, shuningdek, eskirgan, vaqti sal o'tgan modalarda ham kiyinish mumkin. Kiyim atrofdagilar ko'z o'ngida kishi gavdasini kulgili ahvolga solib qo'yimasligi lozim. Birinchi navbatda, yaxshi kiyinish inson didiga bog'liqdir. O'ta modadagi kiyim ham juda eskirgan modadagi kabi g'ayritabiiy beo'xshov, xunuk ko'rinadi.

Kiyim kishining gavdasini chiroyli yoki xunuk qilibgina qolmay, kishining o'z muhitiga munosabatini ham ifodalaydi. Ish paytida ayol kishi juda serhasham kiyinsa, o'zini ko'z-ko'z qilayotgandek bo'ladi. Aksincha tantanali daqiqalarda kundalik oddiy

ish kiyimida yursa, atrofdagilarning kayfiyatiga e'tiborsizlik bilan qarayoiganini ko'rsatadi.

Did bilan kiyinish kishining o'ziga tanqid bilan qaray olishini ham ifodalaydi. Kishi o'z jismoniy nuqsonlarini sezib, uni boshqalarga sezdirmaydigan qilib kiyinmog'i kerak. Kiyim tanlanyotganda yoshni ham unutmashlik kerak. Yoshlar sport kiyimlari bichlig'ida kiyinadilar. Ochiq rangli, guldor kiyimlar ularga ko'proq yarashadi. O'ttiz yoshdagi ayollar (shartli ravishda) didi modaga asos deb qabul qilingan. Bu yoshda ayol o'z qiyofasini yaxshi bilmog'i, husniga-husn qo'shiladigan kiyimlarni tanlay olmog'i lozim.

Qirq yoshdan keyin esa o'tgan yillar oqibatida vujudga keldigan ayrim nuqsonlarni (kiyim va pardoz bilan) yashirish kerakligini unutmashlik lozim. Semiz, yosh ayollar ham odmi kiyimlar bilan kifoyalanmasliklari, semizlikni sezdirmasliklari kerak. Chunki odmi kiyim semizlik bilan birga yoshlikni ham, latofatlikni ham yashirishi mumkin. Muhimi kiyinishning shakli va rangi me'yorida bo'lmog'i kerak. Semiz keksa ayollar ham rangdor kiyimlardan voz kechmasliklari, faqat juda guldor matolardan tikilgan kiyimlarnigina kiyimasliklari kerak.

O'zbek madaniyati ichida kiyinish madaniyati ham muhim o'rin egallaydi. Ota-bobolarimiz yoshlarga hamisha toza, ozoda, yarashiqli, chiroyli kiyinishni o'rgatishgan.

Kiyinish odobi haqida Husayn Voiz Koshifiy o'z fikrlarini bayon etib quyidagilarni aytadilar: «Liboslar rangi turlicha bo'ladi. Har bir rang o'ziga xos ma'noni ifodalaydi. Agar oq libos kunning rangini ifodalasa, bunday libos yuragida gina adovati bo'lmagan kishilarga yarashadi. Chunki oq kiyim kiygan kishi xuddi tong kabi kishilarga nur ulashib turadi. Ko'k rang suv rangini bildirib, bu rangda kiyingan kishilar zakiy va hayotni sevuvchi bo'lishlari bilan farqlanadilar. Kim agar bu rangni ma'qul ko'rsa, u xuddi suvdek toza va musaffo, har bir qalbga vaqin bo'ladi. Qora rang tun va ko'z qorachig'ining rangidir. Shuning uchun ham bunday libos kiyganlarning qablari siru asrorlarga to'la bo'ladi. Yashil rang osmon va yetuk kishilar rangidir. Bunday kiyim kiygan kishi osmon kabi sof va bag'ri keng bo'lishi, yordamga muhtoj kishilarga iloji boricha yordamlashadigan fazilatga ega bo'ladi».

O'zbek xalqida biror to'y, tantana yo'qki unda turli mavsum va marosimga mos kundalik taqinchoqlar taqilmaydigan bo'lsin.

Kelin-kuyovlarga, sunnat qilingan to'y bolaga, hatto beshikdagi chaqaloq uchun ham muayyan taqinchoqlar taqilgan.

O'z-juvonlar, momoyu buvilar, albatta o'z yoshlariga munosib taqinchoqlar taqadilar. Taqinchoqlar taqish ham har bir millat madaniyati tarkibiga kiradigan umri boqiy udumlardan biridir. Kiyinish odati singari taqinchoq taqish odati ham insoniyat paydo bo'lib, takomil topib bizning kunlarimizgacha yetib kelgunga qadar unga bir umrlik hamroh sifatida rivoj topib rang-baranglashib kelmoqda.

Taqinchoqning turi, vazifasi, xizmati ko'p. Shuning uchun ularni uch turga bo'lish mumkin:

1. Bezak taqinchoqlar.
2. Irim-e'tiqod bilan bog'liq taqinchoqlar.
3. Shifobaxsh taqinchoqlar.

Bulardan tashqari, maishiy xizmat uchun taqiladigan, muayyan vazifani bajarishga qaratilgan taqinchoqlar ham bor-ki, ular turli tugma, to'g'nag'ich, qadagich, tutqich, bog'lag'ich, zanjir va boshqalar bo'lib, kiyim yordamchi buyumlari sifatida ishlatiladi. Taqinchoqlar tumor, to'g'dona, ko'zmunchoq, marvarid, tasbeh, po'paq, shokila, tillaqosh, quloqqa haqqa, buloqi (burundik) zulfmunchoq, qalampir-munchoq, uzuk va h.k. iboratdir. Taqinchoqlarga yondosh xino, o'sma, surma va boshqalar ham bor-ki, ularni ham uchinchi tur taqinchoqlar yoniga qo'yish mumkin.

Bezak taqinchoqlarga bo'yinga taqiladigan turli marvarid, oltin-kunush, zabarjad, marjonlar, qo'llardagi uzuklar, bo'yinlardagi marjon, quloqlardagi halqa, burun buloqlari, oyoq shilliq va timoq taqinchoqlari kiradi.

Irim-e'tiqod taqinchoqlariga to'g'dona, ko'zmunchoq, tasbeh va turli tumorlar kiradi. Irim bilan bog'liq odatlar uy hayvonlariga nisbatan ham qo'llaniladi. Masalan: sigir, ot, ho'kiz singari uy hayvonlari shox va yollariga ins-jins, yomon ko'zdan asrash uchun ko'zmunchoq tumor taqish odati mavjud. Qo'y, ot, mol, kalla chanog'i, isiriq, chaqir: tikanak, taka, munchoq osish ko'rinishlari ham xuddi shu odatlarga yaqin turadi. Tumor taqish, taqinchoq taqish odati juda keng tarqalgan. Tumorlar mulla-eshon, azayimxonlar tomonidan maxsus tayyorlanib, sochga, chopon yo do'ppiga, beshik va belanchakka, yotoq-uy, xonadonlarga osib qo'yilgan.



Tumorlar buvi va memolar tomonidan shunchaki kiyim ichigga, tashiga qalampirunchoq yoki ko'zmunchoq solib ham tikilib taqilgan. Bunday uchburchak tumorlarni maishiy turmushdagi turli joylarda uchratish mumkin.

Uchinchi shifobaxsh taqinchoqlar o'z amaliga ko'ra ikki hissa ko'proq vazifani bajaradi. Ular ham taqinchoq, ham bezak, ham davolevchi xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Bularga qalampirunchoq, to'g'dona, o'sma, xino, shifobaxsh sadaf, feruza, marvaridlar kiradi.

Tasbeh donalari ham har xil jinslardan terilgan qimmatbaho toshlar, gavlari-sadaf, feruza toshlardan iboratdir. Turli urug'donalari teshilib, ibodat uchun namozxon-niyozxonlar tasbeh yasaganlar. Xurmo, jйда donalari, to'g'donadan yasalgan tasbeh sifat taqinchoqlarni ham bolalar beshiklari, uylarning kirish eshiklari yaqinida osilgan holda uchratish mumkin. Taqinchoqlar bilan bog'liq turli urf-odat, rasm-rusumlarni va udumlarni hozirgi kunda ham uchratish mumkin. Yosh bolalarning qo'lini halolashda salia o'rab, nishon taqib, egniga tamga qadash, kuyovlarning bosh oyoq sarposiga taqinchoq ilish kabillardir.

Kelinlarga tillaqosh, zebigardon, turli marjon-marvaridlar oshish, ko'ylak yenglari, tugma o'rnidagi taqinchoqlar, bo'yinbog' va boshqalar hozirgi zamonning ham asosiy taqinchoqlaridan bo'lib qoldi.

Turli safarlar, mukofotlar, xizmatdagi yutuqlar uchun berilgan ko'krakka taqiladigan turli-tuman nishonlar ham xuddi shu odatlarning hukumat tomonidan rasmiylashtirilgan ko'rinishidir.

Umuman taqinchoq taqish odati kiyinish, bezanish, turli marosim va to'y-tomoshalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'zbek xalqi maishiy turmushida ham madaniyat dunyosiga daxldoflikning moddiy ko'rinishi sifatida yashab kelmoqda, istiqbolda ham shunday bo'lib qolishi kerak.

Bizning davrimizga kelib taqinchoq taqish ko'proq o'zini boshqalardan ustun, boy-badavlat ko'rsatish tusiga kirganligi ham sir emas. Ba'zi bir ayollar, qiz-juvonlar kerak bo'lsa-bo'lmasa har xil almoyi-aljoyi narsalarni taqishib, o'zlarini ko'z-ko'z qilib yurishadiki, taqiladigan narsaning mohiyatini bilmay bo'yniga lib ketaverish madaniyat belgisi emas. Ayniqsa yigitlarning bo'yniga zanjir, munchoq, qulog'iga zirak taqishlari ularga o'ta yashamaydi.

Umuman yigitiarga ham, qizlarga ham eng go'zal ko'rinish — bu odob-axloq, hayo va iffatdir. Iffat orqali el-xalqqa yoqadigan koinil inson bo'lib, ketajak avlodga, vatanga sadoqatli yoshlar bo'lib yetishadilar.

Xalqimizda «eiga kirsang egningga qara» degan hikmat bor. Huning ajdodlarimiz bo'lmish bobolarimiz va momolarimiz o'z ko'z ko'rgan, donishmand insonlar bo'lgan. Ular har bir so'ziga, ramzi har bir harfi, ishoralariga ham teran mazmunlar singdirishgan. Bu folkmatning tub mazmuni «el ichiga kirdingizmi, uning bir parchasi bo'lib ko'ring, uning an'analari, tarixi fe'l-atvori, shuninga munosib bo'lib kiyinishga, yashashga harakat qiling», — degan ma'noni anglatadi.

Bugungi kun kiyimlari turfa holatdagi juda ajablanarli hol. Buzi qizlarimiz xorijiy liboslarni to'liq o'zlashtirib, tizzadan tepa kiyimlarni kiyishni o'zlariga udum qilgan bo'lsalar, ba'zi ayollar va qizlarimiz boshdan oyoq qoraga burkalib yurishlari to'g'rimikan degan savol tug'iladi. Axir har bir kiyimni kiyadigan mavridi borligi haqida xalq ichida juda ko'p mulohazalar yuradi, nahot shuni bilishmasa!

Agar xijob haqida gapiradigan bo'lsak, qizlarimizning yuksak axloq yo'llarini izlashlari, hayotlarini na'lum bir e'tiqod asosida qurmoqchi bo'lganlari yaxshi. Ammo xijobni havasga aylantirish, urf qilish yaxshi emas. Ayniqsa, boshdan oyoq qoraga chulg'ayish — millatimizga yot narsa. Momolarimiz «qora rang qoroning g'ulak chaqiradi», deydilar. Hatto azalarda ham bunday tusdagi kiyimlarni ehtiyot bo'lib, ming bir o'lebab, o'ylab kiydirishadi. Isalom tarixida xijobni Muhammad payg'ambarimiz (s.a.v.) avlodlari kiyishgan. Buni ortiqcha ko'zga tashlanmaslik vositasi deb bilishgan. Bugun xijobga o'ranib yurgan qizlarimiz qaytaga ko'proq nazarga tushmoqdalar. Demak, xijob o'z vazifasini ado etmayapti deb ham o'ylash mumkin.

Har bir hududning o'ziga xos havas qilsa arzigulik kiyimlari bor. Masalan, zar choponni qadimda ko'proq Buxoro, Samarqand kuyovlari kiyishgan. Farg'ona vodiysida esa kuyovlar ko'k beqasam, Surxondaryo, Qashqadaryoda yo'l-yo'l beqasam, Toshkent va uning atroflarida baxmal chopon, Xorazmda esa yana bir boshqa kuyov choponi bo'lgan. Kelinchaklarimiz esa ijaraga olingan ovrupacha oq ko'ylak emas, balki oq surpdan tikilgan nikoh libosida bo'lishgan.



Biz yangi liboslarni milliy mohiyatini saqlagan holda zamonga moslashtirishimiz lozim. Chunki biz ma'naviyat borasida bir narsa axtarib uzoqqa bormaymiz. Hamma poydevor o'zimizda. Bizdagi kiyimlarning har nuqtasi nima haqidagi ma'no kasb etadi. Masalan: ayollar durrasining uchi o'ng tarafga tashlansa — bosh egalikman; chapga tashlansa — boshim ochiq, ro'zg'orim buzilgan; o'rtga qo'ysa — bevaman, degan ma'noni anglatgan. Liboslar haqida gap ketganda, xalq dostonlarini eslaymiz. Millatimizning eng go'zal iffatlarini o'zida jam etgan timsollarimiz chavandoz, mergan qizlar chaqmoqday kiyinishib, kiyiklarday uchishgan. Shu tasavvurlardan olish kerak andozalarni. Har bir marosimning o'z kiyimi bor. Xalqimizda aza kiyimlariga e'tibor bilan qaratgan. Piru badavlat bo'lib dunyodan o'tganlar uchun aza tutayotgan ayollar oq mayda gulli matolardan libos kiyganlar. Bevaqt zavol bo'lganlarga azadorlar ko'k kiyishgan. Bugun bu an'analarga befarq qaraymiz. Aslida an'analimizning har birida olam-olam mazmun va ma'no bor. Muborak hadislarda aytishlaricha 40 kun azadorlik muhlati bo'lgan. Yillab aza tutib, azador bo'lish shariatda yo'q, xalqimiz, aza azani chaqiradi deydi. Shu bois ham aza liboslarini yengillatib, yosh-yalanglarni tezroq, boshiga oq solib, azadan chiqaradilar, Xalqimizning bu dono udumida hikmat ko'p. Liboslar qulay yashash uchun xizmat qilmog'i darkor. Liboslar insonning ma'naviy kamoloti, go'zallik tuyg'usi, oliyjanob maqsadlariga ko'zgu hamdir. Axir odamlar qimmatbaho dabdabali kiyimlarga erishmoq uchungina yashamaydilar, balki madaniy hayot tarzi, hayot ehtiyoji bo'lganligi uchun kiyim-kechak kiyadilar. Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, ko'p hollarda biz tanamizning tabiiy ehtiyojlarini bajarishdan ham ko'ra, ko'proq oqizligimizning, bilimsizligimizning, ddsizligimizning quli bo'lib qolmayapmizmi? To'g'ri bozordagi bir-biridan chiroyli liboslar, matolar ayollar, qizlar husniga husn qo'shadi. Lekin ularning aksariyati sun'iy tolalardan to'qilgan matolar ekanligi jiddiy mulohaza talab qiladi. Ancha-munchaga g'ijimlanmaydigan, yuvganda kiri tez ketadigan matolar xilma-xil teri kasalliklaridan tortib, yurak, asab xastaliklarini keltirib chiqarayotganini asrimizning ilg'or tibbiyot xodimlari ta'kidlab turibdilar. Kiyimlarga munosabat millatimizning naqadar dono ekanligini ko'rsatadi. Kiyimlarda insonning ta'lim-tarbiyasi aks etgan. Shunday bir hayotiy hikmat bor «Agar qiz bolani o'zi o'sgan muhitdan bir

mu'omna yuqori sharoitli xonadonga uzatsangiz, turmushi yaxshi kechishiga bu ham bir sabab bo'ladi». Afsuski taqdir, peshona deganlaridek, qizni hamisha ham shu hikmatga amal qilib uzatolmaymiz. Lekin aqlli onalar qizlari kelajakda baxtli-taxtli bo'lib ketishi uchun ularni juda yoshliklaridan hamma sohada, shu jumladan kiyim-kechak borasida ham ortiqcha erkalatmay, sabr-toqat qilib o'stirishlari ahamiyatlidir.

Axir tabiatan qonida, ruhiyatida chiroyligu, qimmatbaho liboslarga, zeb-ziynatlarga o'chlik bilan qaramagan qizlar o'z ota-uylarida aqllarini taniganidan boshlab urf bo'lgan kiyim-kechaklarni beistisno kiyib ulg'aygan bo'lsalar, yangi sharoitda — kuyov-otiq xonadonida boshga tushishi mumkin bo'lgan moddiy qiyinchiliklarga ko'nikishlari oson kechadi. Sir emas yildan-yilga ko'payib borayotgan qo'ydi-chiqdirlarning aksariyatiga yosh kelinlarning kuyov xonadonidagi qiyinchiliklarga chiday olmayotganliklari, bardoshsizlik, kiyim-kechak borasida qizlarimizning juda sayoz tushunchalari ham sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, Oллоh handalariga nasib etgan manzilu-makon, iqlim, ruhiyat bilan bog'liq ravishda kiyimlarning shaklu-shamoyili, rangi, matolarning turdasi asrlar davomida shakllangan. Do'ppilar, choponlar, kavush-mahsi, belbog'lar bobolarimiz, momolarimizdan bizga shunchaki meros emas. Bu liboslarning har birida tabiiy hamda ma'naviy ehtiyojlarimiz bilan bog'liq bo'lgan haqiqatlar mujassamdir. Masalan, tabiblarning aytishlaricha, jazirama quyoshda yalangbosh yurish turli xil bosh og'riqlarini keltirib chiqarishi bilan, sochning to'kilib ketishiga ham sabab bo'lar ekan. Erkaklarning do'ppi-si, ayollarning oq durra bog'lab yurishi ana shunday dardlarning oldini olar ekan. Shuningdek, u bevosita jinsiy jihatlilar bilan bog'liq hodisa. Bu borada rivojlangan g'arb mamlakatlari ruhshunoslarining ilmiy-amaliy tadqiqotlariga diqqat qilinsa, oilaviy ajralishlarning yil sayin ortib borishiga ayollarning o'ta zamonaviy, ya'ni badanning ko'p joyi ochiq qoladigan kiyimlar kiyishlarini ham sabab deb ko'rsatmoqdalar. Chunki ayollar qanchalik ochiq-sochiq yursalar, ularning jozibaliligi, sirtiligi, o'ziga jalb qiluvchi kuchi, qisqasi ohangrabosi shunchalar kamayib borar ekan. Zamonalar hayot kitobini yangiliklar bilan tahrir qilaveradi. Liboslarga ham o'z hukmini o'tkazaveradi.

Lekin ana shu zamonaviy kiyim-kechaklarini milliy matolar, chizgilar, bichimlar bilan uyg'unlashtirish usta libossozlarimizning muqaddas burchlaridir.

O'zbek xonadoniga mehmon kelishi udumi bir bayram sanaladi. Uy bekalari mehmon uchun alohida dasturxon yozib eng tansiq taomlarni pishiradilar. Hammayoqni chinni-chiroqdek yaltillatib qo'yadilar. Ayollarimizning mehmon kelishidan avval orolanib, chiroyli liboslar kiyib olib, mehmon kutishlari qadimiy momolarimizdan qolgan an'anadir. Qadimda har bir uy bekasining faqat mehmon kelganda kiyadigan bir-ikki sidra chiroyli liboslari bor bo'lgan. To'y-to'ychiqqa kiyadigan libos alohida, mehmonga boradigani alohida, azaga borganda kiyadigani alohida bo'lgan. Hozir ham shu taomillarga amal qilgan holda mehmon kelganda, mehmonga borganda, ko'chada va idorada kiyish uchun alohida liboslar bo'lgani ma'qul. Tungi liboslar har bir ayolda bo'lishi shart.


Bunday liboslar yengil, yuqqaroq gazlamalardan keng va qulay qilib tikdirilsa yanada yaxshi bo'ladi. O'g'il-qizlarimizga ham shunday kiyimlar tikib berishimiz, ularni shunga odatlantirishimiz zarur.

Balog'at yoshidagi qizlarga hashamdor libos, qimmatbaho taqinchog'u pardoz-andozning hojati yo'q. Axir yoshlikning o'zi bir olam go'zallik. Ba'zi qizlarimizning ko'chada o'zini tutishi, kiyinishini ko'rib kattalar xijolat tortadi. U qiz bolami yoki kekinchakmi, farqlash qiyin. Naqsh olmaday tiniq yuzlariga upa chaplab, ola bayroq liboslarni egnilariga ilishadi. Bu o'rinda aybni o'sha qizlarning o'zlariga qo'ysak xato bo'lar. Onalar qayoqqa qarashadi, axir. Ular qizlarini bunday holatga solgandan ko'ra, hunar o'rgatib, ro'zg'or yumushlariga tayyorlaganlari foydaliroqdir.

Ust kiyimlar rangi, tikilishi jihatdan bir-biriga mutanosib bo'lmog'i lozim. Qaysi kiyimni qachon kiyish kerakligini, qayerda qanday kiyinish lozimligini ham bilish kerak. Masalan, xalat bilan ko'chaga chiqish yaxshi emas. Sochini mayda o'rgan qizlarning boshyalang yurishi ham ro'o'rin. Hatto taqinchoqlar ham kiyim rangiga uyg'unlashgan bo'lsa yaxshi. Ba'zi qiz-juvonlarimiz uy ichida kir-chir, nobop kiyimlar bilan yurishadi-yu, ko'chaga chiqqanlarida aksincha yaltur-yultur, hashamdor liboslari bilan ko'pchilik e'tiborini tortishadi. Biz o'zgalar e'tiborini emas, balki o'z e'tiborimizni hisobga olishimiz zarur. Ust kiyimimizning hamisha toza va ko'rkam bo'lishi kayfiyatimizga, ishimizga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qadimda momolarimiz har bir kiyimni juda qadrlashgan, eski bo'lgan chog'dayam uni tashlab yubormaganlar, aksincha boshqa maqsadlarda foydalanishgan. Bosh kiyim hamda oyoq kiyimni begonalarga berishmagan, irim qilishgan. «Axir kiyimda o'z egasining ruhi bo'ladi» — degan gap bejiz aytilmagan.

Shuning uchun, ayniqsa, nikoh ko'ylagini xarid qilishda ehtiyot bo'limoqliklari lozim. Chunki nikoh ko'ylagi ohorli oq surpdan tikilgan bo'lib, faqat kechqurun kiyilgan. Boshqa paytlarda esa atlas lozim, atlas ko'ylak kiyilgan. Shundan uning kelinchakligi bilinagan. Umuman liboslarni qimmat yoki arzon matodan tikilgan bo'lishiga qaramay u kishiga yarashimli bo'lishi lozim. Shundaygina uni kiygan ayol yoki qiz oilada go'zal ko'rinadi. Unga esa hayo, ibo, samimiyat aralashsa, oila yanada mustahkam, charog'on bo'ladi. O'zbek oilasining charog'onligi liboslarga ham bog'liqdir. Ujmoiy hayot o'zgarishi bilan liboslar ham o'zgarib boradi. Dunyo saltnasiga chiqib borayotgan respublikamiz odamlari ham eng zamonaviy, ko'rkam, qulay, kiyimlarni kiyish bilan birga, asrdan asrga o'tib, ko'z qorachig'iday saqlanib kelinayotgan tariximiz, ko'rkimiz, ham milliy g'urur va iftixorimiz bo'lgan avlodlardan meros kiyimlarni kiyishga maqsadga muvofiq bo'lur edi.



## FOLKLOR-ETNOGRAFIK JAMOALARIDA LIBOSNING O'RNINI

Bugungi kun san'atini folklor-etnografik jamoalarisiz tasavvur etish qiyin. Shu bois bu jamoalar kiyimlari har bir hududning marosim va udumlarini namoyon etishda o'ziga xoslik mavjuddir. Masalan: «Boysun» xalq folklor-etnografik jamoasining kiyimlari ham milliy qadriyatdan dalolat beradi. Butun ko'rinishi shaklu-shamoyili bilan etnografik xususiyatlarini saqlagan. Erkaklar olacha chopon, oyoqlarida mukki yoki chorig', boshlarida esa quyosh ramzi ifodalangan boysunning do'ppi. Qadimiy jelak yoki qizil rangli matodan guldor keng ko'ylak ayollar husniga husn qo'shib turadi. Ular boshidagi qasaba yoki qadimiy boysuniy do'ppi tog'lik xalqlar libosning betakror namunasi. Badiiy bezak namumasi bo'lmish tillaqosh, buloqi, haykal gardon, turli shakldagi ziraklar albatta qadimiyatdan dalolat beradi. Bu holat ansamblining etnografik kaloritini yanada boyitadi.

Ma'lumki, folklor-etnografik jamoalarining nufuzini oshirishda o'zi yashayotgan hududning kiyimlari, zebi ziynatlaridan foydalanish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada «Boysun» jamoasining kiyimlari ham shu hududga mos va xosligidan, qadimiyatdan darak beradi. Bu shaklu-shamoyil ham tog'liklarning etnografik tarixidan dalolatdir.

Birgina Boysunning o'zida 20 xildan ortiqroq do'ppi shakllari mavjud. Do'ppini ba'zan «Kallapo'shi» ham deyiladi. Masalan: lolagul, to'ldirma va boshqalar. Ularning har birida ramziy ma'nolarning aksini topgandir.

Ayollari esa jelak, karkasli ro'mol o'rashadi. Karkasli ro'molning asosan o'zbeklarning «Qo'ng'iroq» urug'iga mansub bo'lgan ayollari o'rashadi. 16 xil ro'molning barehasini o'rab chiqqanda esa, kamalak jilosi hosil bo'ladi. Bundan tashqari ayollari jiyakli ko'ylak, yo'l-yo'l chopon kiyadilar. Qizlarning ko'ylagi iloji

har qanday qizil, pushti, sariq, ko'k, to'q qizil matolardan tikiladi. Chunki qizil kiygan qizlar lolaning uforini namoyon etishi kerak. Kelmachaklar oq g'ijim ro'mol yoki qizil shoyi ro'mol o'rashadi. Bu liboslar albatta o'tkazilayotgan marosimga, aytilayotgan qadimga, ijro etilayotgan raqsqa monand ravishda kiyiladi. Shu liboslar moslashtirilgan holda turli xil taqinchoqlar taqiladi. Masalan: tillaqosh, buloqi, haykal gardon, turli shakldagi qimmatli buyumlardan taqiladi. Ko'proq, boysunliklarning o'zlarini namoyon qilish va zanjirlar taqiladi. Bu xususiyatlar jamoalarning turli xillarini qora ipdan yasashadi. Bu xususiyatlar jamoaning o'ziga xos bo'lmay, balki mazkur kiyim-kechak, zebilar, gardon, soch popuklarini yerli xalqning milliy iftixori hisoblanadi. «Boysun» ijrochilarining tashqi ko'rinishlari ijrochilarning muxlislarining ma'naviy dunyosini boyitishda qadimiy urf-odat, marosim va analarga bo'lgan hurmat e'tiborini uyg'otishda tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bo'stonliq tumani madaniyat uyi qoshidagi bahoriy chechaklarining kiyimlari ham o'ziga xosdir. Yigirma besh onaxon atlas ko'ylak, qalami kamzullarining, shohi etaklarini hilpiratib, zarrin durachalarini peshonalariga taqib, sabnaga chiqadilar. Har qaysi folklor etnografik-jamoalarining o'ziga xos kiyinish ushblari mavjud.

Islom shariatini bilan qadriyatlarimizni, urf-odat va marosimlarimizni, kishini faxrlantiruvchi, qadrimizni ko'targuvchi boyliklarimizni qayta tiklayapmiz. Biz hozir ana shu bosqichdamin. Ayniqsa, milliy liboslar folklor-etnografik jamoalarining dasturidagi ijroda ifodalinishi bugungi kun uchun ahamiyatlidir.

Liboslar qulay yashash uchun xizmat qilmog'i lozim. Liboslar insonning ma'naviy kamoloti, go'zallik tuyg'usi, oliyanob naqadlariga ko'zgu hamdir.



## LIBOS INSON ZIYNATI

Madaniyatlilikning asosiy belgilaridan biri bu kiyinish odatidir. Kimning qanday kiyinganligiga qarab, uning did-farosati, moddiy va ma'naviy darajasini, hatto kasbini aniqlab olish mumkin. Insoniyat ongida boshqalardan istihola qilish, uyaliq, andisha tushunchalari paydo bo'lgandan boshlab ular kiyinishni odat qilishgan.

Kiyinishni ilk bor zaif jins — ayollar boshlaganlar. Shuning uchun ham xotin-qizlar tabiatida kiyinish, bezanish, taqinish tushunchalari turmushning asosiy ko'rinishlari qatorida turadi. Shu sabab xalqimizda «onangni otangga bepardoz ko'rsatma» degan gap bor. Kiyinish madaniyati jins, yosh, fasl, millat, urf-odatlar, kasb-kor, zamon va taraqqiyotning muayyan bosqichi darajasi bilan bog'liqdir. Bolalar, qizlar, yoshlar, o'rta yoshlilar, keksa odamlarning kiyinish madaniyati mazmuni va shakli-shamoyili jihatidan bir-biridan ajralib turadi.

Kiyim odamni issiq-sovuqdan saqlaydi. Kishi tanasi, ruhiga ijobiy ta'sir qiladi. Salomatlikni barqarorlashtirib turadi. Bizning o'zbek xalqimiz kiyinish madaniyati nuqtayi nazaridan ham dunyodagi xalqlarning oldingi saflarida turadi. Bir necha ming yillar ilgari ota-bobolarimiz egniga yaktak-lozim, oyoqda kavush-mahsi, etik, boshga shabpo'sh, do'ppi, telpak, ustiga chopon, to'n kiyib, belga belbog', ars boylashgan. Cho'pon-cho'liqlar, chavandoz va pahlavonlar faslga qarab chakmon ham kiyishgan.

Momolarimiz qimmatbaho, nafis uzun ko'ylak-lozim, kavush-mahsi, to'n kiyishgan. Jun, ipak tovar, chit-satin ro'mollar o'rash-uzuk-halqa, tanga-tillolardan iborat taqinchoqlar ham kiyimlar dastasiga yanada ko'rk va jilo bergan.

Kiyinish har bir xalqning qadim zamonlardan buyon yashab kelayotgan mintaqasi, shart-sharoiti, turmush tarzi, udum, urf-

odatlari, tabiati bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgan. Masalan, serquyosh o'lkalarda yashovchi xalqlarda qadim zamonlardan beri oq matodan kiyim kiyinishni odat qilgan. Chunki oq matod quyosh nurlarini bir qadar qaytarib, kishilarni issiq ta'siridan saqlagan.

Aksincha, iqlimi sovuq o'lka va yurtlar xalqlari esa odatda qora matodan kiyim kiyishga odatlanishgan. Chunki bu kiyim nat bo'lsa-da chiroy ko'rsatgan quyosh nurlarini o'ziga singdirib, kiyim egasining tanini yayratgan.

Dunyodagi barcha xalqlar bir-biriga hududiy, madaniy-ma'naviy, iqtisodiy jihatdan qanchalik yaqinlashganlariga ko'ra, ularning kiyinish madaniyatidagi jihatlar ham bir-biriga ko'chgan. Bu bir mamlakatning ikkinchi davlat tomonidan bosib olinishi, katta xalqqa kichik xalqlarning ixtiyoriy ravishda qo'shilishi kabi omillar bilan bog'lanib ketadi. O'rta Osiyodagi ko'pgina xalqlar singari o'zbek xalqining kiyinish madaniyatida ham asosiy, o'zbek odat va rasmlaridan tashqari, fors, yunon-makedon, arab, mo'g'ul xalqlari kiyinish alomatlari uchraydi. Chunki tarixdan bu xalqlar lashkarlari O'rta Osiyo yerlariga bostirib kirib, bir necha muddat bu yerlarda yashab qolishgani yaxshi ma'lum.

Aksincha, Yaqin Sharq, Sibir, Kavkazorti, Hindiston, Afg'oniston va Ovro'poning bir qismi xalqlarida O'rta Osiyo, xususan, bizning qadimiy xalqimiz kiyinish madaniyati belgilarini uchratish mumkin. Bu Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo, Shayboniyxon kabi ajdodlarimizning bu mamlakatlarga lashkar tortib yurishlari natijasidir.

Hozirgi davrda umuman katta kishilar ham rangi-tusi, katta-kichikligi demasa, odatda, bir xil kiyim-bosh: ko'ylak kastum-shim, tufl-botinka, plash-palto, shlapa yoki shapka kiyishadi. Bu kiyimlar dastasi umuman Ovro'po madaniyatiga doir, xususan qadimiy ingliz xalqi milliy kiyim-boshi hosilasidir. Taraqqiyotning XX asriga kelib, dunyoda eng faol ishlatiladigan til bu — ingliz tili bo'lganidek, kiyinish borasidagi eng qulay va ko'pchilikbop kiyinish udumi ham ingliz kiyimi: kastum-shim, plash-palto va hokazo kiyimlar bo'lib qoldi.

Umuman, bugungi kunda roman-german xalqlari kiyinish madaniyati deyarli butun jahon xalqlari tanasi va ruhiga egalik qilmoqda. Biroq, har bir xalq, jumladan ko'p millatli xalqimiz



tarqibiga kiruvchi har bir millat o'z kiyinish an'analari, madaniyati, insonning tashqi ko'rinishi bilan bog'liq urf-odatlarini u yoki bu darajada saqlab qoldi va bundan buyon ham asrab-avaylab saqlashi tabiiy. Chunki biz sevgan baynalmillatlikning o'zi shuni taqozo qiladi.

Obrazli qilib aytganda, umumiy gulzorda gul ko'p, chaman ko'p, lekin har bir gulning o'z rangi, hidi, hayot tarzi va ifori bor. Millatlar va kiyimlar ham xuddi shunday. Ular rang-barangligi bilan kamalakdek tovlanib, ko'ngillarni quvontirishi lozim.

## O'ZBEK AN'ANAVIY KIYIMLARINING O'RGANILISH TARIXI

Kiyimlar tarixiga bag'ishlangan maxsus ilmiy ishlarni tahlil etishdan oldin shuni ham aytib o'tish kerakki, bir necha ming yillik tarix bilan yuzlashgan o'zbek milliy kiyimlari to'g'risida qadimiy yozma merosimiz durdonalarida ham e'tiborga sazovor mulohazalar bildirilgan. Jumladan, o'zbek xalqining eng qadimiy yozma merosi «Avesto» kitobida, shuningdek o'rta asrlarda yashab ijod qilgan mashhur turkiy tilshunos Mahmud Qoshg'ariy, ensiklopedist olim Abu Rayxon Beruniy va buyuk davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida xalqimizning qadimiy kiyimlari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

(Yevropalik mualliflar tomonidan) Markaziy Osiyo xalqlari kiyim-kechaklariga oid dastlabki materiallar o'rta asrlardan, ya'ni mazkur mintaqaga yevropaliklar tomonidan ilk ekspeditsiyalar uyushtirilgan davrdan boshlab yig'ila boshlangan. Xususan, XIII asrda Mo'g'ulistonga safar qilish asnosida mazkur mintaqada bo'lgan Marko Polo, shuningdek, Plano Karpini Markaziy Osiyo xalqlarining o'sha davrlardagi kiyim-kechaklari to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. XV asr boshida Amir Temur saroyiga elchi bo'lib kelgan ispaniyalik Rui De Gonzales Klavixo Samarqandda ikki yil yashagan va mahalliy aholining o'sha davrdagi kiyimlari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'lgan. Biroq, u o'z esdaliklarida ko'proq o'sha davrning aslzoda ayollari, ya'ni temuriy malikalarning turli elchilar va chet ellik mehmonlarni qabul qilish marosimlarida kiygan kiyimlari to'g'risidagina ma'lumotlar berib o'tgan] xolos.

XVI asrda Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan ingliz savdogari A. Jenkinson esa ushbu mintaqada ishlab chiqarilgan mahalliy matolar to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar berib o'tgan, lekin afsuski, muallif mahalliy aholining kiyim-kechaklari borasida ma'lumot

motlar bermagan. Qolaversa, mahalliy usulda ishlab chiqarilgan matolar, Buxoroda tayyorlangan matolar to'g'risida mo'jor olimi H. Vamberi ham batafsil ma'lumotlar berib o'tgan.

XIX asrning birinchi yarmiga kelib Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan ko'plab sayyohlar, elchilar, harbiylarning yo'lnomalari hamda turli maqsadlarda uyushtirilgan ekspeditsiya ishtirokchilarining safaromalarida mintaqa to'g'risidagi dastlabki etnografik ma'lumotlarni uchratish mumkin. Biroq, ular mahalliy aholining antropologik tavsifiga, ko'proq qiyofasiga to'xtalib o'tganlar va ayrim o'rinlardagina kiyim-boshlari to'g'risida ma'lumotlar berganlar. Jumladan, Ye. Meyendorf buxorolik ayollar o'zlarining tanalarini butkul berkitib turuvchi keng kiyim kiyganliklarini qayd etgan. Shuningdek bu davrda Turkistonda bo'lgan P. Nebolsin ham buxoroliklar, xivaliklar va qo'qonliklarning milliy kiyimlari hamda mahalliy matolar to'g'risida juda qisqa, lekin o'ta qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tadi.

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni bosib olgandan so'ng uni o'z maqsadlari yo'lida o'rganishga kirishib, o'lka bo'ylab qator ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirdi. Natijada o'sha paytda faoliyat yurgizgan bir qator ilmiy jamiyatlar tomonidan Turkiston tarixi hamda mahalliy aholining moddiy va ma'naviy madaniyatiga bag'ishlangan qator ilmiy asarlar chop etirildi.

Umuman olganda, yuqorida nomlari qayd etilgan mualliflarning asarlarida O'rta Osiyo xalqlarining o'rta asrlar va Rossiya mustamlakasi arafasidagi kiyimlari, kiyinish madaniyati hamda moddiy madaniyatining libos bilan bog'liq jihatlari haqida umumiy etnografik ma'lumotlar berilganligi o'zbek xalqining an'anaviy kiyimlari tarixini o'rganishi uchun ma'lum ma'noda asos bo'lib xizmat qiladi deb aytish mumkin. Qolaversa, mazkur davrda o'zbek xalqining an'anaviy kiyim-kechaklari borasida dastlabki ilmiy materiallar yig'ila boshlangan bo'lsa-da, lekin ushbu qaydnomalar ko'pincha malakali tadqiqotchilar tomonidan yig'ilma-ganligi bois an'anaviy kiyimlarning o'ziga xos xususiyatlari va tarixi borasida batafsil ma'lumot bera olmaydigan tavsifiy xarakterdagi uzuq-yuluq ma'lumotlar majmuyidagina iborat bo'lib qolgan. XX asrning 20—40-yillarida V.G. Grigorev, O.A. Suxareva kabi etnograf va sharqshunos olimlar tomonidan ilmiy ma'lumotlar va dala tadqiqotlari asosida o'zbeklarning an'anaviy kiyimlariga oid qator yangi asarlar va maqolalar e'lon qilindi. Ayniqsa, bu

borada o'zbek etnograf olimasi M. Bikjonovaning Toshkent shahri o'zbeklarining an'anaviy kiyimlarini o'rganishiga doir qator ilmiy izlanishlari alohida e'tiborga molikdir.

XX asrning 50—60-yillariga kelib o'zbek xalqining an'anaviy kiyimlarini o'rganish borasida yangi davr boshlandi. Bu davrda turli tarixiy-etnografik mintaqalarda yashovchi o'zbeklarning an'anaviy kiyimlarini o'rganish borasida yangi-yangi tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu borada mashhur elshunos olimi O.A. Suxareva dala tadqiqotlari va turli tarixiy materiallar asosida o'zbeklarning an'anaviy kiyimlariga oid qator fundamental asarlar yaratdi. Oltinaning O'rta Osiyo xalqlari kiyimlarini o'rganish muammasiga oid ilmiy ishlarida mintaqada yashovchi xalqlar kiyimlarining o'rganilish tarixi va kelgusida mavzu doirasida tadqiq qilinishi lozim bo'lgan muammolar borasida qator e'tiborga molik fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Ayniqsa, bu davrda O'rta Osiyo xalqlarining an'anaviy kiyimlariga bag'ishlab e'lon qilingan ishlar ichida Mikluxo-Maklay nomli Etnografiya instituti tomonidan nashr qilingan «O'rta Osiyo xalqlari kiyimlari» nomli fundamental asar alohida o'rin tutadi. Mazkur asar O'rta Osiyo xalqlari kiyimlari sharqshunos va etnograf mutaxassislar tomonidan arxeologik, devoriy rasmlar, yozma manbalar va dala-etnografik materiallari asosida tahlil etilgan asarlardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, taniqli etnograf olim, akademik Q. Shoni-yozovning H. Ismoilov bilan hammualliflikda yozgan «O'zbeklar moddiy madaniyatidan etnografik lavhalar» nomli asarida ham an'anaviy o'zbek kiyimlari tahliliga alohida bob bag'ishlangan bo'lib, erkak va ayollar kiyimlari, ularning o'zaro farqlari, tayyorlanishi va kiyilishi xususida qiziqarli mulohazalar bayon qilingan.

Bosh kiyimlari ham an'anaviy kiyimlarning asosiy qismlaridan birini tashkil qiladi. Qadimgi davrlardayoq bosh kiyimiga qarab o'zbeklarning etnik va lokal guruhlarini farqlash mumkin bo'lgan. Zero, o'zbek ayollarining an'anaviy bosh kiyimlari san'atshunos va etnograf olimlar tomonidan jiddiy tadqiq etilgan. Umuman olganda, ko'plab mualliflar ayollar yuzini yopinchiq tarzida to'sib turuvchi maxsus liboslarning kelib chiqishi islomdan avvalgi an'analar bilan bog'liq, degan xulosaga kelgan. Taniqli muzeyshunos mutaxassislar T. Abdullayev va S.A. Hasanovlarning «O'zbeklar kiyimi» nomli asarida O'zbekiston tarixi muzeyida

saqlanayotgan kiyim-kechaklarning noyob nusxalari asosida XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Toshkent va Xorazm mintaqalariga xos erkaklar, ayollar, bolalar hamda turli tabaqa vakillari kiyimlari tahlil qilingan. Bu asar yuqorida aytib o'tilganidek, muzey materiallarini o'rganish asosida yuzaga kelgan dastlabki tadqiqot hisoblansa-da, bir qator kamchiliklardan ham xoli emas. Jumladan, kitobda kiyimlarning mahalliy xususiyatlariga doir jihatlar aks ettirilmagan. Shu bois, O'zbekistonning barcha mintaqalariga xos bo'lgan xilma-xillik, an'anaviy bichish usullari batafsil yoritilmagan. Lekin shunga qaramay, bu asar o'zbek kiyimlari mavzuyida keng ko'lami tadqiqotlar olib borish hamda kiyinish madaniyatining o'rganilmagan jahalarini chuqur yoritishga yordam beradi. O'zbek kiyimlarining etnografik tahlili tarixiga nazar tashlaganda, XX asrning 90-yillariga kelib Moskvadagi Etnografiya instituti ilmiy jamoasi tomonidan nashr etilgan «O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining an'anaviy kiyimlari» nomli asarni alohida ta'kidlab o'tish joizdir. O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining an'anaviy kiyimlariga oid so'nggi tadqiqotlar natijasini o'zida mujassamlashtirgan bu asarda Xorazm ayollari va Farg'ona-Toshkent erkaklarining an'anaviy kiyimlari qiyosiy-tarixiy jihatdan tahlil qilinganligi muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Sobiq Ittifoq davrida O'rta Osiyo xalqlarining uy sharoitida ip-gazlama, ipakli va yarim ipakli (nimshoyi) hamda jun va teridan mato tayyorlash jarayoni ham ayrim tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, matolarni to'qib, turli-tuman ranglarga bo'yash usullari va ushbu jarayonlarda ishtirok etuvchi hunarmandlarning vazifalari tavsiflangan. Lekin, afsuski, bu o'ziga xos va qiziqarli mavzu respublikamizning milliy an'analari hamda o'ziga xos lokal xususiyatlari bilan ajralib turuvchi tarixiy-etnografik mintaqalari Surxon, Qashqadaryo vohasi misolida hozirgacha o'rganilmagan.

An'anaviy kiyimlarga xos taqinchoq va bezaklar yaqin davrlargacha odat bo'lib kelgan. Kiyim-kechaklardagi yangilanish va uning transformatsiyasi taqinchoqlarning ayrim xillari iste'moldan chiqib ketishiga sabab bo'lgan. Bu davrda an'anaviy kiyimlarning ajralmas qismi bo'lgan taqinchoqlarning turlari, tarixi va ular bilan bog'liq tasavvurlar ham ma'lum darajada o'rganilgan.

Umuman olganda, mazkur tadqiqotlar ma'lum ilmiy konsepsiya asosida yozilgan bo'lsa-da, lekin aksariyat ilmiy ishlarda

O'zbekistonning barcha mintaqalarida yashovchi o'zbeklar kiyimlari qamrab olinmagan. Shu bois, bajarilgan ishlarda kiyimlarning turli mintaqalarga xos mahalliy turlari to'la aks etmagan, ayrim hollarda esa faqatgina muzey materiallari bilan chegaralanib qolganini kuzatish mumkin. Mustaqillik yillarida ham bir qator tadqiqotlarda milliy qadriyatlarimiz, an'anaviy moddiy va ma'naviy madaniyat, xalqona urf-odatlar muammosi haqqoniy ilmiy muammo tarzda o'rganila boshlandi, deb aytish mumkin. Jumladan, an'anaviy kiyimlarimiz tarkibiga kiruvchi o'zbek milliy idroplilariga bag'ishlangan tadqiqotlarda yurtimiz aholisining an'anaviy bosh kiyimlari, ularning turli mintaqalarga xos ko'rinishlari va tarixiy asoslari borasida yangi ma'lumotlar tahlil etilgani bilan ham ahamiyatlidir.

O'zRFA Tarix instituti «Etnologiya» bo'limida o'zbek xalqi etnografiyasining dolzarb mavzularining yangicha talqiniga bag'ishlangan qator tadqiqotlar yaratildi deb aytish mumkin. Jumladan, etnograf G. Yuldasheva Nurota vohasi ayollarining an'anaviy kiyimlari mavzusida yoqlagan nomzodlik dissertatsiyasida vohay ayollarining kundalik bayram kiyimlari hamda qizlar va kelinlarning liboslari haqida boy etnografik ma'lumotlar keltirgan.

Tadqiqotchi G. Zunnunova Toshkent shahri o'zbek ayollari kiyimlarining rivojlanish bosqichlari va transformatsiyasini o'rganilgan bo'lsa, Q. Jumayev Buxoro kiyimlarining o'ziga xos tomonlarini etnografik materiallar asosida tahlil qilgan. Bundan tashqari, U. Abdullayev, M. Hamidova, T. Botirqulov kabi yosh san'atshunos, faylasuf, etnograf olimlarning o'zbek milliy kiyimlari tahliliga bag'ishlangan qator ishlari e'lon qilingan. Yosh iste'dodli etnolog olim A.A. Ashirov tomonidan o'zbek xalqi oilaviy marosimlarida kiyim-kechaklarning ramziy tutgan o'rni yangicha nuqtai nazaridan tadqiq qilingan bo'lib, tug'ilish, nikoh va motam marosimlarida kiyiladigan kiyimlardagi umumiyliklar borasida qator e'tiborga sazovor mulohazalar bildirilgan.

So'nggi yillarda o'zbek milliy kiyimlarini ilmiy asosli tarzda o'rganishda san'atshunos olim N. Sodiqovanning xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Ushbu muallif XIX—XX asrlardagi o'zbek milliy kiyimlarini respublikamiz va xorijiy mamlakatlardagi yirik muzeylarning fondlarida saqlanayotgan materiallar asosida turli hududlar, jumladan, Toshkent, Farg'ona, Xorazm, Buxoro, Samarqand viloyatlari bo'yicha ilmiy tadqiq qilganligini aytib



o'tish o'rinli. Xullas, mavjud adabiyotlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, an'anaviy milliy kiyimlarning transformatsiyasi, Surxondaryo Qashqadaryo vohasi materiallari asosida XIX asr oxiri — XX asr tarixiy davri doirasida maxsus o'rganib chiqilmagan.

Surxondaryo, Qashqadaryo vohasi o'zbeklarining XIX asrning oxiri — XX asrdagi an'anaviy kiyimlari transformatsiyasini ilmiy tadqiq qilishda mualliflarga 2000—2006-yillar mobaynida vohaning Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Qamashi, G'uzor, Qarshi, Koson, Kasbi, Muborak, Mirishkor, Denov, Boysun tumanlaridan yig'ilgan materiallar asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Ushbu izlanish uchun yig'ilgan dala materiallari mahalliy aholi bilan suhbat, shaxsiy kuzatuvlar va anketa so'rovnomalari asosida to'plandi. Xalqimizning an'anaviy kiyimlarini yaxshi biladigan, hayoti davomida ushbu kiyimlarni kiygan, bichib-tikib tayyorlagan 65—90 yoshdagi 100 dan ortiq axborotchilardan etnografik ma'lumotlar yozib olindi. Shuningdek kitobni yetarlicha yoritish uchun aholining shaxsiy fotoalbomlaridagi kiyim tasvirlari hamda keksalar qo'lida saqlanayotgan kiyim namunalari tayanildi va kiyinish madaniyatining rivojlanish jarayoni chuqur tahlil etildi.

## O'ZBEK XALQI AN'ANAVIY KIYIMLARINING SHAKLLANISH TARIXIDAN

Hisoiyatning kiyinish ehtiyojini o'tovchi buyumlar majmuining umumiy nomi o'zbek adabiy tilida «kiyim», «kiyim-kechak», so'zlashuv nutqida «engil», «engil-bosh» (engilvosh), «kiyim-bosh» (kiyim-vosh), «ust-bosh» (ustvosh), «libos», «sarpo» kabi atamalar bilan ifodalanadi. An'anaviy kiyimlar uzoq tarixiy davr davomida shakllanib, u yoki bu xalq yashagan geografik muhit, uning xo'jalik shakli, ijtimoiy munosabatlari, madaniyati, etnik qatlamlari va boshqa qator omillar bilan bevosita bog'liq holda taraqqiy etib borgan. Boshqacha aytganda, kiyimlar va kiyinish madaniyati uzoq tarixiy-tadriijiy yo'lni bosib o'tgan. Xalq turmushiga mos, ishlab chiqarish jarayonlariga xos bo'lgan kiyimlar asrlar mobaynida shakllanib borishi natijasida xalqning an'anaviy milliy kiyimlari majmuiy yuzaga kelgan. Xalqona milliy liboslarning shakllanishida tashqi tabiiy muhit, xo'jalik mashg'uloti, xalq falsafasi, madaniyati, ijodi, diniy e'tiqodi va milliy an'analari kabi turfa xil omillar muhim o'rin tutadi. Kiyimlarning yuzaga kelishi va turlarining ko'payishida kishilarning turmush tarzi, mehnat va iqlim sharoitidan tashqari, ularning madaniy rivojlanishi, estetik didining o'sishi ham asosiy omillardan biri bo'lgan.

Darhaqiqat, kiyimlar bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, milliy liboslarda ma'lum bir badiiy talqin mujassamlashgan bo'lib, unda inson o'zining estetik g'oyalarini ifoda etgan va jamiyat hayoti bilan bog'liq holda rivojlanib borgan. O'z navbatida, uning taraqqiyoti nafaqat iqtisodiyot rivoji natijasida sodir bo'lgan o'zgarishlar, balki siyosat, din, etika bilan ham bevosita bog'liq bo'lgan. Umuman olganda, xalq kiyimlari an'anaviy milliy madaniyatning asosini tashkil qiluvchi muhim etnomadaniy hodisalardan biri bo'lib, unda xalqning ruhiy tafakkuri, turmush tarzi, yosh, jins, bo'y-bastni hisobga olgan holda o'ziga xos did bilan tayyorlana boshlangan va tobora mukammallashtirib



borgan. Xullas, har bir tarixiy davr kiyim-boshlarida o'sha bosqichga xos kiyinish madaniyatining in'ikosi aks etib turgan.

O'zbekiston hududida yashagan eng qadimgi ajdodlarimizning kiyimlari ham dunyodagi boshqa millatlar kiyimlari kabi tabiiy iqlim, turmush sharoitlari va urug'-qabila an'analari asosida shakllangan. O'tmish ajdodlarimizning kiyim-kechagi, ularning shakllari va evolutsiyasi hamda mahalliy xususiyatlari to'g'risida respublikamiz hududidan topilgan arxeologik yodgorliklar, devoriy rasmlar, haykalchalar, yozma manbalar, qo'lyozma kitoblarga ishlangan mo'jaz rang tasvirlar (miniatura)lar birmuncha aniq tasavvurlar beradi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kiyimlarning dastlabki shakllari to'qimachilikning paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyo hududida to'qimachilikning vujudga kelishi tosh asri ilk neolitga borib taqaladi. Xususan, Kopettog' etaklarida aniqlangan Jayxun madaniyatiga oid yodgorliklarda to'quv dastgohlarining qoldiqlari topilgan. Bu davrda mintaqada chorvachilik sohasi rivojlangan bo'lib, to'qimachilikda jundan tayyorlangan kiyim-kechaklar asosiy o'rinni egallagan. O'z navbatida shuni ham aytib o'tish kerakki, O'rta Osiyodan alohida ahamiyatga ega bo'lgan qadimgi to'qimachilik markazlari topilmagan bo'lsa-da, tutash tarixiy-madaniy mintaqalarda kuzatilgan ashyolar eneolit davridan boshlab to'qimachilik yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatadi.

Miloddan avvalgi II ming yillikka oid kiyim qoldiqlari Sopoltepadan ham topilgan. Umuman olganda, miloddan avvalgi VI asrga kelib kiyim tayyorlashda jun matolari teri matolarini deyarli siqib chiqargan.

Umuman olganda, xalq kiyimlari an'anaviy milliy madaniyatning asosini tashkil qiluvchi muhim etno-madaniy hodisalardan biri bo'lib, unda xalqning ruhiy tafakkuri, turmush tarziga tayangan holda va kiyinish madaniyatining rivojlanish, taraqqiyot darajasi va etnik tarixi o'z aksini topgan. Demak, kiyim ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyotiga sayin u ham takomillashib, rivojlanib borgan.

## ENG QADIMGI KIIYIMLAR

Ma'lumki, Yer sharida tabiiy jarayonlarning tez-tez o'zgarib turishi turli liboslarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Miloddan avvalgi V ming yilliklarga cha bo'lgan davrda kiyim tayyorlash uchun faqat tabiiy materiallar (hayvonlar terisi, daraxt پوستlog'i, o'simliklar tolasi)dan foydalanilgan. U davrlarda kiyilgan kiyimlarning asosiy vazifasi kishi tanasini sovuq yoki issiqdan himoya qilish bo'lgan. Xususan, teri-libosni yelkadan o'tkazib kiyish, bog'lash, terining o'rnatidan teshib, undan boshni o'tkazib kiyish, teri bilan tanani o'rash libos tayyorlashdagi dastlabki usullarning paydo bo'lishi va o'zgarish jarayonlarining ibtidosidir. Anna Levin Dorsh va G. Kunovlar ibtidoiy odam beliga bog'lagan tasma yoki oyoq-qo'lga taqilgan halqalar, badanni bo'yash (tatuirovka), xom teridan tayyorlangan yopinchiqalar, beldan pastga tutiladigan chipta, o'simlik yaprog'i va qush patlaridan tayyorlangan tutqichlarni ham «kiyimning ibtidosi» deb hisoblaydilar.

Tarixiy-etnografik adabiyotlarda kiyimlar taraqqiyotining birinchi bosqichi to'qimachilik (to'r va gazlama to'qish) texnikasining rivoji bilan bog'liq deb talqin qilinadi. To'qima matolarning egiluvchanlik, bukiluvchanlik, o'raltuvchanlik, shuningdek turli shaklga tushish kabi xususiyatlaridan kishilar keng foydalana boshlaganlar. Qadimgi liboslar uchun xomashyo maxsus yordamlangan yoki bog'langan matodan iborat bo'lgan. Ana shu yordamida kishilar o'z badanini o'rab olishgan.

Kishilar ob-havoga qarab hamda o'z ijtimoiy ahvolidan kelib chiqqan holda to'g'ri to'rtburchak, elips shaklidagi matolarni liboslar kiyib yurishgan. Shu tarzda matolarni liboslarning himoya va ijtimoiy vazifasi kengayib, o'zgarib borgan.

## O'RTA ASRLARDA YASHAGAN AJDODLARIMIZ KIYIM-BOSHLARI

Ilk o'rta asrlarga oid devoriy rang tasvirlarda o'sha davrda yashagan ajdodlarimizning kiyim-boshlari, ularning turli xil shakllari, mahalliy xususiyatlari hamda bu davrga oid matolar aks etgan. Ayniqsa, bu borada Afrosiyob, Panjikent, Varaxsha, Bolaliktpepa, Xolchayon va boshqa qator yodgorliklardagi devoriy rangtasvirlarni alohida ta'kidlab o'tmoq joizdir. Jumladan, Bolaliktpepadagi qazilmalar chog'ida topilgan suratlarda erkaklar ustida yaktagi borligi aniqlangan. Yozma manbalarda «yaktak» so'zi XII—XIII asrlardan e'tiboran ma'lumdur. Chunonchi, «Muqaddimatul-adab»da yaktoyi, yaktayni kiydi degan so'zlar uchraydi.

Tadqiqotchi olim G.M. Maytdinovaning fikricha, ilk o'rta asrlarga oid tasviriy san'at namunalarida So'g'd va Toharistonda rusm bo'lgan kiyimlarning barqaror turlari ularning juda qadim zamonlardan beri mahalliy iqlim va el-elatlar turmushiga moslashganidan dalolat beradi. Devoriy suratlardan va arxeologik materiallardan shu narsa ma'lum bo'ladi, ilk o'rta asrlarda o'ziga to'q toharistonlik erkaklar ipakdan, kambag'al aholi esa oq bo'zdan chakmon kiyganlar. Ushbu ma'lumotlarni bevosita yozma manbalar ham tasdiqlaydi. Jumladan, mashhur xitoy sayyohi Syuanszan Toharistonning kambag'al aholisi paxtali matolar va kam sonli boy-badavlat tabaqa vakillari esa junli matodan kiyim kiyishganini yozadi. O'z navbatida, Toharistonlik zodagon ayollar esa qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ko'rkam ipak ko'ylak kiyganlar. Umuman olganda, Tohariston aholisi libosi uchun yelkasi yopishib turadigan va etagi trapetsiyasimon bo'lgan ko'rinish asos bo'lgan bo'lib, mahalliy aholi kiyimlarining bichimi asosan bir xil bo'lgan. Ust-boshlarning hamma ko'rinishlari yeng-siz, uzun, ba'zi hollarda yeng keng qilib bichilgan. Kiyimlarning yon tomonida odatda yirmoch-qiyiq joyi, yonlama yoqasi bo'lgan-

ki, bu hol O'zbekiston xalqlarining hozirgi kiyimida ham ildizi chuqur tarixiy an'anaga borib taqaladigan xususiyatlar mavjudligini kuzatish imkonini beradi. Farg'ona vodiysining Munchoqtepa yodgorligidan eng qadimgi va ilk o'rta asrlarga oid qator kiyimlarning namunalari, asosan, erkak, ayol va bolalar ust-boshlari topilgan. Qadimshunos va san'atshunos olimlar tomonidan o'rganilgan ayollar ko'ylagining bichimi uzun bo'lib, ipakdan tayyorlangan va etagi to'pig'igacha tushgan. Etaganing eng quyi qisminidan, ya'ni ikki yon tomondan 10—15 sm qirqib qo'yilgan, bellariga esa kamar (belbog') boylab zeb berilgan. Aynan bu davrga xos bolalar kiyimi ham ipakdan kalta qilib tikilgan bo'lib, beldan biroz pastga tushib turgan. Ko'ylak etagidan, ya'ni bel atrofidan ikki yon tomondan 10—15 sm qirqib qo'yganlar. Yoqalari to'g'ri va belida maxsus tasma — belbog'i bo'lgan. Qiz bolalar ko'ylagining ko'krak qismi, yengimning uchi va etagi maxsus qadama gullar bilan bezatilgan. O'ng qo'l tomondan esa o'yama cho'ntak (kissa) tikilgan. Kiyimga munchoqlar tikilib zeb berilgan bo'lib, yengi va ko'krak qismiga mayda marjonli naqshlar tikilgan. Umuman olganda, ilk o'rta asr (V—VII asrlar)da yashagan ajdodlarimiz kiyimlarining tadrjiiy rivojlanib borishi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Osiyo va Buyuk ipak yo'li bo'ylab joylashgan xalqlarning etnik va ijtimoiy-siyosiy tarixi bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

Tarixdan ma'lumki, ilk marotaba Mo'g' tog'idan topilgan sug'd yozuvidagi hujjatlar bilan birga turli matolar bo'laklari topilgan bo'lib, tadqiqotchi olimlarning ta'kidlashicha, bu matolar VIII asrning birinchi choragiga tegishlidir. Mo'g' tog'idan topilgan ashyolar ichida yo'l-yo'l to'n kiygan xushbichim chavandoz tasviri aks etgan qalqon ham topilgan bo'lib, chavandoz to'ndagi ingichka qizil yo'llar sariq tag uzra tushgan. Darvoqe, Mo'g' tog'idan topilgan matolar parchalari ichida to'q qizil rangning oq va yashil ranglar bilan o'zaro uyg'unligida bo'yalgan junli matoning yagona namunasi mavjudligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'sha davrda yo'l-yo'l mato kamyob bo'lganligini bildiradi.

Mashhur arab tarixchisi ibn Batuta Markaziy Osiyodan qo'shni mamlakatlarga chiqarilgan mollar to'g'risida yozar ekan, ilk marotaba X asrda Markaziy Osiyodan eksport qilingan mahsulotlar ichida yo'l-yo'l gazlamadan tikilgan Xorazm choponlari ham bo'lganligi haqida yozadi. V—VII asrlarda Markaziy Osiyoda

o'ziga xos ipakchilik markazlari paydo bo'lgan. XI asrda yashab o'tgan mashhur tilshunos olim Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asarida ham juda ko'plab kiyimlar va ular uchun ishlatiladigan gazlamalar nomlari berilgan. Mahmud Koshg'ariy o'z asarida 30 ga yaqin mato nomlarini keltirib o'tish asosida faqatgina tabiiy matolardan (paxta, jun, shoyi) to'qilgan matolarningina emas, balki zari kimxob mato — «yo'llik barchun» (kimxob ma'nosida) dan ham chiroyli to'nlar tikilganini ta'kidlaydi. Shuningni qiziqki, qimmatbaho ipak kimxob va duxoba gazlamalar o'rta asrlarda, aniqrog'i, X—XII asrlarda pul o'rnida muomala vositasi sifatida ham ishlatilgan.

Asarda kiyinish madaniyatiga oid bo'lgan 225 ta so'z keltirilgan. Bu esa turkiy xalqlarning kiyinish madaniyati yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Mashhur tilshunos olim qadimiy turkiy xalqlarning nafaqat ustki kiyim-boshlari, balki ko'ylak ichidan kiyiladigan ichki kiyim, ich ko'ylak, ya'ni to'rtchak — xotin-qizlarning yengiyoyoq, ich kiyimi to'g'risida ham qiziqarli ma'lumot berib o'tadi. Shubhasiz, maxsus ich kiyimning aynan XI asrda ham mavjudligi bu davrda aslida o'ziga xos kiyimlar majmuvi shakllanganligi va ajdodlarimizning o'ziga xos kiyinish madaniyati sohiblari bo'lishganidan dalolat beradi.

O'rta asrlar liboslarini tahlil qilishda miniatura asarlarining ham o'rni beqiyos ahamiyatga ega manbalardan biri hisoblanadi. XII asr oxiri — XIII asr boshlarida yaratilgan miniaturalarda tasvirlangan erkak va ayollar etagi birmuncha keng, o'ziga xos bichimli dumaloq shakldagi ko'ylaklar kiyganini ko'rish mumkin. Old qismi qisqaroq, orqasi uzunroq bo'lgan bu ko'ylaklarning astari ko'pincha yo'l-yo'l matodan tikilgan. Erkak va ayollar kiyimlari tashqi jihatdan o'xshash bo'lsa-da, ularda ko'pgina farqli jihatlar ham bo'lgan. Ayollar kiyimining yengiyoyoq qarang kengayib borgan, erkaklar esa bilakka yopishib turgan kiyim kiyganlar. Ayollar to'g'ri bichimli uzun yubka shaklidagi kiyim yoki keng lozim kiyishgan. Erkaklar shalvorining pochasi uzun bo'lib, qo'nji etikka tiqib qo'yilgan. Erkaklar boshga salla o'rashgan. Askariy esa kiyim ustidan sovut kiyishgan.

Miniaturalarda tasvirlanishicha, O'rta Osiyo aholisining kiyimlari asosan turli xil rangli silliq matolardan tikilgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, o'rta asrlarga oid ayrim miniaturalarda yo'l-yo'l matolar tasviri ham uchraydi. O'rta Osiyo

miniaturalaridagi kiyimlarni maxsus tadqiq qilgan san'atshunos olim G.A. Pugachenkovaning ta'kidlashicha, bunday yo'l-yo'l matolaridagi matolar faqatgina O'rta Osiyo xalqlariga tegishlidir. Miniaturalarda bunday rangdagi matodan tayyorlangan kiyimlar ancha boy bo'lmagan oddiy fuqarolar orasida urf bo'lgan erkaklar to'ni, sallasi va ishtoni ko'rinishida tasvirlangan. Bunday matolarning keng tarqalishini Turkmaniston Respublikasi hududidan topilgan XV—XVIII asrlarga oid arxeologik yodgorliklarda olib borilgan ilmiy izlanishlar ham tasdiqlaydi. Qolaversa, avra-astarli qilib tikilgan to'n-chopon ham erkaklarning qadimiy kiyimi hisoblanib, VI—VIII asrlarga oid Kultegin yodnomasida ilk marotaba ustki kiyim ma'nosida uchraydi.

O'zbek milhy kiyimlarini o'rganishda XV—XIX asrlarda Hirot va Buxoro maktablariga mansub musavvirilar yaratgan miniatura san'ati asarlari juda qimmatbaho manba hisoblanadi.

O'rta Osiyo xalqlarining XVI asr miniaturalarida tasvirlangan kiyimlari o'zbek va tojiklarning XIX asr oxiridagi kiyimlariga o'xshash bo'lgan. O'rta Osiyoga mo'g'ullar bosqini natijasida XIV asrning birinchi choragidan boshlab zo'rlik bilan kiritilgan mo'g'ul-xitoy an'analari barcha sohalar qatori liboslarda ham o'z aksini topgan. Hukmdorlar, saroy xodimlari, davlat amaldorlari, shuningdek mahalliy aholi orasida mo'g'ul-xitoy uslubida kiyinish va soch turmaklash rasm bo'lgan. O'ng ko'krak tomondan bog'lab qo'yiladigan, diagonal bichimli, kalta yengli, yon tomondan bel-barobar qirqib ochilgan, ko'kraklari kashta bilan bezatilgan liboslarda XIV asr kiyimlariga xos xususiyatlar mujassamlashgan deyish mumkin. Bu davrda ayollar ustki liboslarining oldi ochiq, keng, nihoyatda uzun, yengiyoyoq qarang kengayib boradigan tarzda tikilgan. Bosh kiyimining ust qismiga bir tutam qush pati qistirilgan bo'lib, bichimi murakkabroq qalpoq shaklida bo'lgan.

XIV asrning ikkinchi choragidan boshlab, mo'g'ul-xitoy libos ruzmi siqib chiqarilgan va mahalliy kiyim-kechaklarning yangi turlari shakllangan. Ammo erkaklar to'ni, kiyimlarning ko'krak qismiga tikilgan kashta bezaklari, liboslar yelkasi va bel qismi, kiyim etagini belgacha yoki undan uzunroq qilish kabi mo'g'ul-xitoy kiyimlariga xos xususiyatlar saqlangan.

XV asrda, ya'ni temuriylar hukmronligi davriga kelib, erkak va ayollar orasida turli rangdagi ichki va tashqi qavatli, ya'ni avra-astarli ikkita uzun libosni ustma-ust kiyish odati rasm bo'lgan.



O'z navbatida, temuriylar saltanati davrida Samarqand, Hirot, Sheroz kabi shaharlarda bashang, rang-barang, sodda va jozibali mahalliy bichimdagil liboslar shakllangan. Shuningdek turli mintaqalardagi kiyinish madaniyati o'ziga xos uslublari, rang tanlashi va ayrim bezaklar bilan kiyinishiga ko'ra ham farqlanib turgan. San'atshunos olim Muqaddima Ashrafiyning yozishicha, hech bir davrda libos bu o'lkalardagi kabi bu qadar bashang, rang-barang va jozibali bo'lgan emas. Temuriylar davrida jamiyatda bo'lgan ulkan o'zgarishlar mahalliy aholi kiyim-boshlariga sezilarli ta'sir qilgan va mahalliy aholi kiyimlarida turli inoetnik alomatlar hamda bezaklar paydo bo'lgan. Aynan mazkur davrda Movarounnahrda va so'ngra boburiylar zamonida Hindistonda allomalar, davlat amaldorlari, ulamolalar paraqji rusumidagi libos kiyganlar. Binobarin, «paranji» so'zi ham erkaklar, ham ayollar kiyimi ma'nosini anglatgan.

Shayboniylar sulolasi davriga kelib, paranji-chopon ilm ahli — olimlar kiyadigan kiyim vazifasini bajargan. Keyinchalik mazkur kiyim ayollarning tashqariga chiqqanda kiyadigan maxsus ustki libosiga aylangan. Aynan shu davrda erkaklarning ascсий kiyimi to'nning ko'plab turlari yuzaga kelgan. Xususan, XVI asr tarixchisi Muhammad Solih Muhammad Shayboniyxonning ukasi Sulton Mahmudning Shohruxiyaga yurishi voqealarini bayon qilar ekan, sovuqda chidamli «ichu tosh tunlarining borcha turluk» namunalari ta'riflagan. Bu davrda bosh kiyimlarni tayyorlash an'anasi ham alohida o'rin tutgan. Buxoroda do'ppi tikish bilan mashg'ul bo'lgan ustalar «taqiyado'zlar» deb atalgan.

O'z navbatida, shaharlarda taqiya bilan bir qatorda sovuq iqlim sharoitida kiyishga mo'ljallangan turli xil qalpoqlar, movutdan tayyorlanadigan bosh kiyimlar ham tikilgan. XVI asrda an'anaviy kiyimlar majmuyiga kiruvchi oyoq kiyimlar tayyorlash an'anasi ham taraqqiy etgan bo'lib, O'rtasiy Osiyo shaharlarida turli-tuman terilardan xilma-xil oyoq kiyimlarini tikuvchi kosiblar ko'p bo'lgan. Buxoroda yaratilgan yozma manbalarda ular muzado'z (etikdo'z), kavushdo'z deb, etiklarga gul tikuvchi kosiblar esa muzapardozlar deb atalganligi qayd qilingan. Xususan, XVI asrga oid tarixiy hujjatlarda Buxoroda yashagan Boqi muzado'z, Xo'ja Yor Muhammad muzado'z, Nasim muzapardozlar haqida ma'lumotlar berilgan.

## AYOLLARNING KUNDALIK VA BAYRAM KIIYIMLARI

Ayollar kiyimida o'ziga xos naqshlar, bezaklar, hoshiyalar ko'p qo'llanilgan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, O'rtasiy Osiyo xalqlarining an'anaviy kiyimlarida qadimdan mahalliy o'ziga xoslik va milliylik ustun bo'lishi bilan birga ular yaxlit umumiy asosga ham ega bo'lgan. Ayollar kiyimlaridagi umumiylik ularning keng, uzun, to'g'ri bichimi va ko'rinishi bilan izohlanadi. Voha ayollarining an'anaviy kiyimlari tarkibiga quyidagilar kirgan: ko'ylak va lozin, ustki kiyimlar — jelak, paxta solib qavilgan chopon, kamzul, yengsiz nimcha, bosh kiyimlari — do'ppi, hari ro'mollar, lachhak, yoping'ichlar — paranji, jelak, oyoq kiyimlari — mahsi, kalish, yengil kavushdan iborat bo'lgan.

Ayollarning an'anaviy kiyimlari tayyorlangan mato turlari xilma-xil bo'lib, vohada mavjud bo'lgan xo'jalik madaniy tiplari, aholi joylashgan hududning, o'ziga xosligi aholining ijtimoiy, maishiy turmush tarzi ayollar kiyimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bundan tashqari, qo'shni xalqlar bilan madaniy-iqtisodiy aloqalar ta'siri ham kiyimlarda bevosita aksini topgan.

Surxon-Sherobod vohasida tabiiy iqlim sharoitiga mos yarim o'troq hayot kechirgan aholi, ipak qurti boqish bilan mashg'ul bo'lmagan. Ayollarning an'anaviy uy mashg'ulotlaridan biri hisoblangan to'quvchilikda asosiy xomashyo jun bo'lib, qo'y, tuyra, echki junidan uy sharoitida mato tayyorlangan. O'troq turmush tarziga ega bo'lgan aholi esa g'ozga yetishtirib, ipak qurti boqish bilan shug'ullangan. Ba'zan ular paxta va ipak tolasini bu yerdan sotib olishgan na uy sharoitida paxtali matolar (bo'z, olacha) tayyorlashgan. Ayollarning an'anaviy kiyimlari uchun chetdan keltirilgan noyob, qimmatbaho shoyi va yarim shoyi matolar ham ishlatilgan. Yarim shoyi va charam aralashgan «qursoq» matosi, «g'ijim-parcha» matolari ayollarning an'anaviy to'y va bayram kiyimlarida ishlatilgan.



Ayollar kiyimlari uchun chetdan keltirilgan shoyi, daroi, gulbarra singari yarim ipak matolar ishlatilib, ular asosan Qo'qon, Marg'ilon, Xo'jand, Buxoro shaharlarida tayyorlangan va o'zining sifati bilan bir-biridan farq qilgan.

Ayollar kiyimlari mavsumga qarab qishki, bahorgi, yozgi kiyimlarga; bajaradigan vazifasiga ko'ra to'y, bayram, marosim liboslariga, tananing qaysi qismiga kiyilishi bo'yicha ichki, ustki, bosh, oyoq kiyimlariga bo'linadi. Bundan tashqari, ayollar kiyimi uni kiyadigan ayolning yoshiga qarab ham farqlanadi.

Ayollarning an'anaviy kiyimlari haqida so'z borar ekan, avvalo, eng ko'p tarqalgan ommaviy kundalik kiyimlardan biri hisoblangan uzun, keng, to'g'ri bichimli ayollar ko'ylagiga to'xtalib o'tsak. Ayollar ko'ylagi Surxon vohasida o'ziga xos, mahalliy ko'rinishlarga ega bo'lgan. Ayollar ko'ylaklarini bichishda tejamkorlikka e'tibor berishgan. Bir butun mato ko'ylakning old va orqa tomonini tashkil qiladigan holatda yelkalarini tikilmay taxlangan. Matoning gavda qismiga perpendikular qilib to'g'ri yoki torayib boruvchi yenglar tikilgan. Qo'ltiq ostiga har doim uchburchak yoki romb shaklida yamoq — qulfak solinib, ko'ylakning yon tomonlariga uzun uchburchak shaklidagi qiyiq qulfak tushirilgan. Ayollar kiyimlarining ushbu ko'rinishda bichilishi libosning bu turiga xos umumiy belgilardan biri bo'lib, bichuvchining asosiy e'tibori matoni tejashga qaratilgan.

Hozirda ham vohada keksa kiyim bichuvchilar matoni tejash bilan bog'liq, bu an'anani davom ettirmoqdalar. Ko'ylakning tez yirtilmasligi, chidamli bo'lishini ta'minlash maqsadida ikki yon tomonidan qiyiq qo'yib tikkanlar, ushbu qiyiq ikki qavat qilib taxlangan bir mato parchasidan qirqib bichilgan. Shuningdek voha ayollarining ustki kiyimlaridagi o'ziga xoslik ularning yoqalarida ham o'z ifodasini topgan.

O'rta Osiyo xalqlarida bo'lgani singari Surxon vohasi ayollarining ko'ylaklarida ham yoqaning asosan ikki xil ko'rinishdagi shakli ma'lum bo'lgan:

1. Uzun tik — o'yma yoqa.
2. Yelka yoqa — kiftlari birinchisi ikkinchisiga tutashuvchi yoqalar.

Mahalliy sharoitda ko'ylakning ko'ndalang yoki uzun tik qirqilgan bosh kirib-chiqishi uchun mo'ljallangan qismi «yirmochi»

yoki «yoqa» deb atalgan. Uzun tik yoqali ko'ylaklar aholi orasida qo'shikusho», «jaxak», «chakak» deb yuritilgan.

O'yma yoqa ko'ylaklar ayollarning bola emizishiga qulay bo'lishi uchun mo'ljallangan bo'lib, bo'yindan tirmoqqacha 25 sm chiqib chiqib kesma tushirilib, yoqani yopish uchun bog'ichlar qilingan, ko'yunchalik yoqaga to'g'nag'ich qadash urf bo'lgan.

Ko'ylaklarning yirmochi ko'ndalang «elka yoqa» kabi turlari asosan qizlar tomonidan turmushga chiqqunga qadar kiyilgan. Yelka yoqa ko'ylaklar yirmochining chekkalariga turli xil iyyak, chiroz, tasma, yoki turli xil rangli iplardan burma usulida kashta tikib chiqilgan.

Yoqaga kashta, jiyak taqishda ikki narsaga e'tibor berilgan. Bunda avvalo bezakdan ko'rk berib turish ko'zlangan bo'lsa, ikkinchidan yirmochidan bosh kirib-chiqqanda tez yirtilib ketmasligi, ko'ylakning chidamli va sifatliligi bo'lishi ko'zda tutilgan.

Boysun, Sherobod tumanlarining tog' va tog' oldi qishloqlarida ayollar o'zlarining didi va badiiy mahoratiga mos ravishda ko'ylaklarning oldi hamda yoqa qismlariga bezak — kashta tikkanlar. Ko'ylaklarga beriladigan bezak turi bir tomondan o'sha hududdagi mavjud shart-sharoitga, ikkinchidan kiyimning qanday maqsadda kiyilishiga bog'liq holda tanlangan. Ko'ylaklarga bezak berishning usullari rang-barang va son-sanoqsiz bo'lib, bu o'rinda ularning barchasini sanab o'tishning iloji yo'q, albatta. Vohada bezak berishda ko'ylakning old tomoniga, matoning o'ziga kashta tikish, ko'krak qismiga kashtalar, tasmalar tikish usullari keng tarqalgan. Kashtaning eng ommaviy turlaridan biri «jiyak» deb atalgan. Eni 2—3 sm dan iborat bo'lgan bu kashta-tasma o'yma yoqaga ikki qator qilib tikilgan.

Kalta tasmalar turmushga chiqqan ayollar ko'ylagi yoqasining tik kesmasi bo'yab, qizlar ko'ylagining esa ko'ndalang kesimiga qo'yib tikiladi. Tasma, jiyaklar tambur choki nusxada tikilgan. Kashta tasmalar qo'lda va oddiy dastgohlarda to'qilgan. Bundan tashqari, eni 4—4,5 sm, uzunligi 80—100 sm li kashta-tasmalar, yoqasi tik kesilgan ayollar ko'ylagi uchun tayyorlangan kashta yoqa chetlariga to'qilib, ko'ylakning etagigacha tashlanib turgan. Ushbu enli va uzun kashta tasmalar «ko'ylak oldi» yoki «pesh-karta» deb atalgan.

Vohaning Jarqo'rg'on, Sho'rchi, Uzun tumanlarida yashovchi qo'ng'iroq, yuz, tog'chi urug'lari ayollarida ustiga kumush tan-

galar qadaliq bo'lsa tikilgan kashta «setora» deb atalgan. Shuningdek, old tomonining ko'krak qismi kashtalar bilan to'ldirib tashlangan ko'ylak «pesh», «poshak» deb yuritilgan. Ko'ylakning oldiga tikilgan kashtalar karbosga tikilgan. Kashtalar qadimgi «siyohdo'zi» yoki «chappado'zi» usulida tikilgan bo'lib, kashtaning shakli qora ip bilan tikilsa, siyohdo'zi deb; shaklining ichiga chap tomondan turli suratlarda halqasiz kashta solinsa, chappado'zi deb atalgan.

O'yma yoqali ko'ylaklar bog'ichli bo'lgan va kashta jaxak yoki bog'ichlarning oxirida popuk po'pakcha tutilgan. Keksa yoshli ayollarda po'pak uyma yoqaning oxirida bo'lsa, yosh qizlar va kelinchaklarda ko'ndalang «yelka yoqa» ko'ylaklarning yirimoqi oxirida, ya'ni yelka ustiga qo'yilgan.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida O'zbekistonning qator hududlarida uzun tik yoqali ko'ylaklarni kiyish urf bo'la boshlagan. Bu ko'ylaklar xalq, orasida «po'pak yoqa» ko'ylak «it yoqa ko'ylak» yoki qishloqlarda bu ko'ylak yoqasi uzun bo'lganligi uchun «qoziqi», «qozoqi ko'ylak» deb ham atalgan. Vohaning qo'ng'iroq, tog'chi urug'lari yashovchi hududlarda uzun tik yoqali ko'ylaklar «no'g'ay burush» deb nomlangan.

XX asrning 20—30 yillarida «ko'krak burma» ko'ylaklar ommaviy urf bulgan ko'ylak sifatida keng tarqalgan. «Ko'krak burma» ko'ylaklar dastlab XX asrning boshlarida Toshkentda paydo bo'lgan. Bu davrda Surxon vohasining Boysun, Sherobod tumanlaridagi o'zbek-tojik qishloqlarida bichimi va tikilishi juda murakkab bo'lgan par-par yoqali ko'ylaklar keng tarqalgan. Ko'pincha bunday ko'ylaklarni qizlar turmushga chiqqunlariga qadar kiyishgan. Par-par yoqali ko'ylakning bosh kirib chiqishiga mo'ljallangan yirmochi chekkalariga bir butun matodan 4—5 sm atrofida olinib, qatma-qat (plitsirovka) qilib taxlangan. Taxlangan mato ko'rinishi bir tekis tish ko'rinishida bo'lganligi sababli, yoqasi ushbu ko'rinishdagi ko'ylaklarni «it yoqa» ko'ylak deb ham yuritishgan. O'rganilayotgan davrda vohada, shuningdek, ayollarning «ko'krak burma» ko'ylaklari, ya'ni hozirgi koketkali ko'ylaklar urf bo'la boshlagan. XX asr boshlarida «Ko'krak burma» ko'ylaklar o'zbek ayollarining an'anaviy milliy kiyimiga aylangan va hozirga qadar koketkali ko'ylaklar andozalaridagi juz'iy o'zgarishlar bilan respublikamizda o'rta va kekse yoshdagi ayollarning an'anaviy ko'ylaklari sifatida kiyiladi.

Vohada ayollar ko'ylaklari kiyilishiga qarab bir necha turga bo'lingan. Bunda ko'ylaklar kundalik bayram va marosim ko'ylaklariga bo'lingan. Bayram va to'ylarda kiyiladigan ko'ylaklarni ayollar uzoq muddat kiyishgan. Qadimgi bichimi saqlangan bunday keng ko'ylaklar XX asrning 20—30 yillarigacha voha ayollarining kundalik va bayram ko'ylaklari sifatida ommaviy ravishda kiyilgan.

XX asr boshlarida qish faslida, bayram va to'y kunlarida bir necha ko'ylakni bir-birining ustidan kiyish rasm bo'la boshladi va bu odat «qo'sh ko'ylak» kiyish deb atalib, unda quyidagi masalarga e'tibor berilgan: dastlab yengil paxtali matodan tikilgan ochiq rangli oq, ko'k ko'ylaklar ustidan gulli, qimmatbaho matodan tikilgan ko'ylak kiyilgan. Qizlar 3—4 ta, o'rta yoshdagi ayollar 6—7 tagacha ko'ylakning bir-birining ustidan kiyishgan. Dastlabki ichidan kiyilgan ko'ylakning keng uzun yoqasi boshqa kiyilgan ko'ylaklar ustidan chiqarib qo'yilgan.

«Qo'sh ko'ylak» kiyish odatda asosan o'ziga to'q oilalardagi ayollar orasida rasm bo'lgan bo'lib, bu bilan ayollar o'z bisotlaridagi kiyimlarini ko'z-ko'z qilishgan. «Qo'sh ko'ylak»ni Xorazmda qizlar turmushga chiqqandan so'ng kiyishgan.

Voha ayollari bayram ko'ylaklari yengining uchiga burma kashtalar tikishgan bo'lsa, Boysun ayollari bayram ko'ylaklarining yoqasidan etagiga qadar uzun kashta «puta» tikishgan.

XX asr boshlarida ayollarning ommaviy mehnatga jalb qilinmaligi va ish qilish uchun qulayroq kiyimlarga o'tishdagi umumiy intilishlari sababli vohaning ham ko'p qishloqlarida, kalta yengil va englari qaytarilgan, yoqalari bezatilgan ko'ylaklar kiyilgan. Oilaning ichida esa ayollar erkin turadigan, belbog'siz ko'ylaklar kiyishgan. Tojiklar, o'zbeklar bilan aralash yashaydigan Boysun, Sherobod, Sariosiyo tumanlarida tojik, qo'ng'iroq, chig'atoy ayollari xuddi qirg'iz ayollaridek, keng uzun ko'ylaklarni kiyganda kundalik yumushlarga xalal bermasligi uchun bellarini bog'lab olganlar. Vohada kekse yoki o'rta yoshli ayollar bellarini chekkalariga turli xil kashtalar, bog'ichlar tikilgan bir butun mato bilan bog'lashgan bo'lib, u «puta», «futa» yoki «loki» deb atalgan. Hozirda esa ro'zg'or ishlarida oshxona yumushlarini bajarishda belga bog'lanadigan fartukchaga nisbatan mazkur atama ishlatiladi. Surxondaryo ko'ylaklarining nomlari tikilgan matoga ham bog'liq bo'lib, shoyi ko'ylak, aivon ko'ylak kabi atamalar bilan

yuritilgan. Ba'zi ko'ylaklar undagi alohida belgilarga qarab, ya'ni «gulli ko'ylak», «kashtali ko'ylak» deb ham atalgan. O'tkazilgan dala tadqiqotlariga asoslanib shuni aytish mumkinki, respublikamizning boshqa hududlarida bo'lganidek Surxon vohasida ham ayollarning an'anaviy ustki-ichki kiyimi hisoblangan ko'ylaklar ularning yoshiga qarab turlicha nomlangan. Masalan, qizlar ko'ylagi — kiftaki yoqa, kelinlar ko'ylagi — par-par yoqa ko'ylak, qariyalar ko'ylagi — yoqa bog'li, bog'ichi yoqa ko'ylak nomlari bilan bir-biridan qat'iy ajratilgan.

Surxondaryo ayollarining an'anaviy ichki kiyimlaridan biri lozimdir. Lozim atamasi arabcha «tochima» so'zidan olingan bo'lib, zarur, kerakli ma'nosini anglatgan. O'rta Osiyoda ikki-uch xil matodan tikilgan lozim kiyishgan. Sibir xalqlarida esa bug'u terisidan tikilgan, turli xil naqshlar tushirilgan ayollarning qishki lozimlari «tarpima» deb atalgan. Vohadagi tojik chig'atoylari ayollar lozimini ezor, poyjoma, tunbon nomlari bilan atashgan.

Yaxlit butun matodan lozim tikish, yon, lippa qismini ipakli matodan tikish gunoh hisoblangan. Tizzadan yuqori qismi — «lippa» oddiy matolardan, poycha qismi esa qimmatbaho matolardan tikilgan. Vohada qish faslida chorvachilik bilan shug'ullanuvchi tog' qishloqlarida yashovchi aholi echki junidan to'qilgan «chivig ishton» kiyishgan. Qishda kiyiladigan issiq, qalin lozimlar boshqa xalqlarda ham uchraydi.

Ayollar lozimi tikiladigan mato ularning yoshlariga qarab tanlangan.

Ayollar lozimining bichimi o'ziga xos tarzda, ya'ni yuqorisi keng bo'lib, Pastga qarab torayib borgan. Mato ikki qavat qilib buklanib, so'ng qiya shaklida burchakma-burchak qilib kesilganda ikkita ingichka va ikkita keng tomonlar paydo bo'lgan.

Lozimlar keng, uzun qilib tikilib, oyoq kirib chiqishi uchun qulay bo'lgan. Lozimlar odatda tovonga qadar tushib turgan, chunki islom dinida shariatga ko'ra nomahram kishilarning ayollar avratini, ya'ni oyoq to'piqlaridan qo'llarining uchigacha bo'lgan tana qismini ko'rishlari gunoh hisoblangan.

Surxondaryoda keksa yoshdagi ayollar lozimi uzun, keng bo'lib, oyoq kirib chiqishi uchun qulay qilib tikilsa, yosh qizlar va kelinchaklar lozimlari birmuncha kaltaroq va torroq qilib tikilgan.

Lozimning yuqorisi, ya'ni lippa qismi qaytarib tikilgan va ishtonbog' o'tkazilgan.

Ishtonbog'lar pax'a yoki jun iplardan tayyorlangan. Dastlab ayollar va erkaklar lozimi (cholvor) bir xil bichimga ega bo'lgan. Keyinchalik erkaklar ishtoni va sholvorlarining oyoq, qismi biroz kengroq qilib bichilgan bo'lib, bunda yerga o'tirganda, ot, eshak uyada yurganda qulay bo'lishi e'tiborga olingan. Ayollar lozimiga turli xil naqshlar, shakllar tushirilgan va «chiroz», «jiyak» tutish odat bo'lgan. Lozimning poycha qismiga, ya'ni uning tovon atrofi bo'ylab tushib turuvchi aylanasimon qismiga «jiyak» va «chiroz»lar tutilgan. Bu bezak boshqa ustki kiyimlar bilan uyg'unlikni ta'minlash hamda xalqimizning magik tasavvurlari, ya'ni yomon kishilar nazaridan saqlash maqsadida taqilgan. Boysun tumanining Mazhay qishlog'ida lozimlarga chiroz tutilmagan ayollarni dafn marosimlariga kiritmaganlar.

Jiyak tasmalar ham odatda ayollarning yoshlariga qarab tanlangan. Keksa yoshdagi ayollar oq qora naqshli va enli chirozlar taqishsa, yosh qizlarga, kelinchaklar lozimini tayyorlashda jimjimador naqshlar tushirilgan chirozdan foydalanilgan. Bunday chirozlarning aylana bo'ylab, ikki uchlari tutashgan qismida po'pakchalari bo'lgan. Vohada lozimlar uchun tikilgan jiyak va chirozlarning «o'rama chiroz», «bosma chiroz», «qora chiroz», «alvon chiroz», «kashta chiroz» kabi turlari mavjud bo'lgan.

Ayollar lozim kiyishda o'ziga xos udum va irim-sirimlariga amal qilishgan. Jumladan, turmushga chiqqan ayolning lozimini boshqa yaqin kishilari, hattoki, opa-singillari ham kiyishi taqiqlangan. Qizlarning sep kiyimlariga lozim solinmagan. Lozimlar alohida tikilgan va saqlangan. Vohada ko'p farzandli ayollar befarzand xotinlarning bola yo'li ochilsin, degan maqsadda o'z lozimining ishtonbog'ini berganlar. Ko'z tekkan, suqlangan bolalarni davolash amallarini bajarishda ham lozimdan mag'ik detal sifatida foydalanishgan. Buning uchun ona o'z lozimini chappa qilib boshidan aylantirib bolani silash orqali farzandini suqdan, balo-qazodan xalos qilar ekan.

Voha ayollari yil mobaynida oilada va ko'cha-kuyda lozim kiyishgan. Hattoki marhumalarga ham maxsus lozim kiydirishgan. O'zbeklarda matoni tejash uchun yaxlit matodan lozim tikilmagan. Hozirda ayollar lozimi turli xil fabrika matolaridan tikilib, keksa yoshdagi ayollar va kelinchaklar kiyimining bir qismi



shartida kiyiladi. Lozimlarga tutiladigan jiyak-chirozlarning turlari, naqshlari xilma-xil bo'lib, vohada «boysuni chiroz», «burma chiroz», «samarqandcha chiroz», «buxorocha zardo'zi chiroz» kabi nomlar bilan ataladigan turlari mavjud.

Ayollarning an'anaviy ustki kiyimlari har bir hudud, har bir xalqda o'ziga xos bezak va naqshlari bilan ajralib tursa-da, ular O'zbekiston hududida bir xil bichimda, ya'ni to'g'ri, keng va uzun qilib bichilishi bilan ajralib turgan. Dastlab ayollarning ustki kiyimlari ayollarning ko'ylagi ko'rinishida boshga tashlab yurilgan va keyinchalik xalat ko'rinishiga keltirilib ko'ylak ustidan kiyila boshlagan. Ayollarning ustki kiyimlari paxta solib qavilgan ayollar to'ni va paxtasiz avra-astardan iborat yengil xalat ko'rinishida bo'lib, ular respublikamizda turlicha nomlangan. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida munisak kiyish butun O'zbekiston bo'ylab ommaviy urfga aylangan. Munisak Surxon vohasida «minisak» nomi bilan atalgan va uni ayollar qimmatbaho kiyim tarzida to'y va bayramlarda kiyishgan. Chorvachilik bilan shug'ullangan tog' va tog' oldi qishloqlarida avra-astarli munisak ko'rinishidagi yengil ustki kiyim — «jelak» kiyilgan.

An'anaviy ustki kiyimlardan paxta solib qavilgan chopon yoki to'n ayollar uchun ikki xil ko'rinishda bo'lgan: to'g'ri keng bichimli to'n; beli tor, ya'ni belli to'n. Vohada ichiga paxta solib tikilgan ustki kiyim «paxtali chopon» deb nomlashan. Bunday chopon qanday matodan tikilganligiga qarab «atlas chopon», «shoyi chopon», «bo'z chopon» deb ham yuritilgan. Chopon besh qismdan: yeng, bo'y, yon, yoqa va chalgaydan tashkil topgan.

Choponning bo'y qismi old va orqa tomonlardan iborat bo'lgan, yon qismi qo'ltiqdan orqa va old oralig'iga ulangan, yuqoriga yoqa o'tkazilgan. Belli choponlarning orqa qismi ikki bo'lak bo'lib, kishi beli ichiga kiritilib, o'rtasi qo'shib tikilgan. Natijada chopon tanaga yopishib turgan. Yonini bo'yga ulagan-da yuqorida o'miz paydo bo'ladi va shu o'mizga yeng ulanadi, yoqa tushgan joydan to etakkacha ensiz mato ulanib, u «chalgay» deb atalgan. Uning orqa tomoniga ichidan shoyi yoki qora matodan to'rt enlik «adip» ulangan. Choponning yeng, yoqa, etak qismlariga bezak berilgan va mustahkam bo'lishi uchun chiroz, jiyak tikib chiqilgan. Ayollarning xalat, choponlari o'zining bichimi, tikilishi bir-biriga o'xshash bo'lgan. Ular o'rtasida farq,

choponga tutilgan jiyak matolarda sezilib, erkaklar to'ni bir qadar uzunroq tikilgan. Vohada ayollar choponlarini yoqalaridan ham larqlash mumkin bo'lgan, ya'ni ayollar choponining yoqalari ochiq, keng, choponning etaklari bir-biriga tutashtirilmagan, yenglari erkaklar to'niga nisbatan kaltarok qilib tikilgan.

O'rta Osiyoning boshqa xalqlarida bo'lganidek voha ayollarining an'anaviy ustki kiyimlari uzun, keng, to'g'ri bichimda bo'lgan.

Rossiya O'rta Osiyoni bosib olganidan so'ng o'lkaga yangi kiyim nuxalari kirib kela boshladi. Mana shunday yengil ustki kiyimlardan biri kamzuldur. Respublikamizning boshqa hududlarida «kamzur», «kamzil», «beshmet» nomlari bilan atalgan. Surxon vohasida dastlab shaharlarda, so'ngra qishloqlarda yangi nuxadagi kamzullar kirib kela boshlagan. Kamzulning bichimini biroz murakkabroq bo'lib, yelkadan belga tomon torayib, bel qismi tanaga yopishib turgan va etakka qarab kengayib borgan. Kamzul yoqasi «qo'sh yoqa» tarzida, ya'ni ikki uchburchak yoqa shaklida tikilgan, ikki yon tomonlarida cho'ntaklari bo'lgan. Kamzullarning oldi dastlab bog'ichli bo'lib, keyinchalik fabrika tugmalari qardalgan. Surxondaryo viloyatining o'lkashunoslik muzeyida M. Turg'unboeva nomli raqs muzeyi eksponatlari orasida oldiga bog'ichlar tutilgan, tugmali, beqasam, atlas, shoyi, shuningdek parcha, farang matolaridan tikilgan kamzullarni uchratish mumkin.

Vohaning chorvachilik bilan shug'ullanuvchi tog' va tog' oldi qishloqlarida yashovchi ayollar kamzullarga yengil paxta solib tikilgan va bu kiyim mahalliy aholi orasida kamzul-chopon, paxtali, kamzul, uzun kamzul nomlari bilan mashhur bo'lgan. Mavjud dala materiallari va ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar ayollarning an'anaviy ustki kiyimlaridan biri hisoblangan «kamzul» vohada XIX asr oxiri XX asr boshlaridan kiyila boshlanganligini tasdiqlaydi.

Kamzul ko'rinishida tikilgan avra-astarli ko'ylak ustidan kiyiladigan yengsiz, kalta an'anaviy ustki kiyimlar «nimcha» yoki «kamzulcha» deb nomlangan. Vohaning tog'li-qatag'onlar yashaydigan qishloqlarida (Xatak, Xujankr, Bedak) aholi orasida ushbu ko'rinishdagi ustki kiyim «askarcha», ichiga paxta solib tikilgan «guppi», «guppicha» deb atalgan. Paxta solib tikilgan «guppi», «guppicha»ni qishda ayollar ko'ylak ostidan kiyishgan. Chorva-

chilik bilan shug'ullanuvchi aholi astarining ichiga jun solingan guppichalarni kiyishgan. Yengsiz kalta nimchalarni keyinchalik bolalar, yosh qizlar ham kiyishgan. XX asrning 70—80 yillaridan hozirga qadar kekxa yoshdagi ayollar «qora nimcha», «baxmal askarchalar» kiyishgan.

Voha xotin-qizlarining kiyim-kechaklaridagi o'ziga xoslikni an'anaviy bosh kiyimlarida ham ko'rish mumkin. Surxon vohasi ayollarining an'anaviy bosh kiyimlari haqida so'z yuritir ekanmiz, shu o'rinda ayollarning erkaklarga nisbatan birmuncha xilma-xil bosh kiyimlar kiyishganligini ta'kidlash lozim.

Voha ayollarining an'anaviy bosh kiyimlari uch guruhga bo'linadi:

1. Bir butun mato qismidan tayyorlangan bosh kiyimlari;
2. Kiygichlar;
3. Boshga tashlab yuriladigan yopingichlar.

Birinchi guruhga mansub bosh kiyimlar ro'mollardir. Ro'mollar dastlab mahalliy dastgohlarda tayyorlangan, keyinchalik fabrikada to'qilgan matolardan, ya'ni dokadan tayyorlangan. Ro'mollar turli hajmda bo'lgan, ya'ni to'g'ri to'rtburchak ro'mol  $1,5 \times 2,5$  m o'lchovda, kvadrat shaklidagi ro'mol  $1,5 \times 1,5$  m o'lchovda bo'lgan. Ipakdan qo'lda to'qilib, rang berilgan kvadrat shaklidagi ro'mol qazna ro'mol, doroy ro'mol, harir ro'mol, shol ro'mol deb nomlangan va bu ro'mollar asosan qish faslida o'ralgan. Boysun, Sherobod tumanlarining tog' va tog' oldi qisloqlarida echki junidan tivit ro'mol, shol ro'mol to'qilgan va turli ranglarga bo'yalgan, bu ro'mollar asosan qish faslida o'ralgan. Vohada ayollar ko'proq oq paxta ipdan, ipakdan qo'lda to'qilgan «qazna», «xazna» ro'mol o'ralgan. Bu ro'molni «gulbast» yoki «gulbarra» usulida bo'yab, turlicha naqshlar bilan bezatishgan. Viloyat o'lkashunoslik muzeyida turli hajm va naqshdagi «qazna» ro'mollari mavjud bo'lib, ayollarning an'anaviy bosh kiyimlari haqida ma'lumot beruvchi eksponat sifatida yaxshi saqlanmoqda. Qazna ro'mollar  $1,5 \times 1,5$  m o'lchamda yoki qadimiy o'lchovda 4 gaz bo'lgan.

Vohada qizlar va kelinlar o'rtacha ro'mollarni o'ralgan. Ushbu guruhga kiruvchi ro'mollar boshning peshona qismiga bog'langan va turlicha nomlar bilan atalgan: ro'molcha, qars, durra, nozbandak, chakkabandak, durracha. Yosh qizlar, kelinchaklar ochiq, rangli, yorqin rangli ro'mollar o'ralgan bo'lsa,

kekxa yoshdagi ayollar oq, nim rang, kichik o'lchamli ro'molchalarni katta ro'mollar ostidan o'ralgan.

Peshona qismiga bog'lanadigan bosh kiyimlari o'ziga xos shaklda va o'lchamda bo'lib, Boysun tumanining Sayrob, Darband, Panjob kabi tojik qisloqlarida sarband, mandil nomlari bilan, o'zbek chig'atoylari yashaydigan Xatak, Avlod, Xomkon qisloqlarida peshonaband, manglaycha nomlari bilan atalgan.

Ayollar bosh kiyimlari tizimida «bosh» yoki «salla», «salla bosh» alohida ajralib turgan. U, ayniqsa, yarim o'troq aholi o'rtasida keng tarqalgan. Sallaboshni odatda bolali, o'rta va kekxa yoshli ayollar o'ralgan. Boshga yarim do'ppi shaklidagi kiygich kiyilib, uning ustidan 3—4 metrli salla o'ralgan. Bosh kiyimining ushbu qismi bosh deb atalib, uning ustidan beshta, o'nta, o'n beshtagacha, ba'zi o'ziga to'q oilalarda to'y tantanalarida yigirma-o'ttiztagacha turli ranglardagi ro'mollarni ranglariga alohida ko'rinib bergan holda o'ralgan va o'rovning ushbu qismi salla deb atalgan. Vohaning turli tumanlarida ushbu bosh o'rovi turlicha nomlar bilan nomlangan. Jumladan, Jarqo'rg'on, Sho'rchi tumanlaridagi qo'ng'iro't ayollarida «salla bosh», «shohbosh», «chambarak», «bosh Sherobod, Boysun tumanlarida «sallabosh», «chambarak», «bosh o'rov», «o'rama» deb atalgan. Sallabosh kishining iqtisodiy qudratini ko'z-ko'z qiluvchi muhim belgi vazifasini ham bajargan bo'lib, ayollarning sallaboshlari ko'rinishiga ko'ra «kambag'albosh» va «boybosh» deb ajratilgan. Kam sonli va oddiy ko'rinishi ro'mol o'ralgan bo'lsa — kambag'albosh, xilma-xil ro'mollardan iborat baland, keng sallaboshlar — «boybosh» deb nomlangan. Sallabosh qo'ng'iro't, qarluq va do'rmonlarda ham bo'lgan. Do'rmonlarda sallaboshni peshona qismini ko'rsatmasdan kiprikka qadar tushirgan holatda qo'ng'iro'tlarda esa peshonadan yuqoriroqda o'ralgan. Qarluqlarda sallaboshni «qasaba» deyilgan. Sallaboshning ustidan tashlangan ro'mol mahalliy aholi orasida dakana deb nomlangan. Odatda ayollar yurgan vaqtida ro'mollari sirg'alib tushmasligi uchun sallaga ro'mol to'g'nog'ich qadaganlar. Shuningdek salla boshdagi ro'mollar qatiga igna, gugurt, kalit, ro'molcha, pul, ip va boshqa zarur narsalar solingan.

Boshga o'raladigan an'anaviy bosh o'rovlaridan yana biri lokidir. Boysun tumanining Sayrob qishlog'i ayollari lokini uzoq yo'lga chiqqanlarida, ro'zg'or yumushlarini bajarish vaqtida bog'lashgan. Ko'pincha kichik ro'molcha yoki katta ro'mol tushib

ketmasligi uchun uning ustidan bukiab-buklab ro'mol o'ralgan mato loki deb atalgan.

Ayollarning peshonaga bog'langan bosh o'ramlari tekis va baland turishi uchun ro'mol ikki qatlanib, har bir qati ichig' qattiq karton qog'oz bo'lagi qo'yilgan va bu ko'rinish rus ayollarining an'anaviy bosh kiyimi ko'rinishida bo'lganligi uchun aholi orasida «kasinka» yoki «qasaba» deb atalgan.

Xalqimizda ro'mollar bosh kiyim vazifasini bajarishdan tashqari belbog', hamyon, sumkacha, safarda yurilganda dasturxon, joynamoz, sochiq, va soyabon vazifalarini ham o'tagan.

Kiygichlar sochning yig'imi, ixcham bo'lib turishi uchun yosh qizlar va kelinchaklar tomonidan bezak, ko'rk sifatida ro'mol ostidan boshga kiyilgan. Ro'mol ostidagi kiygich (do'ppi, taxya, to'ppi va b.) kishiga ulug'vorlik ko'rkamlik baxsh etgan, keksa yoshdagi ayollar esa kechasi yalangbosh yotmaslik uchun kiygich kiyishgan. Boshga tashlab yuriladigan ro'mollar sochdan sirg'alib tushib ketmasligi uchun kiygichlarga to'g'nag'ich qadab qo'yilgan. Boshga ro'mol ostidan kiyilgan kiygichlar boshqa hududlarda turlicha nomlangan.

Surxon vohasi ayollarining an'anaviy bosh kiyimlaridan biri — kiygichlar o'ziga xos ko'rinishda, shaklda bo'lib, kaltapo'shak, shabkuloh (tungi kiygich), do'ppi, to'ppi (shevada), qalpoq deb atalgan. Kiygichlar avra-astarli qilib, ikki xil ko'rinishda tikilgan. Birinchi ko'rinishdagi kiygichlar aylanasimon, uchsiz tikilgan, orqaga, yelkaga osilib turuvchi dum qismi bo'lib, uning yuqori qismida bo'yin atrofida o'yi joy qoldirilgan va o'rilgan sochlar shu joydan chiqarib qo'yilgan. O'yiq ichida turgan sochlar uy yumushlarini bajarganda xalaqit bermasligi uchun kiygichlarning maxsus soch chiqariladigan aylana usti qismi mavjud bo'lgan.

Ikkinchi, an'anaviy do'ppi ko'rinishidagi kiygichlar to'rtburchak shaklida tik cho'qqisimon, baland bo'lib, asosan kelinlar va yosh qizlarga mo'ljallab tayyorlangan. Do'ppilar naqshlari va matosining turiga qarab ham turlicha nomlangan. Turli rangli naqshlar tushirilgan do'ppilar, «chamandagul», baxmal, parcha matodan tikilgan, yo'l-yo'l naqsh tushirilgan do'ppi esa iroqi do'ppi deb nomlangan.

Vohada ham ayollar orasida do'ppi kiyish odati XX asrning 20-yillarida, ya'ni paranji tashlangandan so'ng ommaviy rasm

bo'la boshlagach keksa yoshdagi ayollarning guvohlik berishicha, paranji tashlangunga qadar, hozirgi to'rt burchakli do'ppilar o'rniga, ro'mol ostidan uchsiz yumaloq do'ppilar kiyilgan.

Odatda, birinchi ko'rinishdagi aylana orqasida dum qismi bo'lgan kiygichlarni turmushga chiqqan qizlar, kelinchaklar va o'rta yoshdagi ayollar kiyishgan. Keksa yoshli ayollarning kiygichlari do'ppi ichiga yengil paxta solinib qavilgan.

Aylana yumaloq ko'rinishidagi do'ppilarni ayollar katta ro'mol ostidan kiyishgan, to'rtburchak zamonaviy do'ppilarni qizlar, kelinchaklar kichik hajmdagi ro'mollar ostidan kiyishgan. Ba'zan qizlar ikki o'rim sochlarini do'ppi ustidan aylantirib chirmab qo'yishgan va bu do'ppi, ro'mol sirg'alib tushib ketmasligi, biror yumush bajarayotganda sochlar, kiygichlar ishga xalal bermasligi hamda ixcham bo'lishi uchun qilingan. Qizlar turmushga chiqib harzandli bo'lishgach, ularning bosh kiyimlarida ham ma'lum o'zgarishlar ro'y bergan.

Vohada farzandli ayollar, yirik hajmdagi katta ro'mol — ro'moli kalon va kichik ro'mol — nozibandak-peshonaband bog'lashgan. Do'ppi ustidan peshona bilan bo'yinning orqa qismiga ikki uchi bog'lanib, uning ustidan «katta ro'mol» iyak-jag' ostidan kesishgan holatda bo'yin orqasiga bog'lab qo'yilgan.

Odatga ko'ra qizlar turmushga chiqqanlarida ularning boshiga kulota yoki kaluta kiydirish, birinchi farzand ko'rganda, ayollar ilk bor nabirali bo'lganda ham o'ziga xos an'anaviy kiyim kiydirish marosimlari o'tkazilgan. Ba'zi hollarda esa birdaniga uchta marosim: bolani beshikka solish (belash), yosh onaga po'pak taqish va katta onaning sochini ikkita qilish odati amalga oshirilgan. Ayollar dastlab kulota kiydirilgach, ular qishloqning «kayvoni» xotinlari safiga qabul qilib, ular to'y-ma'rakalarga, qiz oshi, fотиha to'ylariga bemaol qatnashishlari mumkin bo'lgan.

Vohada ro'mol ostidan kiyiladigan do'ppi, to'ppi, toqi kabi kiygichlar XX asr boshlarida ayollarning an'anaviy bosh kiyimi hisoblangan. Boshga tashlab yuriladigan yoping'ichlar. Guruhiga kiruvchi an'anaviy bosh kiyimlari xilma-xil bo'lib, yoping'ichlarning eng ko'p va keng tarqalgani paranjidir. Paranjining paydo bo'lish davri bir qancha ilmiy asarlarda alohida o'rganilgan. XVIII asr yozma manbalarida paranji nomli bosh yoping'ichi haqidagi ma'lumotlar bor. Paranji so'zi arabchadan olingan. Paranji uzun



bo'lib, tovonga qadar — tushib turgan. Paranjining ajralmas qismi hisoblangan chachvon vohaning o'zbek va tojiklar aralash yashaydigan hududlarida «chashmiband» (chashm — ko'z, band — berkituvchi) deb yuritilgan Chachvon otning qora yolidan to'qilib, chekkalari oq jun bilan tikilib yuqori qismi tugmacha yoki ilgak bilan birlashtirilib boshga kiyilgan. Uning ustidan esa paranj kiyilgan va u tushib ketmasligi uchun iyak ostidan maxsus ilgaklarga biriktirib qo'yilgan. Kelinlar va qizlarga oq «chashmiband» tutishgan. Bunda yo'li oq, baxti ochiq, bo'lsin degan niyat mujassamlashgan. Paranjga ayollar o'ziga xos usulda bezak berishgan. Uning yoqasi, etaklariga «chalma jiyak», «tokma jiyak», «gulli jiyak» tikishgan. XX asrning 30—40-yillarida qalampir-murch yoki mayda ilon izi shaklidagi jiyaklar tikish odat bo'lgan. Paranjining yenglari soxta qilinib, orqaga tashlanib bir-biriga tutashtirib tikib qo'yilgan, paranjining orqaga tashlangan yenglari turli xil rangli ipak iplar, jiyaklar, munchoq va tangalar bilan bezatilgan. Vohadagi ayollar paranji va chachvonni uy ichida yopinishmagan. Ularning tasavvuricha, qora rang qayg'u keltiradi deb chachvon qora rangda bo'lganligi uchun faqatgina ko'chada, mehmonga chiqqandagina paranji yopinishgan. Paranji qimmatbaho matolaridan tikilgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, vohada yarim ko'chmanchi hayot kechirgan o'zbeklarda paranji keng tarqalmagan. Ayollar uydan tashqarida, ya'ni ko'chaga chiqqanda, mehmonga borganlarida boshiga yopinib yuradigan maxsus yopingich vazifasini bajaradigan kiyimlarga ega bo'lishgan. Shuningdek vohada «ko'rta», «jelak» kabi paranjga o'xshash yopingichlar ham bo'lgan.

Ko'rta — astarsiz kalta xalat. Uning yenglari uzun bo'lib, orqaga tashlab qo'yilgan. Vohaning qo'ng'iro't va juzlar yashaydigan hududlarida ayollar jelakni boshlariga tashlab yurganlar. Qizlarning seplari qizil, qimmatbaho matodan tikilgan jelak solingan. Boysun, Sherobod, Jarqo'rg'on tumanlarida yashagan aholi orasida kelinlarning qimmatbaho matolardan tikilgan, oldi va yoqa qismi turli xil jiyaklar, tangalar bilan bezab tikilgan an'anaviy bosh yopingichi «ko'rtaqo'r» yoki «quroq ko'rta» deb atalgan. Ko'rta, jelak kabi bosh yopingichlari yengil, boshiga tashlab yurish uchun ancha qulay bo'lgan, bosh yopingichlari ayollarning yoshlariga va oilaning iqtisodiy ahvoriga qarab farqlangan. Boshga

tashlab yuriladigan yopingichlar, boshqa xalqlarda turlicha nomlar bilan nomlangan. Ayollarning jelak ko'rtalariga qarab iqtisodiy ahvoli, boy yoki kambag'alligi belgilangan. Shuningdek yopingichlarning matolari, ranglari ularning yoshlariga qarab ham farq qilingan. Umuman ayollarning yopingichlari asosan ularning yuzlarini begona erkaklar nazaridan bекitish uchun yopib yurilgan.

An'anaviy bosh kiyimlaridagi o'ziga xosliklar va farq, qiluvchi belgilar ko'proq kiyim egasining yoshiga, mavsumga, qachon va qayerda kiyilishiga qarab belgilangan. Jumladan, Surxon vohasida ayollarga onalik va ayollik belgisi sifatida lachak bog'lashsa, qar-luqlarda qizlar turmushga chiqqanlarida «qopdon» degan ro'mol yopilib, turmushga chiqqach katta oq ipakdan tikilgan «qalpoq» ro'mol o'ratilgan. Vohada istiqomat qiluvchi qo'ng'iro't ayollari sallabosh kiyib ustidan «dakana» ro'mol tashlab yurishgan. Bu o'rta yosh va keksa yoshdagi ayollarning bosh kiyimi hisoblangan.

Xullas, voha ayollarining an'anaviy bosh kiyimlari o'ziga xos ko'rinish va bichimga ega bo'lib, turlicha nomlar bilan atalgan. Xalqimizda bosh kiyim muqaddas hisoblangan va doimo u uyning to'riga osib qo'yilgan. Bosh kiyim boshqa kishiga berilmagan, oyoq, ostiga qo'yilmagan, unga o'ziga xos davlat-boyluk sifatida qarashgan. Shuningdek, bosh kiyimlar inson ko'rki sifatida e'zozlanib, alohida e'tibor berilgan. Kishining qaysi El-yurt far-zandi ekanligi ham ko'pincha uning bosh kiyimiga qarab aniqlangan.

Oyoq kiyimlari. An'anaviy kiyimlarining uzviy bir qismi oyoq, kiyimlaridir. Oyoq kiyimlari juda qadim zamonlardan buyon mavjud bo'lib, unga kishilar hamma davrlarda ehtiyoj sezganlar. Ibtidoiy odam ham o'z tanasini himoya qilishni oyoqlarini muho-faza qilishdan boshlagan. Surxon vohasi ayollarining an'anaviy oyoq kiyimlari quyidagicha bo'lgan: kalish, kalish-mahsi, no'g'ay kavush, hakkari kavush, «popush». Shuningdek, vohada qish faslida terilardan maxsus ishlov berib tikilgan etiklar ham kiyilgan.

«Qayroqi mahsi» — echki terisidan tayyorlangan charmdan kosiblar tomonidan tikilgan. Ayollar mahsi kiyishdan avval oyoqlariga paytava o'rashgan. Paytava qishda jundan, bahor va yozda paxtali matodan tayyorlangan. U oyoq, uchidan aylantiri-lib tovon orqasidan yuqoriga tomonga qarab o'ralgan va payta-vaning uch qismiga qistirib tiqib quyilgan. XIX asr oxirlarida ayollar orasida etik kiyish odat tusiga kira boshlagan va o'ziga

to'q, boy oilalarda nag'ali, uzun, tizzagacha qo'nji tashqarig' qaytarib qo'yiladigan etiklar kiyishgan. Etiklar asosan qo'y, echki mol terisidan tayyorlangan. Ayollarning yengil oyoq kiyimlari vohada «popush», «kavush» nomlari bilan atalgan. Yog'och yoki suyakdan poshna qilingani esa aholi orasida «hakkari kavush» deb yuritilgan. Voha aholisi uch qismi ilmoq ko'rinishida qayrilib turuvchi kavushlarni «no'g'ay kavush» deb atagan. Surxondaryoda ayollarning oyoq kiyimlari, O'rta Osiyoning boshqa hududlarida bo'lgani kabi, mahalliy kosiblar tomonidan xom teriga ishlov berib tikilgan. Oyoq kiyimining ko'rinishi va bezaklari kosib hamda charchilarning mahoratiga bog'liq bo'lgan. XIX asr oxiri — XX asr boshlaridan e'tiboran Rossiya fabrikalarda tayyorlangan kalish keng tarqalgan bo'lib, ular ranglariga qarab «qizil kalish», «malla kalish» deb atalgan. Kalishlar dastavval qo'lda tikilgan, keyinchalik esa fabrikada tayyorlangan paypoq — jutob (shevada) bilan kiyilgan.

Vohada chetdan kirib kelgan bir necha turdagi kalishlar ham ma'lum bo'lgan, ya'ni ruslar tomonidan tayyorlangan jelatin kalish, tatarcha-no'g'ay kalish, naqshli gulli kalish. An'anaviy kiyimlarni yoshga qarab kiyish xususiyati oyoq kiyimlarida ham sezilgan. To'ylarda, bayramlarda qizlar, kelinchaklar qizil mahsi yoki gulli mahsi kiyishgan bo'lsa, tog'li hududlarda mahalliy sharoitda bo'yalgan malla, qizil rangli qo'nji mahsi kiyishgan. Bunda mahsiga turli xil rangli ipak iplardan naqsh tushirib, tikib chiqilgan. O'rta va keksa yoshdagi kambag'al oilalarda ayollar «sariq mahsi» kiyishgan. Bunday mahsilar qo'y terisidan tikilib, terinig asl rangi saqlangan, ya'ni bo'yoqlarsiz oddiy ko'rinishda bo'lgan.

Ayollar oyoq kiyimi xilma-xil bo'lmagan, ular tikilishi, ranglari, naqshlariga ko'ra bir-biridan farqlansa-da, yoshiga va mavsumga qarab kiyiladigan oyoq kiyimlari barcha hududlarda bir xil ko'rinishga ega bo'lgan.

Xalqimizda oyoq kiyimlari bilan bog'liq bir qator irimlar, odatlar mavjud bo'lib, ular hattoki hozirga qadar ham saqlanib qolgan. Etnograf olim H. Ismoilovning ma'lumotlariga ko'ra, oyoq kiyimlari hadya qilinmagan, sarpolarga, qizlarning seplarga solinmagan.

Surxon vohasi ayollarining an'anaviy kiyimlarida respublikamizning boshqa hududlarida uchramaydigan o'ziga xos ko'rinishlar

hozirga qadar saqlanib qolgan. Xususan, keksa yoshdagi ayollar chekka qismiga vertikal yo'nalishda jiyak tikilgan «o'yma yoqa» ko'ylaklarni, jelak yoki paxtali chopon, nimchalarni hozirga qadar an'anaviy bichimda, tikib kiyishmoqda. An'anaviy bosh kiyimlaridan uzun keng ro'mol — «dakana», «salla bosh», kiygichlar, «to'ppi», «kaluga» ayollar orasida saqlanib, marosimlarda, bayram va sayllarda milliy, an'anaviy kiyimlar qatorida kiyiladi. Vohaning yurim o'troq hayot kechiruvchi aholisiga mansub ayollari sallabosh kiyib, o'zlarida alohida ulug'vorlik tantanavorlik tuyg'ularini ifodalashsa, ko'ylaklarining keng osilib turuvchi yenglari uzoq yo'lda yelpig'ich, soyabon vazifasini o'tagan. Keksa momolarining hikoyalari ko'ra, uyga kelin tushirgan qaynona momo «kelin salom»da keliniga: «Sen yashaydigan o'tov — qora, osimon — ko'k, dala-dasht — yashil, qozon-o'chog'ing qora, sochilib, ularning ichida alohida ko'zga tashlanib yurishing uchun qizil ko'ylak kiydirdim, iloyo sen ko'k ko'ylak kiyma, qoraga botma, qizamiqqa chalinma, yuzing ko'ylagingdek qizil bo'lib yur», deb qizil ko'ylak kiydirar ekan. Shundan so'ng qizlar, kelinchaklar, ayollar qizil rangni yoqtirib, unga alohida e'tibor bilan qaraganlar. Yaylovda qo'y boqib yurgan cho'pon uzoqdan o'ziga o'vqat keltirayotgan ayolini qizil kiyimda ko'rsa, yashil yaylovimga qizil oraladi, deb quvongan.

Xullas, an'anaviy kiyimlarni o'rganishning asosiy davri hisoblangan XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Surxon vohasi ayollarining an'anaviy kiyimlarida etnik o'ziga xoslik muayyan tabiiy iqlim sharoiti, xo'jalik mashg'ulotlari, xalqimizning dunyoqarashi, turmush tarzi yaqqol aks etganligini ko'rishimiz mumkin. Voha ayollarining kiyimlarida an'anaviylik ancha ustun bo'lgan. XX asrning 30-yillariga kelib marosim va kundalik kiyimlarning turi hamda sifati o'zgargan. XX asrning 50—60-yillarga kelib murakkab bichimli ustki, bosh va oyoq kiyimlari urf bo'la boshladi. Gazlamalarning turi, sifati, bezak naqshlari turli-tuman bo'lib, bu ijtimoiy munosabatlar, savdo-sotiqning rivojlanishi, fan-texnika taraqqiyoti, zamonaviy tikuv mashinalarining paydo bo'lishi, boshqa xalqlar bilan madaniy-iqtisodiy aloqalarning takomillasishi natijasida kiyimlarning xilma-xilligi ortgan.

chalar tikilgan va yirmochi chekkalariga jiyak — chiroz tikilgan erkaklarning yengil yelka yoqa ko'ylaklari ham bor bo'lib, ular oq bo'z, olacha yoki yo'i-yo'i matolardan tikilgan.

XX asr boshlarida Surxon vohasida erkaklarning yengil ichki kiyimlaridan «bo'z bola ko'ylak», «chor yoqa ko'ylak» keng tarqalgan bo'lib, bu ko'ylakning oldi ochiq bo'lib, yoqasining ichidan boshqa mato to'rt burchak shaklida qo'yilgan. Odatda bunday ko'ylak kiyilganda ichidan yana bir ko'ylak kiyilganga o'xshagan, shuning uchun ham u vohaning tojik aholisi orasida «chor yoqa ko'ylak» deb yuritilgan. Xuddi shu ko'rinishdagi ko'ylaklar Farg'ona vodiysida, Qashqadaryoda yaktak ko'ylak, bo'z boia ko'ylak deb yuritilgan. Yaktak — oldi ochiq va keng bo'lib, oq yo'i-yo'i matolardan tikilgan. Vohada yaktak keng tarqalgan an'anaviy erkaklar kiyimi hisoblangan. Yaktakning oldi yoqa qismiga bog'ichlar, keyinchalik tugmalar qadalgan. Yosh yigitlar yaktagida cho'ntak bo'lgan bo'lsa, keksalar yaktagining yoqalariga turli xil hoshiyalar bilan bezatilgan qora, to'q rangli bosma kashtalar tushirilgan.

Erkaklarning yengil ustki kiyimlaridan yana biri «guppi», «guppicha» sovuq qish faslida tog'larda chorvador aholi orasida keng tarqalgan. Guppi astarli bo'lib ichiga paxta, jun solib qavilgan. Chorvachilik bilan shug'ullangan aholi tuya, qo'y, echki juni solib qavilgan «guppi»lar kiyilgan.

Ko'ylak ustidan qizil-sariq, qizil-yashil hoshiyali to'n kiyilgan. Kuyov boshiga kalapo'sh kiydirilgan, ustidan sariq yoki qizil rangli salla o'ralgan. Kuyov oyog'iga mo'kki yoki choriq, o'ziga to'q oilalarda mahsi-kalish, ba'zan kuyovga atab olingan qizil kalish kiygan. Kuyov kelin uyiga kelgach, kelin tomonidan tayyorlangan yangi chopon-to'n kiydirilib, kuyovga to'rtburchak shaklidagi kashtali ro'molcha berilgan. Bu ro'molchani kelin o'z qo'li bilan kuyovga atab tikkan. Kuyovga ro'molcha berish kelinning muhabbati ramzi, turmushga chiqishga roziligining alomati hisoblangan. Kuyov kelinnikiga kelgach, kelinning yaqin qarindoshlaridan biri kelin-kuyovning choponlarini yelkalaridan bir-biriga tutash-tirib oq ip bilan tikkan. Bunda kelin-kuyov bir-biriga bog'lanib yursin, hamisha birga bo'lsin, kelin-kuyovning hayoti oq bo'lsin, ins-jinslar yoshlar baxtiga chang solmasin deb niyat qilingan. Qashqadaryoda bu udum «arqa ko'xlar» deb atalgan.

## SURXON VOHASI ERKAKLARINING MAVSUMIY KIYIMLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS KO'RINISHLARI

Voha aholisi erkaklari kiyimlarining shakllanishida an'anaviy xo'jalik mashg'ulotlari (chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik), tabiiy geografik iqlim sharoiti (tog', tog' oldi, dasht) ta'siri, ayniqsa, sezilib turadi. Etnografik tadqiqotlar xalq kiyimlari, garchi an'anaviy bo'lsa-da, ular hech qachon o'zgarmagan va o'zgar-maydi deb hisoblash noto'g'ri ekanligini tasdiqlaydi. Kiyimlarning o'zgarish jarayoni avlodlar almashinuvi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, etnologiya fanida kiyimlar tarixining asosiy yaratuvchisi hisoblangan «inson» vafot etishi natijasida yangi avlod o'zi uchun yangi, o'ziga xos burilishlar, milliy madaniyat va an'analarni yaratadi. XIX asr — XX asr boshlarida Surxon vohasining tog', tog' oldi va dashtli hududlarida yashovchi aholining o'ziga xos an'anaviy, mavsumiy kiyimlari shakllangan.

Voha erkaklarining o'rganilayotgan davrga xos an'anaviy kiyimlari to'g'risida gapiradigan bo'lsak, avvalo, ularning bu davrda ichki kiyimlari bo'z ko'ylak, yengil yaktak, qishda qalin guppicha, ishton-poyjamadan iborat bo'lganligini ta'kidlab o'tmoq joiz. Bu davrda o'zbek erkaklarining ko'ylaklari yoqa qismi elka yoqa (kiftaki) ko'rinishida bo'lib, ularning bichimi va tikilishi turli hududlarda typli xil ko'rinishda bo'lib, har xil nomlar bilan atalgan. Toshkent, Farg'ona vodiysida yengil oq matodan tikilgan yelka yoqa ko'ylaklar kiftaki ko'ylak yoki «musulmon ko'ylak», Farg'ona tojiklari, sartlarda «yaktak ko'ylak» deb atalgan. Vohada esa yelka yoqali, ya'ni bosh kirib chiqishga mo'ljallangan yirmochi ko'ndalang bo'lgan ko'ylaklar «kiftaki ko'ylak» yoki «mullacha ko'ylak» nomlari bilan atalgan, bu ko'ylaklar bichimiga ko'ra uzun, tik bo'lib, bel va yeng qismlari keng bo'lgan.

Boysun tumani muzeyining eksponatlari orasida yirmochi chekkalariga qora yoki dag'al matodan «mag'iz», ya'ni tasma-



XX asrning 30-yillariga kelib butun respublikamiz bo'ylab tatarcha «kamzur», «kamzul» keng tarqala boshlagan. Vohada yangi nusxada paydo bo'lgan kamzurlar «jelak» nomi bilan atala boshlagan.

Erkaklarning an'anaviy ustki kiyimlaridan yana biri bu chakmondur. Chakmonlarning bosma chakmon, boqoti chakmon, qoqma tivit chakmon kabi bir necha turlari mavjud bo'lib, ularni ranglariga qarab ko'k chakmon, malla chakmon, oq chakmon deb atashgan. Chakmonlar asosan qo'y va tuya terisidan tikilgan. Chakmon bichimiga ko'ra to'nga o'xshash bo'lib, faqat avradan tikilgan va chopon ustidan kiyilgan. Chakmon yilning sovuq faslida, yomg'irda kiyilgan va cho'ponlarning asosiy qishki kiyimlaridan biri hisoblanadi. Chakmon, kebenak atamali bilan kiyilgan ustki kiyimlar qipechoq, qoraqalpoq, turk quramalarda «yomg'irlik», «yopinchiq» deb atalib, «yemurlik», «yopancha» nomlari bilan XV—XVI asrlarda rus aslzodalari ham mavjud bo'lgan. Tuya terisidan tikilgan chakmon «malla chakmon» deb atalgan, «qoqma chakmon» uйда qo'lda tikilib tayyorlangan, «banoti movut chakmon» oliy sifatli movutdan tikilib, uni boylar kiyishgan, echki junidan tayyorlangan chakmon «katish» yoki «oqish» chakmon deyilgan. Kavkaz xalqlarida ham oq qo'y junidan tayyorlangan chakmonga o'xshash qishki ustki kiyim mavjud bo'lib u «kyorpaton» deb atalgan. Oq chakmonlar kamyob bo'lib, hamma oilalarda ham oq chakmon kiyish uchun iqtisodiy sharoit yetarli bo'lmagan. Chakmonning yoqasiga, yengining uchlariga va etaklariga rangli ipakdan to'qilgan jiyak tikib chiqilgan.

Erkaklarning an'anaviy mavsumiy ustki kiyimlariga cho'ponlar yomg'irli havoda kiyadigan «kebenak» ham kirgan. Kebenak yengsiz ko'rinishdagi xalatsimon kiyim bo'lib, faqat bosh kirishi uchun va qo'l chiqib turishi uchun maxsus o'yama joylar qoldirilgan. Kebenakda junli to'da bog'lamlar, izma-iz, qatorma-qator ko'rinishda tikib chiqilgan bo'lib, maxsus yomg'irdan himoya qilishga mo'ljallangan. Yomg'ir, qorda jun orasiga kirgan yomg'ir suvi, kor silkitganda tez to'kilib ketgan. Kebenakni ko'proq cho'ponlar kiygan. Surxon vohasining tog' oldi qishloqlarida chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholi orasida ko'proq ichki astar qismi qo'lda to'qilgan shoyi matodan, ustki qismi jun yoki kigizdan iborat bo'lgan kebenak keng tarqalgan.

Erkaklarning mavsumiy, an'anaviy ustki kiyimlaridan yana biri po'stindir. Po'stinni qo'y, tulki, suvsar terilaridan tayyorlanib, ichki qismi hayvonlarning mo'ynasidan, ustki qismi esa oshlangan teridan tikilib, bo'yalgan. Issiq kunlarda po'stinning mo'ynali qismi qismini ustiga chiqarib kiyilgan, sovuq kunlarda mo'ynali qismi ichiga qilib kiyilgan, umuman po'stinni ikki tomonlama kiyib yurish qulay bo'lgan. Vohada po'stinlarni qaysi hayvon terisidan tayyorlanganligiga qarab «barra po'stin», «suvsar po'stin», «kigiz po'stin» deb nomlangan. Po'stin ham asosan tog' qishloqlarida yashovchi chorvadorlar orasida rasm bo'lgan, uni sovuqdan himoya sifatida chopon, chakmon ustidan kiyishgan.

Respublikamizda erkaklarning an'anaviy kiyimlari mavsumiy qilib tikilgan. Vohaning chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholisi asosan tog' va tog' oldi hududlarida yashaganligi va iqlim sovuqligi sababli hayvonlar terisidan tayyorlab tikilgan kiyimlarni kiyishgan. Erkaklar otda yoki yayov uzoq safarda yurganda, xo'jalik va uy-ro'zg'or yumushlarini bajarganda keng etakli ustki kiyimlarni kiyishgan va ixcham turishi uchun belga belbog' bog'lashgan. Belbog' bo'z, chit, satin kabi matolardan tikilgan. Chorvador aholi teridan, jundan to'qilgan shol belbog'lar, fo'ta belbog', matri belbog' bog'lashgan.

Belbog' bog'lash o'smirlikdan yigitlikka o'tishning ramziy belgisi hisoblangan. Vohada «chumchulag'oy» nomli jundan qo'lda to'qilgan belbog'lar keng tarqalgan, u paxta ipidan, jundan tayyorlangan. Belbog' xalqimiz orasida turlicha nomlar bilan atalgan: «to'qima belbog'», «fo'ta» — bir bo'lak matodan tikilgan po'pakli belbog'; qiyiq — to'rt tomoni kashtalangan belbog', charm belbog'. Belbog'lar qanday matodan tikilganiga qarab adras belbog', alvon belbog', shoyi belbog', undagi alohida belgilariga qarab kashta belbog', tangali belbog', ipak belbog' deb atalgan. An'anaviy kiyimlarning ajralmas qismi bo'lgan belbog' juda qadimiydir. Belbog'ning ramziy ma'nosi juda keng. O'zbek belbog'lari amaliy, marosimiy va magik funksiyaga ega. Er va ayollar-ning aza va to'ylarda bel bog'lashi marosimiy ahamiyat kasb etadi. Vohada to'ylarda kuyovning oila boshlig'i, er bo'lganligi, beli baquvvatligining ramziy belgisi sifatida kelinning tog'asi yoki yangasi uning beliga qattiq tugilgan belbog' bog'laydilar. Boysun, Sherobod tumani o'zbek qo'ng'irotlarida bog'langan belbog' tuguni belning baquvvatligi, kuchining mustahkamligi ramzi deb

qaralgan va kuyov belbog'ini kuyov jo'ralar to'y oxirigacha yechirishmagan. Belbog' orasiga pul, shirinlik solib bog'lashgan Belbog' boylik va sevgi ramzi sifatida qaralgan. Demak xalqimiz erlik baquvvatlik boylik ramzi, ko'ngilning to'qligiga ishonch, magik e'tiqod, sevgi timsoli sifatida belbog' bog'lashgan.

Xalqimizda belbog' bilan bog'liq, bir qancha ramziy udumlar mavjud bo'lgan. Turmushga chiqayotgan qizlar sarpo sifatida kuyovga o'z qo'llari bilan turli naqshlar solib belbog' tikishgan, eng qadri mehmonga, xushxabar keltirgan xabarchiga ham belbog' berilgan. Ba'zan bir necha belbog' belga birin-ketin bog'lanib, uzoq, safarlarda zarurat bo'lganda belbog' dastro'mol, joynamoz, hamyon vazifalarini bajargan. Shuningdek, odamlarning belbog' bog'lashi ramziy ma'noda uning yiqqan mol-dunyosini ham bildirgan. Agar u bitta belbog' taqib yurgan bo'lsa, uning mol-dunyosi bitta avlodiga yetishini, 2 ta bo'lsa, ikkita avlodga, 3 ta bo'lsa, uchta avlodiga yetishini anglatgan. Boy-badavlat kishilar, savdo bilan shug'ullanuvchi savdogarlar turli xil rangli ipaklar bilan to'qilgan kumush, tillo, to'qali kamar bog'lab yurishgan. Qora charm kamar, turli xil naqshlar, yaltiroq toshlar bilan bezatilib, kamarga pichoq, hamyon osadigan bog'ichlar qilingan. Oddiy mehnatkash aholining belga taqiladigan kamar va metall bog'ichlarni sotib olishga yoki tiktirishga qurbi yetmagan.

Erkaklar bosh kiyimlari ham o'ziga xos etnik hududiy, mavsumiy belgilarga ega bo'lgan. Erkaklarning eng ko'p va keng tarqalgan bosh kiyimi do'ppidir. Respublikamizda har bir hududga xos do'ppilar bo'lib, Toshkent, Farg'ona, Andijon, Chust, Samarqand, O'rtepa, Qo'qon, Shahrisabz, Kitob, Buxoro chevarlari tikkan do'ppilar tikilish uslubi, gullari, matosiga ko'ra bir-biridan farq qilgan. Do'ppi astar, avra, jiyak va piltadan iborat bo'lib, ularning har biri alohida tikilib, so'ng astar bilan avranning orasiga ingichka simga o'ralgan qog'oz pilta o'tkazilgan va shu usulda qo'shib tikilgan. Do'ppilar to'rtburchakli, dumaloq, qirrali qilib tikilgan. Dumaloq shakldagi do'ppilar yengil oq matodan tikilib, kechasi uxlaganda, sallaning ichidan kiyilgan. Ular «shappo'sh», «so'fi do'ppi», «kalapo'sh» nomlari bilan atalgan. Kuyovlarga, yigitlarga tikiladigan dumaloq do'ppilar kashtalanib, do'ppining chetiga aylantirib tikilgan jiyakning ikki uchi tutashtirilgan joyidan popuklari osilib turgan. Ushbu ko'rinishdagi kashtali, po'pakli do'ppilar hozirga qadar Shahrisabz, Boysunda keng tarqalgan

an'anaviy bosh kiyimlaridir. Tapa qismi cho'qqisimon qilib tikilgan uch qirrali bosh kiyim — kuloh XX asrning boshlariga qadar keng tarqalgan edi. Qishki mavsumiy bosh kiyimlaridan telpak XX asrning 20—30 yillarida rasm bo'lgan. Telpak qanday matodan tikilganligiga qarab qorako'l telpak qunduz telpak, tulki telpak, nomlari bilan atalgan. Vohada qishki bosh kiyimlaridan quloqnomlari bilan atalgan. Vohada qishki bosh kiyimlaridan quloqnomlari bilan atalgan. Vohada qishki bosh kiyimlaridan quloqnomlari bilan atalgan. Vohada qishki bosh kiyimlaridan quloqnomlari bilan atalgan.

Erkaklarning an'anaviy oyoq kiyimlari asosan mahalliy sharoitda charmchi-ko'ncilar, etikdo'zlar, yamoqchi-kosiblar tomondan tikilgan va tuzatilgan. Kavush-mahsi, choriq, takaki, mukki, toshovon, choriq-poypush kabi oyoq kiyimlar mavsumiy oyoq kiyimlari hisoblangan. Vohada chorvachilik bilan shug'ullanuvchi mahalliy aholi olis tog' sharoitida va qish faslida «choriq» kiyishgan. Choriqning orqa tovon ortidan tasma ip qilinib, oyoqqa aylantirib bog'lab qo'yilgan. Bu oyoq kiyimi ot, tuya, mol terisidan tikilgan. Vohada chorvadorlar suv choriq va dag'al choriq kiyishgan. Mazkur oyoq kiyimi, asosan qishda, namda kiyilgan. Chunki uning ichi jun bo'lib, usti maxsus ishlov berilgan mol terisidan tikilgan. Mukki — tovonsiz, yumshoq mol, echki terisidan tikilgan. Erkaklar qishda «tovuldiriq», «toshovon» nomlari bilan yuritilgan osto yog'ochdan qilingan atrofiga mol terisi, ichiga echki juni qoplangan oyoq kiyimlari kiyishgan. XX asrning 20—30-yillarida zamonaviy fabrika chamlaridan tayyorlangan etiklar qish faslida ommaviy tarzda kiyila boshlandi. Ular no'g'ay etik, qora etik, ya'ni qo'nji tizzagacha bo'lgan poshnali etiklar erkaklarning an'anaviy, mavsumiy oyoq kiyimlari edi. Mavsumiy qishki oyoq kiyimlari paytava o'ralib kiyilgan. Erkaklar issiq kunlarda teridan tikilgan kavush kiyishgan. Ma'lla kavush — qalin, dag'al mol terisidan qo'lda tikilgan, og'dirma kavush — keng, tumshug'i uzun bo'lib, mol, ot terisidan tayyorlangan, hakkari kavush — yog'ochdan tayyorlangan bo'lib, kuz, bahorda kiyilgan; ko'k kavush — eshak terisidan tayyorlanib rang berilgan; qora «sipohi» kavush — Rossiyadan keltirilgan, bunday yaltiroq qora teridan tikilgan kavushlarni asosan boylar kiyishgan. Kalish, mahsi shahar atrofidagi qishloqlarda keng miqyosda kiyilib, hozirga qadar keksa yoshdagi erkaklarning an'anaviy oyoq kiyimlari hisoblanadi. Vohada erkaklarning an'anaviy oyoq kiyimlari tabiiy iqlim sharoitiga mos, mavsumiy, sodda, ixcham va qulay bo'lib, qo'lda ishlov

berib tayyorlangan. XX asrning boshlariga kelib texnika taraqqiyoti, savdo-sotiq va mol ayirboshlashning rivojlanishi natijasida murakkab usulda ishlov berilgan zamonaviy oyoq kiyimlarini kiyish udumga aylana boshladi.

Xullas, Surxon vohasi erkaklarining an'anaviy kiyimlarida umumiy va alohida belgilar tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy sabablarga ko'ra shakllangan va asrlar davomida o'zgargan bo'lib, an'anaviy bosh kiyimlari, belbog'lar, oyoq kiyimlarida umumiy o'xshashlik mavjud edi. Lekin o'rganilayotgan davrda voha erkaklarining ustki kiyimlarida an'anaviylikning asl ko'rinishlari va qadimiy elementlari saqlanib qolganligi ma'lum. Erkaklar yilning issiq fasllarida oq yengil yaktak, jelak, qishda paxtali nimcha, to'nni an'anaviy kiyimlar sifatida kiyishgan. Ayniqsa bu davrdagi kiyimlar o'zining rangi va bezaklariga ko'ra ham yaqqol farqlanib turgan. Vohada erkaklar to'ni oq-yashil, oq-qizil, oq-sariq, yo'l-yo'l olacha beqasmandan tikilgan. Shuningdek, Boysunda erkaklar sarg'ish, qizil rangli bosma choponlar kiyishgan. Bu chopon o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, respublikamizning boshqa hech bir joyida uchramaydi.

## KIYIMLARNI BICHISH-TIKISH, KIYISH VA SAQLASH

An'anaviy kiyimlar u yoki bu xalq moddiy madaniyatining qirralmas bir qismi sifatida mazkur xalqning turmush tarzi, estetik didi, milliy xususiyatlari haqida to'la ma'lumot olishga yordam beradi. Kiyim ma'nosini bildiruvchi lisoniy birliklar O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari va Navoiy asarlarida «libos», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» asarida «keyim», fors-tojik tilida «sarupo» tarzida ishlatilgan.

Qadimda har bir xalq, o'zining mahalliy, ma'naviy va diniy qarashlaridan kelib chiqib kiyimlarni bichish, tikish va kiyish bilan bog'liq, urf-odat va udumlarga rioya etgan bo'lib, yillar o'tgach bular an'anaviylik ko'rinishini olgan. Jumladan, Surxon vohasida ham matolar qaychi bilan kesilmagan, bichilgan mato qo'lda yirtilib, qiyib joylari pichoq bilan kesilgan. Kiyimlarni bichishda kishining bo'yi, yelkasining kengligi, qo'l uzunligini o'lchash gunoh hisoblangan. Kiyim bichuvchilar qo'l o'lchovlaridan foydalanishgan. «Bir qarich» — bosh barmoqdan chimchiloqqacha; «bir en» — bosh barmoqdan ko'rsatgich barmoqqacha; «to'rt en» (to'rt sera) — keng holatdagi to'rtta barmoq kengligida bo'lgan. Shuningdek vohada qizlarning sep ko'ylaklarini hamma ayol ham bichavermagan. An'anaga ko'ra, bir nikohli, serfarzand, keksa yoshli ayol qizning sepidagi matodan birinchi ko'ylakni bichib bergan. Surxon vohasida qizning kelinlik kiyimlarini bichish udumi «sarpo bichar» nomi bilan atalgan.

«Kiyim bichar» marosimi o'tkaziladigan kuni keksa ayollar va qizning dugonalari yig'ilishib, o'zidan tinib-tinchigan serfarzand, ayollar yaxshi niyat bilan kelin ko'ylagini bichishgan, qo'shiqlar aytib, o'yin-kulgu qilishgan.

Kiyim bichuvchilar odatda kiyimlarni bichishda, ulardan qiyim chiqarmaslikka harakat qilishgan. Keksas momolarning



aytishlaricha, agar kiyim bichishda qiyqim chiqarilsa va mazkur qiyqimga yomon kishilarning nazari tushsa, shu kiyimni kiygan kishi biror kasalga chalinishi mumkin deyilgan.

Kiyimlarni bichish uchun, hattoki, xaftaning ma'lum bir kunlari tanlab olingan. Xalq nazdida haftaning dushanba, payshanba, juma kunlari yaxshi, xosiyatli kunlar deb qaralgani bois asosan shu kunlari kiyim bichilgan bo'lsa, seshanba, shanba kunlari xosiyatsiz deb hisoblangan va o'sha kunlar kiyim bichilmagan. Kiyim bichuvchilar kelinning ko'ylaklarini «baxti ochilib ketsin» ma'nosida oldi ochiq holda tikkanlar. Shuningdek vohada ko'ylaklarga tikiladigan turli kashtalar, chirozlar ham kiyim egasini yomon ko'zlardan asraydi degan magik tasavvurlarga ega bo'lgan.

Xalqimizda shod-hurramlik yoki qayg'uli kunlarni bildirish uchun shunga mos ravishda kiyinishgan. Oq, ko'k, qizil va qora ranglar va shu rangdagi matolardan tikilgan kiyimlar turli xil ramziy holatlarni ifodalovchi ma'no kasb etgan. To'ylarda oq, qizil, to'q-qizil rangli matolardan kiyimlar kiyilgan. Kelinlarning kelinlik seplarida oq rangli kiyimning bo'lishi barcha xalqlarga xos ana bo'lib, bu bilan kelinga oq fotiha, oq yo'l, baxt tilashgan, oq rang xalqimizda poklik, pokizalik ramzi hisoblangan. Qolaversa, ramziy ma'noda bo'lg'usi keliming bir olamdan ikkinchi dunyoga, ya'ni qizlik olamidani xotinlik dunyosiga o'tayotganligini ham anglatgan.

Kelin bo'layotgan qizga serfarzand, bir nikohli ayol ko'ylak kiydirgan. Odatga ko'ra, kelinga atab tikilgan barcha kiyim-kechaklar uzun va keng qilib tikilishi shart bo'lgan. Yeng uchlari, etagi buklab tikilmagan. Surxon vohasida kelinga to'y kuni ikki-uch ko'ylak ustma-ust kiydirilgan, ichdan kiyilgan birinchi ko'ylak oq yoki qizil matodan tikilgan. Toshkentda kelinlarga to'y kuni birinchi marta mursak kiydirilgan.

Vohada ayollarning yoshlari bilan bog'liq, ramziy holatlarni o'zida ifoda etuvchi qator kiyimlar ham kiyilgan. Jumladan, kelinlarga «kelin qalpoq», «dumaloq qalpoq» deb nomlangan bosh kiyimni kiydirilgan. To'yni ikkinchi kuni kelinga ayollik kiyimini kiydirish marosimi o'tkazilgan. Mazkur marosimda kelinga xalq orasida «kampir yoqali» ko'ylak deb atalgan uzun, tik yoqali ko'ylak kiydirilib, sochi ikkita qilib o'rigan va qalpoq kiydirilgan. Qalpoq ustidan «ro'moli kalon» yoki «dakana» deb atalgan katta

long ro'mol tashlangan, So'ngra momolar «doimo qo'sha qarib yursin» deb kelinga «qo'sh etak ko'ylak» kiydirishgan. Odatga ko'ra, kelinlar oilada birinchi farzand tug'ilgunga qadar kelinlik kiyimlarini kiyishgan.

Vohaning qo'ng'iroq, qarluq yuz urug'larida kelinlar to'ydan so'ng qirq kun mobaynida qasaba va sallaboshlarini yechishmagan. Qasaba va sallaboshlarni qirq kun davomida yechmaslikning bir necha ramziy ma'nosi bo'lgan. Avvalambor, to'ydan so'ng qirq kunlik chilla davrida kelin sallaboshni yechsa, yomon ko'zli kishilarning ta'siri o'tib, kelin suqlanishi mumkin deyilsa, ikkinchi tomondan xalqimiz kishining davlati boshida bo'ladi, qizlarning sochida parisi bor, deb ishonishgan. Shu sababli «parilari qirq kunga qadar boshidan tushmasin, madadkor bo'lsin» deb yangi kelinlar qasabalarini yechishmagan. Bulardan tashqari, qirq kunga qadar sallaboshlarini yechmay kiyib yurish kelinlikning ramziy belgisi bo'lib, kelinlik ko'rki deb hisoblangan.

Vohada keksa yoshdagi kishilarning kiyimlari alohida e'tibor bilan ozoda saqlangan. Uzoq umr ko'rgan qariyalar vafot etgach, ularning bosh kiyimlari, ustki kiyimlari tabarruk hisoblanib, farzandlari va nevalariga tarqatilgan. Keksa yoshdagi qariyalar, asosan, ayollar maxsus sandiqlarda oxirat uchun atalgan kiyimliklar, ya'ni «olimlik» to'plashgan. Keksa kishilarning «olimlik» uchun yiqqan chopon, ko'ylak, oyoq kiyimlari va bosh kiyimlari asosan yangi, tutilmagan kiyimlar bo'lib, marhumni yuvishda qatnashgan «yuvuvchi»larga berilgan. Uzoq umr ko'rgan momo va buvalarining ko'ylagi, jelak va choponlaridan yangi tug'ilgan chaqaloqlarga yaxshi niyat bilan umri uzoq, bo'lsin deb «chilla ko'ylak» tikib kiydirishgan.

Kiyimlar uni kiyadigan kishilarning yoshiga, oila va jamiyatda tutgan o'rniga qarab turli xil matolardan tikilgan. Kiyimlarning rangi ham katta ahamiyatga ega bo'lgan, kiyimlar rangi g'amginlik yoki xursandchilik timsoli sifatida ajratilgan.

Motam marosimlarida marhum xotirasiga aza tutgan yaqin qarindoshlar azaning uchinchi kuni o'tkaziladigan «kir yuvdi» marosimida oq, ko'k rangdagi matolardan tikilgan «aza ko'ylaklari» kiyishgan. Bu odat «ko'k kiyish» deb yuritilgan. Vohada aza kiyimi uchun oq, havorang va ko'k rangli matolardan ro'mol bog'lab, ko'ylaklar kiyishgan. Boshqa xalqlarda esa qora va qizil ranglar motam belgisi sifatida qabul qilingan. Jumladan, Naman-

gan viloyatida yashovchi tojiklarda eri vafot etgan ayol yostiqlik doshining azasi uchun qora kiyim kiya, marhumning boshqa yaqin qarindoshlari ko'k kiyimlar kiyishgan. Toshkentda esa asosan qora rang azadorlik belgisi sifatida qabul qilingan. O'zbek ayollari bellari bog'langan kiyimlar kiyishmagan, chunki bel bog'lash marosimiy ahamiyatga ega bo'lib, motam marosimlarida marhumning eng yaqin kishilarigina azadorlik belgisi sifatida bellarini bog'lashgan. Bellari bog'langan azadorlar faqat marhum uyidagina shu holatda yurishgan, qo'ni-qo'shnilarinikiga yoki boshqa xonadonga beldagi bog'lovlarini yechib o'tishgan. Shuningdek azadorlik belgisi sifatida barcha taqinchoqlar ham yechib qo'yilgan. Vohada aza liboslarini kiyish bir yilga qadar davom etgan. Marhumning vafotiga yili to'lganida yil oshi berilgach, aza kiyimlari yechilib, ko'mib tashlangan va aza kiyimini yechgan ayollarga yangi matodan ko'ylak kiydirilib, yangi ro'mol bog'latilgan. Bu marosim «ko'k yechdi» deb nomlangan.

Ma'lum bir marosimlar, xususan to'y, dafn, sayllar yoki bayramlarda kiyiladigan marosimiy kiyimlar qadimdan mayjud bo'lib, hozirga qadar davom etmoqda. Xalqimiz qadimda ipak matolarga ilohiy mato sifatida qaraganligi sababli yalang'och badanga ipak matodan ko'ylak kiyish gunoh sanalgan, shu bois erkaklarga ipak matodan ko'ylak tikilmagan, ayollar esa ipak matodan tikilgan liboslarni bir necha paxtali ko'ylaklar ustidan kiyishgan. Bu odat xalqimizning tut daraxti va ipak qurtini muqaddas deb bilishi bilan bog'liq magik qarashlardan kelib chiqqan bo'lishi kerak.

Xalqimiz qadimda kiyim-kechaklarni saqlashda ham o'ziga xos odatlar va ma'lum bir qoidalariga amal qilgan. Ayollarimiz har xil bayram va to'ylarda kiyiladigan kiyimlarini uzoq vaqt kiyishgan hamda ularni sandiqlarda avaylib saqlashgan. Kundalik libos sifatida kiyiladigan kiyimlar, shuningdek asl matolar kiyimlar uchun mo'ljallangan «bo'g'joma», «bo'g'cha»larda saqlangan. Erkaklarning chakmon, po'stin, to'n kabi kiyimlari uyning to'rida devorga osib qo'yilgan so'zana, zardevorlar, kashtalar ustidan ilib qo'yilgan. Sandiqlarda joylashtirilgan kiyimlar va matolarni saqlashda ularning orasiga o'tkir hid taratuvchi isiriq, rayxon, yalpiz, yong'oq, jiyda kabi o'simliklarning barglari tashlab qo'yilgan. Bu amal kiyimlarni har xil kuya, qurt-qumursqalar kemirib, yaroqsiz holga keltirmasligi uchun qilingan.

## BOLALAR KIYIMLARI BILAN BOG'LIQ URF-ODATLAR

Odatda xalqimiz bolajon, bolaparvar bo'lganligi, qolaversa, o'tmishda bolalar, ayniqsa, chaqaloqdar o'rtasida turli xil kasalliklar tez-tez uchrab turganligi sababli chaqaloqlik davridanoq ularning kiyimlariga alohida e'tibor berishgan. Shu sababli bo'lsa kerak, bolalarning an'anaviy kiyimlari bilan bog'liq urf-odat va ijtimoiy-sirimlar bolalar kiyimlarida ko'proq uchraydi. Bolalar hayotiga turli xil insu-jinslar, yomon kishilar nazaridan saqlanish, ularning salomatligini mustahkamlash maqsadida turli xil udum-larga alohida e'tibor berilgan.

Chaqaloqlarga yangi matodan tikilgan kiyimlar kiydirilmagan. Keksa momo, bobolarning kiyimlaridan butun bo'lakchalar olinib maxsus kiyimchalar tikib kiydirilgan. Keksa yoshdagi, uzoq umr ko'rgan kishilarning kiyimlaridan yosh chaqaloqlarga ko'ylakchalar tikib kiydirishganda, birinchidan xalqimiz bolaning umri uzoq bo'lsin, shu kishidek uzoq umr ko'rsin deb niyat qilsa, ikkinchidan, kiyilgan kiyimlarning matosi yuvilib, kiyilib ancha oxiri to'kilgan, yumshoq holga kelgan va bolaning badaniga yengil, yumshoq holati bilan ancha mos tushgan. Bola 3—5—7 kunlik bo'lganda birinchi, «qirq kunlik», «chilla» ko'ylak kiygizilgan, u ham albatta yangi matodan tikilmagan. Chaqaloqlarning ko'ylaklari respublikamizning turli hududlarida turlicha nomlangan. Bolani turli xil ta'sirlar, yomon kishilar nazaridan saqlash maqsadida, 20 kunlik bo'lgach «chilla» ko'ylak dastlab toshga yoki itga kiydirilgan va bu bilan boshi toshdan bo'lsin, joni toshdek qattiq bo'lsin, bolalarga kelgan kulfatlar itning boshiga tushsin deb tilak, niyat qilingan. Farzandi turmagan oilada yangi farzand tug'olsa, chaqaloqqa ko'ylak uchun yetti uydan mato so'ralgan. Chorva-chilik bilan shug'ullangan aholi orasida bolalarga echki junidan tivit qalpoq to'qib kiydirishgan. Bolalarning kiyimlari quloqcha,

kallapo'sh, qalpoqcha deb yuritilib, aylana shaklda, quloqlarni berkitib, iyak ostidan ip tasmacha bilan bog'lab qo'yilgan.

Bola 1,5—2 yoshga to'lgunga qadar boshlariga ro'mol bog'lab qo'yilgan. Bolalar ovqatlanganda ustki kiyimlarini toza saqlash maqsadida iyak ostidan bo'yinga aylantirib ko'krak qismiga tutqich mato bog'lashgan va bu vohada «peshbola» yoki oldiga tutqich «xo'rakband» deb yuritilgan. Xuddi shunday tutqichlar boshqa qo'shni hududlarda ham turlicha nomlar bilan yuritilgan. Shahrisabzda «peshband», Farg'onada «peshgir», Toshkentda «oshxo'rak», «oldi» deb atalgan.

Yosh o'g'il, qizlar yetti, sakkiz yoshdan o'tgandan so'ng ularning kiyimlari bichimi kattalar kiyimlari bichimlariga yaqinlashib borgan. Bolalar yetti, sakkiz yoshdan so'ng etaklari qaytarilgan ko'ylak kiya boshlaganlar, qizlar ko'ylagiga 8 yoshdan so'ng turli kashta-bezaklar, yoqasiga tasma, jiyak tugma, to'g'nag'ichlar qadab tikila boshlangan. Bolalar dastlab bog'siz ishtonlar kiyishgan, 8—9 yoshdan so'ng bog'li ishtonlar kiya boshlashgan. O'g'il bolalar yetti, sakkiz yoshdan so'ng etaklari qayrilgan, uchburchak yoqali ko'ylak kiyib, to'qqiz yoshdan so'ng boshlariga salla o'rashgan. Qiz bolalar ko'ylagi ular turmushga chiqqunga qadar «yelka-yoqa» ya'ni yirmochi gorizantal shaklida tikilgan.

Bolalar oyoq kiyimlari qadimda xilma-xil bo'lmagan. «Mukki», «choriq» kabi oddiy, teridan ishlov berilgan oyoq kiyimlari qish faslida kiyilib, qizlar esa kalish-mahsi, charm teridan tayyorlangan yengil kavush «popush» kiyishgan. Yuqorida qayd etilganidek bolalarni turli xil ta'sirlardan saqlash maqsadida, xalqimiz bolalar kiyimlari bilan bog'liq ko'plab udumlar, irim-sirimlarga amal qilishgan. Avvalo chaqaloq kiyimlari saqlab qo'yilgan va oilada keyingi farzandlarga kiydirilgan. Ba'zan oilada boshqa farzand tug'ilmasa, o'sha ko'ylak bola katta bo'lib, uylanib bolalik bo'lgach, uning bolasiga kiydirilgan. Bolalarning kiyimlari begonalarga berilmagan.

Yosh bolalarga yomon kishilar nazari tushib, ularga «suq» kiradi, ya'ni bolalar «suqlanadi» deb bolalarni yasantirib kiyintirilmagan. Boysun tumani Sayrob qishlog'ida yosh bolalarni suqlanishdan himoya qilish maqsadida, ustki kiyimlari yoki ishtonini teskari kiydirib qo'yish odati bo'lgan. Odatda bolalarning bosh kiyimlariga turli parrandalar burgut, tovus, xo'roz patlarini jiga qilib taqib qo'yishgan. Sherobod tumani, Poshxurd qishlog'ida

yashovchi To'rayeva Barot momo ma'lumotlariga ko'ra, bo'rining bir juft tirmog'ini, danak bodom po'chog'i ichiga joylashtirib, ip bilan bog'lab bolalar kiyimiga, do'ppisiga tikib qo'yilgan va bu bilan kelgan ziyon-zahmat, balo-qazo bo'rining tirmog'iga ilinadi, o'tadi deb hisoblashgan. Bolalar kiyimlari va ular bilan bog'liq udumlar quyidagi uchta muhim asosga ko'ra, o'ziga xos ahamiyat kasb etgan. Birinchidan, bolalar kiyimlari, ya'ni tanani issiqlovuqdan himoya qiluvchi usti-bosh vazifasini bajargan.

Ikkinchidan, xalqimizning turmush tajribasi, qarashlari, e'tiqodlaridan kelib chiqqan holda bolalarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan holatlarga rioya qilish maqsadida «chilla» ko'ylak kiydirilgan.

Uchinchidan, ajdodlar totemistik, magik, diniy qarashlaridan kelib chiqqan holda bolalarni turli xil insu-jinslar, ko'z-suqdan himoya qilish maqsadida turli irim-sirimlarga rioya qilingan.



## XALQ AMALIY BEZAK SAN'ATI

O'zbek xalqi ajdodlari tasviriy san'at sohasida ibtidoiy jamiyat davridan boshlab ajoyib asarlar yaratganligini arxeologik kashfiyotlar tasdiqlaydi. Respublikamizning juda ko'p joylarida, ayniqsa Boysun, Qurama tog' tizmalari, Samarqand tevaragidagi tog'lardan topilgan qoya toshlarga bitilgan ibtidoiy rasmlar o'zining realligi va rang-barangligi bilan hozirgacha kishilarni hayratda qoldiradi.

Moddiy va ma'naviy madaniyat bilan bevosita bog'liq bo'lgan san'at namunalari, ibtidoiy chizma rasmlar, antik davr va o'rta asrlarda yaratilgan monumental badiiy obidalar mintaqada yashagan turli elatlar tomonidan ijod qilingan. O'zbek etnogenezini tashkil qilgan elatlarning ko'p asrlar davomida shakllanib kelgan madaniy merosining umumiy ijodkorlari sifatida namoyon bo'lishi O'rta Osiyoliklarning ma'naviy zaminini ham bir bo'lganligining dalilidir. Ayniqsa, antik davrda yaratilgan turli xildagi amaliy bezak san'ati namunalari qadimiy xorazmliklar, baqtriyaliklar, sug'diy-lar, marg'iyonaliklarning yuksak madaniyatga ega ekanligini namoyon qiladi.

O'rta Osiyoliklarning mazkur ajdodlari yaratgan ajoyib obidalar bizlargacha yetibgina qolmay, ularning ishlab chiqarish an'analari avloddan-avlodga o'tib, mohir ustalar tomonidan rivojlantirilgan. Hozirgacha saqlanib kelingan o'zbek, tojik, turkman, qirg'iz, qozoq ustalarining ganch, yog'och va marmardan yaratilgan chiroyli o'ymakor buyumlari, naqshli sopol idishlari, rang-barang to'qimachilik va kashtachilik mahsulotlari, misgarlik va zargarlik buyumlari umumiy xarakterga ega bo'lib, har bir etnosning o'ziga xos xususiyatlarini ham namoyon qiladi.

Amaliy bezak san'ati har bir xalqning maishiy turmushining tarkibiy qismi sifatida asrlar osha shakllanib kelgan milliy xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Ammo bizgacha yetib kelgan

sohalar o'zining ishlab chiqarish uslubini va zo'r san'atini saqlab qolgan bo'lsa-da, mazmunan va shakl jihatdan ancha o'zgargan. Arxeologik kashfiyotlar tufayli aniqlangan islomgacha bo'lgan obidalarda topilgan ganchdan va sopolidan yasalgan buyumlarda, metall va oltin bezaklarda, devoriy san'at namunalarida tasvirlangan jozibador obrazlarda butun bir maishiy turmush sohasi (ayrim odamlar va turli jonivorlar ishtirokida o'tkazilgan marosimlar va hayot tasviri berilgan pannolarda) namoyon qilingan bo'lsa, islom tarqalgandan keyin barcha binokorlik amaliy bezak san'atida mazmun va shakl deyarli o'zgarib ketgan. Zo'r mahorat bilan bunyod etilgan odamlar, turli hayvonlar va butun bir voqealar tasviri berilgan obidalar o'rninga geometrik va o'simliklar shaklidagi bezaklar asosiy o'rinni egallagan. Oddiy maishiy buyumlar va bezaklarda, hashamatli me'morchilik inshootlarida jonli obrazlar tasviri deyarli yo'qolib ketgan.

Hozirgacha saqlanib kelgan amaliy san'at sohasidan ganch o'ymakorligi keng tarqalgan. Tarixiy obidalarda topilgan qadimgi ganch o'ymakorligi asosan hajmiy bo'lib, realistlik tasvirlar bilan ajralib turadi. Masalan, III—IV asr obidasi bo'lmish Tuproq-qal'aning serhasham Saroy mehmonxonalaridagi o'yma ganchli rasmlar, o'sha davrga oid Varaxsha xarobalarida kashf etilgan ganchga bitilgan o'simliksimon naqshlar, palmetta, bo'rttirib ishlangan baliq tasviri ganch, geometrik shakllar, qushlar, hayvonlar va baliqlarning tasvirlari ajoyib san'at namunalari darak beradi. Qadimiy ustalar murakkab naqshlarni o'simlik va hayvonlarning tasvirlaridan olib, stillashtirib ishlaganlar. Ganch devorga, ustun va peshtoqlarga qalin qilib suvalib, naqsh tasviri ganchning o'ziga axta (ulgi)siz to'ppa-to'g'ri chizib qo'yilgan.

Ilk o'rta asrlardan boshlab ganchkorlik san'ati yana ham rivojlangan. Movarounnahrda ganchkorlik me'morchilikning asosiy bezagi darajasiga ko'tarilib, ularda afsonaviy hayvonlarning tasviri ham uchratamiz. Ayniqsa, Janubiy O'zbekistonda o'rganilgan maqbaralarning intereri, devor peshtoqlari ravoqlari nihoyatda nafis o'yma naqshlar bilan bezatilgan. Masalan, XII asrda Termiz maqbaralarida yangicha uslub ishlatila boshlanganligi, ya'ni muqarnaslar (stilyaktitlar)ning paydo bo'lishi va ko'pgina binolarda qo'llanilishi ganchkorlikning o'sganligidan guvohlik beradi.

Keyingi asrlarda Afrosiyobda topilgan ajoyib ganch namunalari bu sohada yangi-yangi naqshlar yaratilganligini, binolardan

ganch o'ymakorligi bilan uzviy bog'langan koshinlar va toshdan yasalgan bezaklar, ganch ishlatila boshlaganligini ko'rsatadi. Ganchkorlikning gullab-yashnashi XVIII—XIX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu sohada o'zbek ustalarida ayrim mintaqaga (viloyatga) xos badiiy uslub va belgilar saqlanib qolgan. Ular o'ziga xos o'ymakorlik maktablarini yaratibgina qolmay, o'zaro tarixiy davr jihatidan ham farqlanadilar. Agar qadimgi ganch o'ymakorligida deyarli hajmiylik, realistlik mazmunli va ornamental motivli rasmlar xarakterli bo'lsa, o'rta asrlarda asosan o'simlik va geometrik shakldagi chuqur o'yib yasalgan hashamatli bezaklar paydo bo'ladi.

Bizning asrimizga kelib ganchkorlik san'atida mayda relefli, nozik va rangli tekis fonda yasalgan me'morchilik namunalari keng tarqala boshlagan. Hozirgi davrda binokorlikda ko'proq bezakli rangli gullar va rasmlar bilan ganch o'ymakorligini uyg'unlikda ishlanishiga harakat qilinmoqda. Shuning uchun ustalarining ko'pchiligi nafaqat o'ymakor, balki shu bilan birga rassomchilikni ham egallagan. Ular ganchdan tashqari, binokorlikda ishlatiladigan har xil karnizlar, ustun va kronshteymlar, panjara va boshqa detallarni yasash va bo'yashni ham biladilar.

Ustalarining mohirligi tufayli kichik xonalarga mayda, tekis o'ymakor va unga mos pardoz turi, katta xonalarga esa yirik yoyma, o'ziga xos naqshlar beriladi. Ganch o'ymakorligida yirik o'yma, chuqur o'yma, yassi o'yma, zamini ko'zguli o'yma, zamini rangli o'yma, chizma pardoz, hajmli o'yma kabi uslublar ishlatilmoqda.

Binokorlik (me'morchilik)da ishlatiladigan an'anaviy ornament geometrik va o'simlik shaklida. O'zbek xalqi san'atining barcha sohalarida o'simlik ornamentlari ustun turadi, ammo u doimo geometrik naqshlar bilan birga ishlatiladi. Ganchkor ustalar har xil turdagi o'yma ishlatadilar: zamin-kori, choka-pardoz, lo'li-pardoz va tabaka-pardoz. Keyingi turi eng oxirgi va yangi hisoblanadi. Ular o'zaro ornamentlarining o'yilish uslubi, chuqurligi va katta-kichikligi bilan farqlanadilar, ammo bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ganchkor naqshlar katta korxonalar, ma'muriy imoratlar, madaniy va san'at saroylarini bezabgina qolmay, keyingi yillarda juda ko'p fuqarolarning uylariga ham husn bag'ishlamoqda. Yirik inshootlar, monumental obidalar, keng savdoga mo'ljallangan o'ymakor ganch naqshlar muayyan motivdagi milliy orna-

mentlar tasvirlangan qoliplarda quyilib ishlanadi. Bunday ajoyib milliy bezaklar Toshkentdagi Navoiy nomidagi opera va balet teatrida, Muqimiy nomli teatrdagi, katta san'at va madaniyat saroylarida, juda ko'p ma'muriy va jamoatchilik binolarida, palixonalar va do'konlarda keng ishlatilgan bo'lib, ular shahar husniga-husn bag'ishlamoqda. Erkin mayin bo'yoqlar bilan an'anaviy o'ymakorlik naqshlarining birgalikda ishlatilishi, ayniqsa, chiroy kashf etadi. Mashhur badiiy ganchkor ustalaridan O'zbekiston Fanlar Akademiyasining faxriy a'zosi, Respublikada xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Shirin Murodov, Xalqaro mukofotlar sovrindori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Abdulla Boltayev, elda katta hurmatga sazovor bo'lgan mohir ustalar Toshpo'lat Arslonqulov, Usmon Ikromov, Anvar Quliyev, Shamsiddin G'ofurov, Quli Jalilov, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining faxriy a'zosi Yusufali Musayev va boshqalar yaratgan o'ymakorlik va me'morlik san'ati xalqimizning badiiy boyligidir.

Yog'och o'ymakorligi ham O'zbekistonning barcha viloyatlarida qadimdan keng tarqalgan. Mazkur o'ymakorlikka oid bo'rtiq (gorelef) naqshlar uy-ro'zg'or buyumlarida va me'morchilikda, ayniqsa eshik, darvoza, ustunlar, har xil to'sin, xontaxta, quticha, qalamdon, egar kabilarda ishlatilgan. Mohir ustalar yaratgan bizgacha yetib kelgan ayrim buyumlar hozirgacha o'zining nafisligi, tabiiyligi va murakkabligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Yog'och o'ymakorligi ilk o'rta asrlarga oid Surxondaryo vohasidagi Yumaloqtepadan, Buxoro, Xiva, Samarqand, Shahrisabz va boshqa joylardagi qazilmalardan topilgan. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, arablar kelishidan oldin yog'ochdan yasalgan ma'buda (xudo)ni har bir xonadonda uchratish mumkin ekan. Odatda bunday ma'buda eshik tepasiga qo'yilgan va u eskirsa xonadon sohibi yangi ma'buda xarid qilib, almashtirib turgan. Arablar istilosidan keyin islom aqidalariga binoan tasviriy san'atning bunday turlari, ayniqsa haykaltaroshlik butunlay barham topadi. Endilikda usta naqqoshlar yog'och buyumlarga geometrik shaklda oddiy chiziqlardan murakkab shakllar yasashga, tabiat manzarasi va o'simliklar aksini ifodalashga o'tdilar.

IX—X asrlarda O'rta Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda yog'och o'ymakorligi yana ham rivoj topadi. Bu davrga xoslik shundan iborat ediki, o'ymakor ustalar yaratgan naqsh zaminida qandaydir ramziy ma'no, ezgu-tilak, orzu va go'zal niyatlar ifo-

dalangan. Ularning naqshlarida hatto timsol, duo-afsunlar, tasbehl va tanosiblar ancha ko'p bo'lgan.

Keyingi davrda (XI—XIII asrlar) xalq amaliy san'atida murakkab geometrik naqsh, ya'ni *girix naqshi* asosiy o'rinni egallab uy-ro'zg'or buyumlari, me'morchilik naqshlari yanada badiiyroq va nafisroq bo'lib ishlangan. Bunga misol qilib XI—XII asrlardagi Samarqanddagi Shohi-Zinda devorining orasidan topilgan yog'och o'ymakorligi namunasini, Ko'hna Urganch obidalaridagi naqshli eshik va ustun namunalari keltirish mumkin. Temuriylar davrida yaratilgan yog'och buyumlarda hattoki tirik mavjudodlar o'yib tasvirlanganligini ko'rish mumkin. Samarqanddagi Ruxobod maqbarasining eshigidagi baliq tasviri, ayrim buyumlardagi qush, ilon kabi jonzotlarning tasviri bunga dalildir.

O'zbek xonliklarida ham ajoyib xalq amaliy san'ati namoyandalari, chunonchi, yog'och o'ymakor ustalar yetishib chiqqan. O'tgan asr oxirlariga kelib har bir xonlikda o'ziga xos turli uslubdagi o'ymakorlik maktablari paydo bo'lgan. Masalan, Buxoro yog'och o'ymakorligi naqshning jozibadorligi, jimjima bezaklarining oltin, kumush suvi bilan bezatilishi, naqsh zaminida ranglardan foydalanish bilan ajralib turadi. Xiva ustalari yog'och o'ymasining monumentaligi, tabiiy rangining mustahkamligi bilan boshqalardan farqlanadi. Quva o'ymakorlari esa kalta bo'rtmali, yassi o'yma naqshlar yaratganlar. Peshtoqda ham naqsh bilan qoplangan yassi bo'rtmali, zaminsiz chizma yog'och o'ymakorligi keng tarqalgan. Marg'ilon ustalari chuqur zaminli o'ymani qo'llab kelganlar. Qo'qondagi Xudoyorxon saroyi, Buxorodagi Sitorayi Mohi-Xosa, Xivadagi Toshhovli, Marg'ilondagi Saidahmadxo'ja madrasasi, Toshkentdagi Romanovlar saroyi va A.A. Popovsev uyi, Quvadagi Zayniddinboyni uyi va boshqalarda o'zbek yog'och o'ymakorligi san'atining bebaho namunalari yaxshi saqlanib qolgan.

O'zbek xalqi amaliy bezak san'atining ganch va yog'och o'ymakorligi namunalari xalqaro miqyosdagi turli ko'rgazmalarda muvaffaqiyat bilan ko'p marta namoyish qilingan. Masalan, O'zbekiston mohir ustalari o'z ishlari bilan 1925-yilda Parijda, keyin Leypsigda, 1927-yilda jahon bo'yicha, 1937-yilda Parijda «San'at va texnika hozirgi kunda» degan ko'rgazmalarda qatnashib ikkita «Gran pri», ikkita kumush medal bilan mukofotlanganlar. 1939-yilda Nyu-Yorkda bo'lgan «Kelajak olam» ko'rgazmasida

ham qatnashib o'zbek ustalari diplom olganlar. 1938-yili yanvarda Butuntitifoq xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasidagi O'zbekiston namunalari Toshkent, Buxoro, Xiva, Farg'ona ganch va yog'och o'ymakorlari ajoyib san'ati namunalari bilan bezatilgan.

Respublika poytaxtida qad ko'targan barcha ma'muriy, jamoat binolari, teatr, restoran, do'kon va boshqa yirik imoratlarining o'ymakorlik san'ati bilan bezatilgan ganch va yog'och qismlarini yaratishda o'zbek ustalari o'zlarining mahoratlarini namoyish qilganlar.

Respublikada tanilgan o'ymakorlardan Sulaymon Xo'jayev, Olimjon Qosimjonov, Maqsud Qosimov, Ortiq Fayzullayev va boshqalar o'ziga xos o'ymakorlik maktabini yaratganlar va juda ko'p iste'dodli shogirdlar yetishtirganlar. Usta Sulaymon Xo'jayevga 1932-yilda O'zbekiston xalq ustalari ichida birinchi bo'lib Mehnat Qahramoni unvoni berilgan edi. Xiva maktabi ustalaridan Ota Polvonov, Sapo Boqbekov va boshqalar o'ziga xos o'ymakorlik san'atini yaratganlar. Ularning naqshlari maydaligi, go'zalligi, zaminining kamligi, naqshlarning zichligi va badiiy tuzilishi bilan ajralib turadi. Xiva o'ymakor ustalari asosan qayrag'och (gujum), terak, chinor daraxt yog'ochlarini ko'proq ishlatadilar va ular yog'ochning tabiiy ko'rinishini saqlashga harakat qilib, yangi o'yma yuzasini silliqlash, bo'yoq surishni qo'llaganlar.

Samarqand yog'och o'ymakor ustalari ham o'ziga xos maktab yaratib, boshqa maktablarga qaraganda juda mayda o'yma naqshlar, murakkab kompozitsiyalar, ya'ni geometrik o'simliksimon va guli girix uslubidagi lok berilgan buyumlari bilan ajralib turadi. Bu maktabning namoyondalaridan Usta Asatilla, M. Jumaboy, Usta Nasrullo, Nurali Nazrullayev kabilar juda tanilgan.

Qo'qon o'ymakor ustalari yaratgan turli buyumlari (kursi, rom, quticha va hokazo) yassi, kalta bo'rtmali o'yimali, ya'ni *pargari* uslubini qo'llanilgan. Ular me'morlikda eshik va ustunlarga yirik chuqur naqshlar o'yib yasaganlar. Marg'ilon o'ymakorlari ham shu uslubda ishlaganlar. Ular ko'pincha terak, yong'oq yog'ochidan foydalanib, o'yilgan naqsh yuziga to'qroq rang berib, keyin loklaganlar.

Hozir mamlakatimizda biror shahar yoki qishloq yo'qki, ajoyib yog'och o'ymakorligi san'ati namunalari bo'lmasa. Bu sohada, ayniqsa, Xorazm ustalari nom chiqargan. Barcha o'ymakorlik san'ati namunalari me'morchilikda, chunonchi, yirik ijtimoiy, ma-



daniy va ma'muriy imoratlarda, restoran va kafelarda, shaxsan uylarda ko'plab ishlatilmoqda. Ayniqsa, ustun, karniz va panel jaralarda chiroyli o'simlik uslubi, har xil uy-ro'zg'or buyumlari va jihozlarda ham ishlatiladi.

Amaliy bezak san'atining O'zbekistonda keng tarqalgan sohalar bo'yoqli rasmlar chizishdir. Odatda bu soha ikki xilda: *ganch suvoqli devorga rasm solshi* va *yog'och buyumlarga rangli naqsh berishdan* iborat. Mazkur kasbni *naqqoshlik* san'ati deb ham ataydilar. O'tmishda yuksak did bilan bunyod etilgan naqshli muhtasham binolar hozirgacha kishini o'ziga maftun qilish keltirmoqda. Nixoyatda boy, mazmunli milliy naqshlarimiz turar joy va yirik imoratlarining devor hamda shiftlarida, oddiy idish tovoqlar, sandiq va ko'rpachalar, belanchak, cholg'u asboblari va boshqa buyumlarda jiivalanib insonni hayratga soladi. Ilgan badavlat o'zbek oilalari turar joylarining har bir me'moriy qismi o'ziga xos naqshlar bilan bezatilgan. Uning intereri, ya'ni xona devori uzunasiga uch qismga bo'lingan — pastki izora (panel), o'rta qismi va tepa qismi friz. Devorning o'rta qismi manzaralar, katta-kichik naqshlar, unvonli yozuvlar va boshqa ornamentlar bilan bezatilgan. Tepa friz qismiga har xil geometrik va o'simlik shaklidagi naqshlar ishlangan. Devorning tepa qismi bilan shiftni o'rtasida odatda ganchdan yasalgan ajoyib karnizlar o'rnatilgan (unga sharafa deb nom berilgan), shiftning o'rtasi esa o'yib ishlangan ganchli qubbalar bilan bezatilgan va unga hovuzak deb nom berilgan. Bu hovuzaklarga islomiy yoki geometrik naqshlar yoki turunjlar ishlatilgan. Bunday bezaklar o'zbek xonadonining an'anaviy ziynati hisoblanadi. Devorlardagi tokchalar, taxmonlarning cheti, kitoblar ajoyib naqsh namunalari bilan bezatilgan. Tokchalar har xil idish-tovoqlar bilan, chiroyli taxmonlar, ko'rpachalar bilan jihozlangan. O'zbek xonadonlaridagi sergul gilamlar, rang-barang ko'rpa va choyshablar, naqshinkor xonataxtalar, qalamdonlar, qutichalar, rangin bezakli devoriy naqshlar, hashamdor shiftni millatning nozik did va oliy his-tuyg'ularga ega ekanligini isbotlaydi. Buning yana bir tasdiqi mazkur devorlar va shiftni berilgan naqshlarning mutanosibliigi, puxtaligi, ranglarning uyg'unligi, nafisligi va yuksak badiiyligidir. Milliy naqqoshlik san'atining rivojlanishi Farg'ona, Xorazm, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa tuman va viloyatlarda o'ziga xos naqqoshlik maktablarini yuzuga keltirgan.

An'anaviy naqqoshlik noyob badiiy san'at turlaridan biri tosh ustun va yirik idish-tovoqlar bilan, chiroyli taxmonlar, ko'rpachalar bilan jihozlangan. O'zbek xonadonlaridagi sergul gilamlar, rang-barang ko'rpa va choyshablar, naqshinkor xonataxtalar, qalamdonlar, qutichalar, rangin bezakli devoriy naqshlar, hashamdor shiftni millatning nozik did va oliy his-tuyg'ularga ega ekanligini isbotlaydi. Buning yana bir tasdiqi mazkur devorlar va shiftni berilgan naqshlarning mutanosibliigi, puxtaligi, ranglarning uyg'unligi, nafisligi va yuksak badiiyligidir. Milliy naqqoshlik san'atining rivojlanishi Farg'ona, Xorazm, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa tuman va viloyatlarda o'ziga xos naqqoshlik maktablarini yuzuga keltirgan.

Amaliy bezak san'atining O'zbekistonda keng tarqalgan sohalar bo'yoqli rasmlar chizishdir. Odatda bu soha ikki xilda: *ganch suvoqli devorga rasm solshi* va *yog'och buyumlarga rangli naqsh berishdan* iborat. Mazkur kasbni *naqqoshlik* san'ati deb ham ataydilar. O'tmishda yuksak did bilan bunyod etilgan naqshli muhtasham binolar hozirgacha kishini o'ziga maftun qilish keltirmoqda. Nixoyatda boy, mazmunli milliy naqshlarimiz turar joy va yirik imoratlarining devor hamda shiftlarida, oddiy idish tovoqlar, sandiq va ko'rpachalar, belanchak, cholg'u asboblari va boshqa buyumlarda jiivalanib insonni hayratga soladi. Ilgan badavlat o'zbek oilalari turar joylarining har bir me'moriy qismi o'ziga xos naqshlar bilan bezatilgan. Uning intereri, ya'ni xona devori uzunasiga uch qismga bo'lingan — pastki izora (panel), o'rta qismi va tepa qismi friz. Devorning o'rta qismi manzaralar, katta-kichik naqshlar, unvonli yozuvlar va boshqa ornamentlar bilan bezatilgan. Tepa friz qismiga har xil geometrik va o'simlik shaklidagi naqshlar ishlangan. Devorning tepa qismi bilan shiftni o'rtasida odatda ganchdan yasalgan ajoyib karnizlar o'rnatilgan (unga sharafa deb nom berilgan), shiftning o'rtasi esa o'yib ishlangan ganchli qubbalar bilan bezatilgan va unga hovuzak deb nom berilgan. Bu hovuzaklarga islomiy yoki geometrik naqshlar yoki turunjlar ishlatilgan. Bunday bezaklar o'zbek xonadonining an'anaviy ziynati hisoblanadi. Devorlardagi tokchalar, taxmonlarning cheti, kitoblar ajoyib naqsh namunalari bilan bezatilgan. Tokchalar har xil idish-tovoqlar bilan, chiroyli taxmonlar, ko'rpachalar bilan jihozlangan. O'zbek xonadonlaridagi sergul gilamlar, rang-barang ko'rpa va choyshablar, naqshinkor xonataxtalar, qalamdonlar, qutichalar, rangin bezakli devoriy naqshlar, hashamdor shiftni millatning nozik did va oliy his-tuyg'ularga ega ekanligini isbotlaydi. Buning yana bir tasdiqi mazkur devorlar va shiftni berilgan naqshlarning mutanosibliigi, puxtaligi, ranglarning uyg'unligi, nafisligi va yuksak badiiyligidir. Milliy naqqoshlik san'atining rivojlanishi Farg'ona, Xorazm, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa tuman va viloyatlarda o'ziga xos naqqoshlik maktablarini yuzuga keltirgan.

Amaliy bezak san'atining O'zbekistonda keng tarqalgan sohalar bo'yoqli rasmlar chizishdir. Odatda bu soha ikki xilda: *ganch suvoqli devorga rasm solshi* va *yog'och buyumlarga rangli naqsh berishdan* iborat. Mazkur kasbni *naqqoshlik* san'ati deb ham ataydilar. O'tmishda yuksak did bilan bunyod etilgan naqshli muhtasham binolar hozirgacha kishini o'ziga maftun qilish keltirmoqda. Nixoyatda boy, mazmunli milliy naqshlarimiz turar joy va yirik imoratlarining devor hamda shiftlarida, oddiy idish tovoqlar, sandiq va ko'rpachalar, belanchak, cholg'u asboblari va boshqa buyumlarda jiivalanib insonni hayratga soladi. Ilgan badavlat o'zbek oilalari turar joylarining har bir me'moriy qismi o'ziga xos naqshlar bilan bezatilgan. Uning intereri, ya'ni xona devori uzunasiga uch qismga bo'lingan — pastki izora (panel), o'rta qismi va tepa qismi friz. Devorning o'rta qismi manzaralar, katta-kichik naqshlar, unvonli yozuvlar va boshqa ornamentlar bilan bezatilgan. Tepa friz qismiga har xil geometrik va o'simlik shaklidagi naqshlar ishlangan. Devorning tepa qismi bilan shiftni o'rtasida odatda ganchdan yasalgan ajoyib karnizlar o'rnatilgan (unga sharafa deb nom berilgan), shiftning o'rtasi esa o'yib ishlangan ganchli qubbalar bilan bezatilgan va unga hovuzak deb nom berilgan. Bu hovuzaklarga islomiy yoki geometrik naqshlar yoki turunjlar ishlatilgan. Bunday bezaklar o'zbek xonadonining an'anaviy ziynati hisoblanadi. Devorlardagi tokchalar, taxmonlarning cheti, kitoblar ajoyib naqsh namunalari bilan bezatilgan. Tokchalar har xil idish-tovoqlar bilan, chiroyli taxmonlar, ko'rpachalar bilan jihozlangan. O'zbek xonadonlaridagi sergul gilamlar, rang-barang ko'rpa va choyshablar, naqshinkor xonataxtalar, qalamdonlar, qutichalar, rangin bezakli devoriy naqshlar, hashamdor shiftni millatning nozik did va oliy his-tuyg'ularga ega ekanligini isbotlaydi. Buning yana bir tasdiqi mazkur devorlar va shiftni berilgan naqshlarning mutanosibliigi, puxtaligi, ranglarning uyg'unligi, nafisligi va yuksak badiiyligidir. Milliy naqqoshlik san'atining rivojlanishi Farg'ona, Xorazm, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa tuman va viloyatlarda o'ziga xos naqqoshlik maktablarini yuzuga keltirgan.

Amaliy bezak san'atining O'zbekistonda keng tarqalgan sohalar bo'yoqli rasmlar chizishdir. Odatda bu soha ikki xilda: *ganch suvoqli devorga rasm solshi* va *yog'och buyumlarga rangli naqsh berishdan* iborat. Mazkur kasbni *naqqoshlik* san'ati deb ham ataydilar. O'tmishda yuksak did bilan bunyod etilgan naqshli muhtasham binolar hozirgacha kishini o'ziga maftun qilish keltirmoqda. Nixoyatda boy, mazmunli milliy naqshlarimiz turar joy va yirik imoratlarining devor hamda shiftlarida, oddiy idish tovoqlar, sandiq va ko'rpachalar, belanchak, cholg'u asboblari va boshqa buyumlarda jiivalanib insonni hayratga soladi. Ilgan badavlat o'zbek oilalari turar joylarining har bir me'moriy qismi o'ziga xos naqshlar bilan bezatilgan. Uning intereri, ya'ni xona devori uzunasiga uch qismga bo'lingan — pastki izora (panel), o'rta qismi va tepa qismi friz. Devorning o'rta qismi manzaralar, katta-kichik naqshlar, unvonli yozuvlar va boshqa ornamentlar bilan bezatilgan. Tepa friz qismiga har xil geometrik va o'simlik shaklidagi naqshlar ishlangan. Devorning tepa qismi bilan shiftni o'rtasida odatda ganchdan yasalgan ajoyib karnizlar o'rnatilgan (unga sharafa deb nom berilgan), shiftning o'rtasi esa o'yib ishlangan ganchli qubbalar bilan bezatilgan va unga hovuzak deb nom berilgan. Bu hovuzaklarga islomiy yoki geometrik naqshlar yoki turunjlar ishlatilgan. Bunday bezaklar o'zbek xonadonining an'anaviy ziynati hisoblanadi. Devorlardagi tokchalar, taxmonlarning cheti, kitoblar ajoyib naqsh namunalari bilan bezatilgan. Tokchalar har xil idish-tovoqlar bilan, chiroyli taxmonlar, ko'rpachalar bilan jihozlangan. O'zbek xonadonlaridagi sergul gilamlar, rang-barang ko'rpa va choyshablar, naqshinkor xonataxtalar, qalamdonlar, qutichalar, rangin bezakli devoriy naqshlar, hashamdor shiftni millatning nozik did va oliy his-tuyg'ularga ega ekanligini isbotlaydi. Buning yana bir tasdiqi mazkur devorlar va shiftni berilgan naqshlarning mutanosibliigi, puxtaligi, ranglarning uyg'unligi, nafisligi va yuksak badiiyligidir. Milliy naqqoshlik san'atining rivojlanishi Farg'ona, Xorazm, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa tuman va viloyatlarda o'ziga xos naqqoshlik maktablarini yuzuga keltirgan.

Amaliy bezak san'atining O'zbekistonda keng tarqalgan sohalar bo'yoqli rasmlar chizishdir. Odatda bu soha ikki xilda: *ganch suvoqli devorga rasm solshi* va *yog'och buyumlarga rangli naqsh berishdan* iborat. Mazkur kasbni *naqqoshlik* san'ati deb ham ataydilar. O'tmishda yuksak did bilan bunyod etilgan naqshli muhtasham binolar hozirgacha kishini o'ziga maftun qilish keltirmoqda. Nixoyatda boy, mazmunli milliy naqshlarimiz turar joy va yirik imoratlarining devor hamda shiftlarida, oddiy idish tovoqlar, sandiq va ko'rpachalar, belanchak, cholg'u asboblari va boshqa buyumlarda jiivalanib insonni hayratga soladi. Ilgan badavlat o'zbek oilalari turar joylarining har bir me'moriy qismi o'ziga xos naqshlar bilan bezatilgan. Uning intereri, ya'ni xona devori uzunasiga uch qismga bo'lingan — pastki izora (panel), o'rta qismi va tepa qismi friz. Devorning o'rta qismi manzaralar, katta-kichik naqshlar, unvonli yozuvlar va boshqa ornamentlar bilan bezatilgan. Tepa friz qismiga har xil geometrik va o'simlik shaklidagi naqshlar ishlangan. Devorning tepa qismi bilan shiftni o'rtasida odatda ganchdan yasalgan ajoyib karnizlar o'rnatilgan (unga sharafa deb nom berilgan), shiftning o'rtasi esa o'yib ishlangan ganchli qubbalar bilan bezatilgan va unga hovuzak deb nom berilgan. Bu hovuzaklarga islomiy yoki geometrik naqshlar yoki turunjlar ishlatilgan. Bunday bezaklar o'zbek xonadonining an'anaviy ziynati hisoblanadi. Devorlardagi tokchalar, taxmonlarning cheti, kitoblar ajoyib naqsh namunalari bilan bezatilgan. Tokchalar har xil idish-tovoqlar bilan, chiroyli taxmonlar, ko'rpachalar bilan jihozlangan. O'zbek xonadonlaridagi sergul gilamlar, rang-barang ko'rpa va choyshablar, naqshinkor xonataxtalar, qalamdonlar, qutichalar, rangin bezakli devoriy naqshlar, hashamdor shiftni millatning nozik did va oliy his-tuyg'ularga ega ekanligini isbotlaydi. Buning yana bir tasdiqi mazkur devorlar va shiftni berilgan naqshlarning mutanosibliigi, puxtaligi, ranglarning uyg'unligi, nafisligi va yuksak badiiyligidir. Milliy naqqoshlik san'atining rivojlanishi Farg'ona, Xorazm, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa tuman va viloyatlarda o'ziga xos naqqoshlik maktablarini yuzuga keltirgan.

sirli idish va sopol buyumlar o'zining nozik va murakkab naqshlari, bo'yoqlar koloriti, ayniqsa, ochiq ko'k kobalti va feru rangli bir necha ohanglilik bilan ajralib turadi. Hozirgi Rishon buyumlari qalami uslubida yaratilgan, naqshlar yirik va dekorativ xildagi ornamentli. G'ijduvon sopol idishlari o'zining rang boyligi va qatlamlilik bilan ko'zga tashlanadi. Ularda ham qatlam uslubida to'q jigarrang fonda yashil, to'q sariq, to'q ko'k va qizil g'isht rangli naqshlar bir necha qatlamda berilgan bo'lib, bo'lin tirilgandek seziladi. Hozirgi Shahrisabz ustalari yirik ornamentli qizil-jigarrang fonda yashil, sariq qizg'ish va ba'zan ko'k ranglar bilan idish-tovoqlarni bezaydilar. Samarqandlik kulollar katta dekorativ shakldagi oltin yoki sakkiz qirrali yulduz, doirasimon o'simlik ornamentli naqshlari bilan o'z mahsulotlarini bezaganlar. Toshkentliklarda ikki xil sopol idishlar farqlanadi, eski xilida yasalgan suyuqlik oqimiga o'xshash yashil, sariq va jigarrang bo'yoqli va hozirgi davrga oid ochiq fonga bitilgan chekkas gravirovkali, mayda o'simlik ornamentli, polixrom bezakli namunalar. Farg'ona kulollari sopol idishlarga oq, ko'k qizil, yashil, sariq va hokazo tusda sir beradilar. Andijonda sirni kup roq oq tusda beradilar. Idishga tag sir berilgandan so'ng uning ustidan rangli bo'yoq bilan turlicha chiziqlar, xollar, gullar chiziladi. Kulolchilikning eng qadimgi markazi hisoblangan Xorazm idish-tovoqlari shakli, ayniqsa katta ovqat idishi — bodiya va laganlari, suvdonlari (xumlari) bilan ajralib turadi. Idishlarga beriladigan gul va geometrik naqshlar asosan to'q yashil va feruza, biroz ko'k va oq ranglardan iborat. O'zbek kulollari yasaydigan har xil figurali o'yinchoqlar, ayniqsa hushtak chaladigan o'yinchoqlar qadimiy davrlardan ma'lum.

Chinni idishlar O'rta Osiyoda yaqin davrlardan boshlab ishlab chiqila boshlangan. O'zbekistonda feodalizmning so'ngi davrida paydo bo'lgan chinnisozlik hozir tez sur'atlar bilan rivojlanib, an'anaviy badiiy san'at namunalarini yaratishni kasb qilmoqda. O'tgan asrda chinnisozlik Farg'ona vodiysida, Andijon, Qo'qon, Rishton kabi shaharlarda rivoj topgan. Ammo XIX asr oxiriga kelib Rossiya chinni korxonalarida ishlangan idishlarning O'rta Osiyo bozorlariga ko'plab kira boshlashi tufayli maballiy chinnisozlar raqobatga chidayolmay inqirozga uchraydilar. Oqibatda asrimiz boshlarida bu kasb ko'p shaharlarda to'xtaydi va yo'qolib

ketadi. 1954-yilda respublikamizda chinnisozlik qaytadan tiklanib oyoqlana boshlaydi.

O'zbek kulolchilik san'ati ham amaliy san'atning boshqa shaharlari singari bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu narsa o'zining xomashyo, ishlab chiqarish qurollarining turlari, mehnat tamomoti, buyumlarining shakli va naqshlari kabilarda ko'rinadi. Sopol idishga solinadigan gullar va naqshlarning nomlari ba'zan bir xil, ba'zan o'zaro farqlanadi. Farg'ona vodiysi kulollari, ayniqsa mashhur rishtonlik ustalar ijod etgan naqsh namunalari 300 ga yaqin. Shularning ichida naqsh elementlarini ifodalovchi quyidagi bo'zlarni uchratamiz: *anorgul, qalampir, tole, qanoiti murg', qo'chqaroq (qo'chqor shoxi), guli afishi, sada, gultojixo'roz, mexroba, zar pechak, bulbulzor, tumorcha, oshpichoq, optovagul, choydush, chetangul, tuyabo'yin, guzanak, kaptar qanot, oshiqcha, rishtagul, pechak o'ti, sanami, pista, barg, zanjira, osma gul, koshin gul, chor vaproq guli gajak*. Sopol idishlarga tushirilgan naqshlar bir-birini to'ldiradi, mukammallashtiradi va o'ziga xos husn bag'ishlaydi.

Taniqli naqqosh va olim, O'zbekistan xalq rassomi M.R. Rahimov sopol idishlarni sir bo'yoqlariga qarab quyidagilarga ajratadi:

1. **Oqpaz idishlar** — bunga ishqor bilan sirlangan lagan, tovoq, kosa, piyola kabilar kiradi;
2. **Lojuvard** — bunga suyuq ovqatlar quyiladigan osmon rangli idishlar va siyohdonlar kiradi;
3. **Qalagi va chinni idishlar** — bunga qalay qo'shilgan qo'rg'oshin bilan sirlangan o'rtacha kattalikdagi fayans idishlar kiradi;
4. **Tagi siyoh** — qo'rg'oshindan ishlangan to'q jigarrang sirli idishlar kiradi. (Asosan Buxoro va Qashqadaryo) viloyatlarida uchraydi;

5. **Qo'rg'oshin** — bunga qo'rg'oshin bilan sirlangan, to'q kulrang, sarg'ish, oq rangdagi idishlar, chunonchi, ko'zagarlik, kosa-garlik buyumlari kiradi.

M. Rahimov kulolchilik hunarini ilmiy jihatdan o'rganibgina qolmay, o'z ijodida an'anaviy o'zbek kulolchiligi bilan zamonaviy sopolchilikni uyg'unlashtiradi. Uning dastlabki faoliyatida yaratgan buyumlarida yorqin zamindagi ko'k, yashil, sariq gullar jilosi ajoyib kompozitsiya namoyish qiladi. Mohir usta an'anaviy bezakli *lagan, guldon va yangi shaklli idishlar bilan birga portret, sovg'a buyumlar*

yaratgan, ularning bezagida o'simliksimon naqshlar bilan bir qatorda hayvon shakllarini va yozuvli tasvirlarni ishlatgan. U ko'p yillar moboynda sopol materiali va bo'yoqlarni o'rganish yo'nalishini samarali xizmat qilib, bir necha jiddiy asarlar yaratdi. Uning kulolchilik sohasida original yasalgan badiiy buyumlari turli muzeylarda saqlanmoqda.

O'zbek milliy bezak san'atini dunyoga tanigan yana bir muhim soha kandakorlik, ya'ni metallardan yasalgan badiiy buyumlarga o'yib yoki bo'rtiq qilib naqsh ishlash kasbidir. Bu badiiy hunarmandchilik ham o'lkamizda qadimiy davrlardan ma'lum bo'lib, u o'z qadimiyligi bilan kulolchilikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Mahalliy kandakor ustalar oltin, kumush, mis, jez va boshqa metallardan uzoq o'tmishdan buyon turli buyumlar yasab kelmoqdalar. Badiiy metall buyumlarni ishlashning ilk namunalarini O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekistonda eramizdan avvalgi I ming yillik o'rtalaridan keng tarqala boshlagan. Dastlabki to'g'nog'ichlarda kichik voqealar, hayvonlar va boshqa mazmundor tasvirlar aks ettirilgan. Masalan, o'sha davrga oid Farg'onada topilgan marosim qozoni kandakorlikda «hayvonot uslubi» mavjudligidan darak beradi. So'nggi antik va ilk o'rta asrlarda mahalliy kandakor ustalar qimmatbaho metallardan hokimlar va zodagonlar uchun to'y-tomosh, taxtga o'tirish, ov qilish, shikor va kurash manzaralari, afsonaviy va epik qahramonlar obrazi, hayotiy mavjudod, parranda va boshqa dunyoviy tasvirlar o'z aksini topgan ko'pgina buyumlar yasaganlar. Islomgacha o'tgan davrda Movarounnahr aholisi uy-ro'zg'or badiiy buyumlarida dunyoviy voqealar ifodalangan naqshlarning ko'p topilganligi mazkur kasbning nihoyatda keng tarqalganligidan dalolat beradi.

O'rta asrlarda nafaqat oltin va kumush buyumlarning zo'r mahorat bilan bezatilishi, balki hashamatli binolarning bezaklariga ham oltin suvi yugurtirilishi diqqatga sazovordir. Bu davrda mis va uning qorishmalaridan yangi-yangi buyumlar paydo bo'ladi, to'g'ri to'rtburchakli burkashlar, shar shaklidagi yumaloq bo'yniga naqsh solingan ko'zalar, chiroyli siyohdonlar, havoncha va boshqalar kandakorlikning yuksak darajada rivojlanganligini isbotlaydi. Ko'p metall idishlarga har xil mazmundagi, masalan, shaxsni sharaflaydigan, omad, tan-sihatlik, baxt-saodat, farovonlik tilab yozilgan naqshli matnlar «kufiy» va «nasx» uslubida bitilgan. Rivojlangan feodalizm davriga oid (XIV—XV asrlar) Registon

maydoni yaqinida qazib olingan xazinalardagi turli-tuman idishlar, piyolalar, qopqoqlar, ko'zalar, qozonlar o'zbek kandakorligining yana ham rivoj topganligidan dalolat beradi.

Badiiy san'at kasblaridan misgarlik ham alohida o'rinni egallaydi. Sariq va qizil taxta mislardan turli idish-tovoq va xo'jalik buyumlari yasalgan, ular ko'pgina nozik o'yma naqshlar bilan bezatilgan. Misgarlikning boshqa metallozlik kasblaridan farqi shuki, misga tob berilmay, ya'ni o'tda qizdirilmay sovuq holda ishlov beriladi. Ammo misgarlar ichi chuqur mis idishlarning qismlarini bir-biriga yopishtirishdagina ularni qizdiradilar. Odatda misgarlik ikkiga taqsimlangan: yasash va bezash. Idishlarni bezovchi usta naqqosh misgar deb nomlangan.

Buyumlardagi naqsh kompozitsiyalarining har birida naqsh o'yish texnikasining turlicha usuli qo'shib ketgan bo'lib, ulardan naqsh qoidalarining mazmunini anglab olish mumkin. O'zbek naqqosh misgarlari yaratgan mis idishlardagi naqsh kompozitsiyalarning nihoyatda murakkabligi, mavzu va elementlarining rang-barangligi mazkur san'at sohasining uzoq tarixiy taraqqiyotni bosib o'tganligini ko'rsatadi. Masalan, idishlarga o'yilgan naqshlardan islami va namoyon nomli uslublarda yaratilgan o'nab naqsh turlari o'zbek naqqoshlik madaniyatiga xos bo'lgan klassik naqsh namunalardir. Bu naqshlar xalqimiz boshidan kechirgan ba'zi tarixiy voqealarni, uning dunyoqarashini va orzu-istaklarini, ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini ifodalaydi.

Ayrim elementlar va nomlarga qaraganda mahalliy ustalar-ning o'tmishda chet el vakillarining buyurtmalarini bajarganligi yoki o'z ishlarida ba'zan boshqa yurtlar uslubi va stillaridan foydalanganligi seziladi. Masalan, naqsh nomlari orasidagi islami mashhadi, islami arabi kabi atamalarning uchrashi chet mamlakatlardagi iste'molchilarning talab va didlari hisobga olinib, mahalliy ustalarining o'z san'atini boyitganligidan darak beradi. Ba'zi buyumlarda, naqshlardan afsonaviy tasavvur va e'tiqodlar bilan bog'liq turli jonivor (ilon, qush, hayvon, hasharot)larni ifodalovchi shakllarni ochiq sezamiz.

Hozirgi davrda esa misgarlik san'atiga yangicha mazmun va uslub: odamlar mehnat faoliyati, yulduz va o'roq-bolg'a, paxta guli va barglar, gerb va boshqa rasmiy tasviriy kompozitsiyalar kiritilgan. Ayniqsa, nozik o'yma naqshlarni qum'ona, jom, mischoy-nak, miskosa, mis piyola, mischilim, tung yoki mis ko'za (ko'pin-



cha qopqoqsiz, jo'mraksiz) va ko'zacha, mistovoqlarda uchratish mumkin. Ayrim nusxalarga tashqi tomonidan o'yama naqshlar bilan xat bitilgan, ichi oqartirilgan, ba'zan feruza yoki munchoqlar qadalgan.

O'zbek naqqosh misgarlarining leksikasida ishlatiladigan naqqosh elementlarining nomlari bu sohadagi yuksak san'atini va boy tarixini namoyish qilibgina qolmay, mahalliy elatning dunyoqarashi, madaniyati va turmush darajasini ham ifodalaydi. Masalan, ko'hna naqqosh elementlaridan quyidagi namunalar diqqatga sazovordir:

1. **Islimi naqqoshning turlari** — islimi arabi, islimi afshon, islimi bodombargi, islimi davron, islimi doira, islimi meva, islimi mug'ja, islimi mukarrariy, islimi tanob, islimi xovanda, islimi kavsi, islimi chorqubba, islimi humo va hokazo;

2. **O'simlik bargi va guli bilan bog'liq naqqosh nomlari:** bargi annos, bargi mushk, bargi bodom, tolbargi, gajakgul, guli afshon, guli nosira, guli sanjari, guli sarmugon, guli xurgid, guli tojixo'roz va hokazo;

3. **Idishlarga o'yilgan naqqosh turi madaxtil elementlarining nomlari** ham yuqoridagi qo'shimcha so'zlarga to'g'ri keladi;

4. **Boshqa turlicha namunalardan** atirgul, kurmak bulbul, bodomcha, naqqoshi ganja, naqqoshi gulxan, naqqoshi girdish, oy naqqoshi, o'rdakgul, naqqoshi sumbula, tugma naqqoshi, chekmagul, chor-taxt, yuldzgul, naqqoshi ko'zoynak, naqqoshi chorbuta, chashma zebor va hokazolar.

Mazkur atamalar nafaqat o'zbek tilining boyligi, balki bezak berilgan buyumlarning xilma-xilligi hamda san'atning yuksakligidan darak beradi. Masalan, turli o'simliksimon, geometrik va ramziy naqqoshlar bilan nafis qilib bezatilgan mis laganlarning lavxo'ri, do'lava va qoshig'lik turlari, yuz-qo'l yuvishda ishlatiladigan qumg'on, dastshuy va oftobalar, suv idishlaridan tung, satil va sarxumlar, nihoyatda keng tarqalgan mis choynak, mis ko'za, choydush (choyjuvsh), kashkil (mis choynak), selabcha, chilonchin, lufdon va boshqa uy-ro'zg'or asboblari ham misgarlikning muhim badiiy soha ekanligini ko'rsatadi.

Misgarlik kasbi har bir viloyatda o'ziga xos buyumlar va ularga beriladigan naqqoshlar bilan o'zaro farqlanadi. Masalan, qo'l yuvish uchun ishlatiladigan idish Buxoroda oftoba deyilsa, Samarqand, Toshkent viloyatlarida obdasta, Xorazmda qumg'on deb yuritiladi



«Momogul» folklor-etnografik ansambli qatnashchilari.




«Kamalak» folklor-etnografik ansambli qatnashchisi.



A. Qodiriy nomli Toshkent davlat madaniyat institutidagi «Chashma» folklor-etnografik ansambli.



«Qo'ng'iro't» folklor-etnografik ansambli.



«Momogul» folklor-etnografik ansambli foydalanadigan taqinchoqlar.



Qashqadaryo vohasi folklor-etnografik ansambllaridagi erkaklar kiyimidan namuna.



«Qizg'aldoq» folklor-etnografik ansambli qatnashchisi.



Folklor-etnografik jamoalarning ijodiy uchrashuvi.



«Nozamin» folklor-etnografik ansambli rahbari To'fa Pinxasova.



«Mohi sitora» folklor-etnografik ansambli rahbari Oliyaxon Hasanova shogirdi bilan.



Shahrisabzning hunarmand ayollari.



«Mohi sitora» folklor-etnografik ansambli.



Toshkent pedagogika kollejidagi «Toshkent sarchashmasi» folklor-etnografik ansambli.





Sergeli tibbiyot kollejidagi «Marvarid» folklor-etnografik ansambli.



A. Qodiriy nomli Toshkent davlat madaniyat institutidagi «Chashma» folklor-etnografik ansambli.



«Kamalak» folklor-etnografik ansambli.



«Kamalak» folklor-etnografik ansambli foydalanadigan kiyimlar.



A. Qodiriy nomli Toshkent davlat madaniyat institutidagi «Chashma» folklor-etnografik ansambli.



Folklor-etnografik jamoalarning ijodiy uchrashuvi.

va ular shaklan har xil bo'ladi. Tadqiqotchilar ta'rificha, ular qadimgi afg'on oftobalariga o'xshash nafis, ko'rkam va silliq pardozlangan. Xivada oftoba (qumg'on) lar yassi, bo'g'zi uzun va ingichka bo'lib, dastasi bo'lmaydi. Shahrisabz ustalari oftobalarga rangli oynachalar, rangli surgichlardan va sirlangan bo'yoqlardan gullar solishgan. Buxoro misgarlari yaratgan oftobalar bo'yi pastroq katta va ingichka bo'g'izli, gul solingan, og'zi qabariq bo'lib, kungurali qopqoqcha bilan berkitilgan. Qarshi oftobasining jo'mragi biroz yuqoriga egilgan holda tik o'rnatilgan. Buxoro misgarlari qarshi ustalari tayyorlagan oftobalar bo'g'ziga, jo'mragi atrofiga naqshlar, o'yma gullar, rangli oynalar, qorniga esa oq metallardan chiroyli bezaklar o'ygan. An'anaviy buyumlardan darveshlarning chelakka o'xshash idish (koshkin)lari chiroyli naqshlar bilan bezatilgan. Xon va beklar ovga chiqqanda ishlatiladigan do'mbir (dovu)lar ham ajoyib qilib bezatilgan. Har xil shamdon, o'sma to'shak, surmadon, qalam solinadigan mis manqaldon, mis kosa, sharbat kosa, mis qozonlar, cho'mich, kapgir va boshqalarga ajoyib naqshlar berilgan.

Buxoro, Samarqand, Xorazm, Qarshi, Shahrisabz, Toshkent, Farg'ona kandakorlik maktablari o'ziga xos milliy xarakterga ega bo'lib, ular bezak berish uslubi, shakli va ornamentlari bilan ham o'zaro farqlangan. Har bir maktab buyumlarining nafosatligi, go'zalligi, umumiyliigi bilan ham bir-biridan ajralib turgan.

O'zbek og'zaki ijodi namunalaridan, ayniqsa, ertak va dos-tonlarda temir va po'latdan yasalgan har xil keskich qurollar tilga olinadi. Shular ichida hozirgacha e'zozlanib kelinayotgan qurol pichoqdir. Qadimiy tosh davrdan mis va temir davrigacha pichoqchilik rivojlanib kelgan. Yonga osib yuriladigan pichoqlarning turli xillari Navoiy, Bobur va boshqa o'rta asr adiblarining asarlariga ishlangan miniaturalarda tasvirlangan. Afrosiyob, Varaxsha, Bolaliktepa kabi obidalarda topilgan devorga ishlangan rasmlardan ham pichoq uy-ro'zg'ordan tashqari harbiy qurol sifatida ishlatilganini ko'rish mumkin. Keyinchalik pichoqchilik kasbi rivojlanib, o'ziga xos maktablar yaratilgan. Qadimdan Farg'ona vodiysi, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent, Qashqadaryo maktablari mavjud bo'lgan. Tadqiqotchilar aniqlashiga qaraganda O'zbekistonda yigirmaga yaqin pichoqchilik markazlari bo'lgan. Ular o'zining ishlash texnologiyasi, yasash usuli, shakli, katta-kichikligi va bezaklar bilan o'zaro farq qiladi. Masalan, yasash usuliga

qarab chust (tus) pichog'i, Poytug' pichog'i, Qorasuv pichog'i, Shahrixon pichog'i, Qo'qon pichog'i, Xiva pichog'i kabilarga bo'lingan. Ma'lumki, hunarmandlar qadimdan bir-biri bilan uyushib, muayyan mahallalarda yashaganlar. Odamlarning kasbi nomi bilan mahallalar tanilgan. Hozirgacha katta-kichik shaharlarda yoki qishloqlarda pichoqchilik mahallasini uchratish mumkin. Chunki pichoq o'zbek oilalarida kesuvchi asbob sifatidagina ishlatilmay, butun mintaqada erkaklarning eng zarur ish quroli va hatto sarpo bezagi sifatida ham xizmat qilib kelgan. Bunday hol uning nihoyatda chiroyli bezalishini talab qilib, pichoqchilikni nozik naqshli san'at sohasiga ko'targan.

Andijon viloyatining Qorasuv qishlog'ida yaratilgan pichoq namunalari o'zining o'tkir tig'i va bejirim bezagi bilan O'rta Osiyoda mashhur bo'lgan. Qorasuvlik pichoqsozlar o'tmishda qilich, xanjar, shop va pichoq yasashda nom qozonganlar. Chust ustalari yasagan pichoqning dastasi hamda tig'i uzunroq bo'lib, tig'ining tashqarisiga, dastasining uchi ichkariga tomon qayrilgan va o'ziga xos bezatilgan. Xiva pichoqlari o'z shakllarini nozikligi, bezakdorligi, metalning mohirona qayta ishlanganligi, tig'i yuzining islmiy naqshlar bilan bezatilganligi, «qinbog'i»ning badiiy naqshlari bilan mashhur. Shahrixon va Qo'qon ustalari yaratgan pichoqlar suqma sopli, tig'i katta hamda qalin, ixcham, dastasi sarbastali, gulsiz yoki kamgullidir.

Zargarlik ham eng qadimiy zeb-ziynat yaratadigan hunarmandlik sohasi hisoblanadi. Arxeologik kashfiyotlar juda ko'p sonda turli xildagi zargarlik buyumlarini fanga yetkazib bergan. O'zbek zargarlari yaratgan mahsulotlar assortimenti ko'p va xilma-xil, ayrimlari nihoyatda noyob san'at durdonalaridandir. Asrimiz boshlarida mahalliy ustalar yaratgan ajoyib bezaklardan turli xildagi ziraklar, uzuk, bilaguzuk, sochpopuk, bargak, zebigardon, bargoh, tillaqosh, tumor, bo'yintumor, paranjitugma, shingila kabilar zo'r mahorat bilan yasalgan.

Zargarlar ishlab chiqaradigan zeb-ziynatlarni foydalanishiga qarab barmoqqa, quloqqa, ko'krakka, burunga, qo'ltiqqa, chakkaga, peshonaga, boshga, sochga, belga taqiladigan bezaklarga bo'lish mumkin. Masalan, o'tgan asrda yasalgan Farg'ona vodiysi bezak ahyolaridan bo'yinga taqiladigan kundalli bargak, peshovuz, ayollar sochlariga taqadigan nuqra dumbuq yoki tilla chachvon,

peshonaga taqiladigan tillaqosh, peshona gajak, biqinga taqiladigan tashhadil yoki tumor, chakkaga taqiladigan tilla gajak kabilar shular jumlasidandir. Ular O'zbekistonning maishiy turmushi naqadar rang-barang ekanligini ko'rsatadi. Bu fikrni tasdiqlash uchun yana bir misolni keltirish mumkin. Farg'ona zargarlari yaratgan uzuk, ziraklar turlarini eslaylik: uzuklardan afg'oncha uzuk, rumcha uzuk, ayriband uzuk, qozoqcha uzuk, o'rama uzuk, tanga ko'zli uzuk, xoji uzuk va hokazo. Ba'zi zeb-ziynatlar bir umr yechilmasdan taqib yurilgan. Zirak yoki isirg'a turlaridan kanozira yoki tatarcha zirak, turkistonzira, turkistonbaldoq, zulukzira, qo'ng'iroqli zira, qashqar baldoq, ko'zlik zira, oy baldoq, Farg'ona baldoq, Toshkent baldoq, arava baldoq, shardiroy baldoq, anjir baldoq va hokazolar ham o'zbek xotin-qizlarining estetik jihatdan yuksak didli ekanligini namoyon qiladi. Boshqa zeb-ziynat buyumlarining turlari ham mahalliy aholining turmush madaniyati va dunyoqarashini aniqlashga yordam beradigan namunalardan. Zargarlikda bezak ashyolari o'yma va qolip usulida yasaliq, turli rangdagi toshlar, marjon, shisha, sadaf kabilarni o'rnatish yo'li bilan bezatilgan. Javohirlar zargarlikda qimmatbaho tosh hisoblanib, o'zining chiroyilligi, rangining tiniqligi, bir xilligi, yaltiroqligi, tovlanishi, qattiqligi, turli xilda o'zgarishi kabi xususiyatlarga ega. Zargarlik san'ati, ayniqsa, Buxoro va Xivada mashhur bo'lgan. Bu yerda hozirgacha tanilgan zargar ustalar ishlab shogirdlar yetishtirmoqdalar. Ko'p shaharlarda zargarlik sohasi tiklanmoqda. Zamonaviy texnika bilan jihozlangan zargarlik fabrikalari keyingi vaqtlarda Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon va boshqa shaharlarda paydo bo'lgan.

Bizning davrimizgacha yetib kelgan eng muhim amaliy san'atlardan biri badiiy to'qimachilik va kashtachilikdir (kashtado'zlik). Bunday hunarmandchilik sohalari Marg'ilon, Buxoro, Samarqand, Qarshi, Kitob, Xiva, Toshkent kabi shaharlarda ancha rivojlangan. O'zbek to'qimachilari ikki xil badiiy gazlama to'qiganlar: paxta ipi va yarim ipakdan yo'l-yo'l matoli hamda rang-barang ipak gazlamalar. Shulardan eng ko'p tarqalgani yo'l-yo'l arqoqi paxta ipidan to'qilgan ipak asosli beqasam, eski Farg'ona (Xo'jand) naqshli binafsha, yashil va oq aralash, qisman to'q qizil va sariq rangdagi gazlama. Ko'k va to'q yashil beqasam Farg'ona va Toshkentda keng tarqalgan.



Rangli ipak gazlamalardan hozirgacha eng sevimli bo'lgani xonatlas nafaqat O'zbekistonda, balki butun O'rta Osiyo va chet ellarda ham katta obro'ga ega. Uning bezaklari doimo o'zgarib, boyib turgan. Keyingi yillarda atlasning go'zalligi va rang-barangligi shuncha boyib ketdiki, uning ayrim nusxalarini alohida ajratish qiyin. Xonatlas to'qimachiligida davr talabiga qarab muayyan mazmunda turli naqshdagi gazlamalar yaratilgan. Ammo barcha naqshlarning asosi har xil o'simlik elementlari, geometrik bezaklar, to'q qizil va ko'k-yashil, sariq va oq ranglarning aralashmasidan to'qilib, o'ziga xos go'zallik kashf etadi. Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida asosan to'q yashil va oq-sariq naqshli qizil rangdagi atlasni afzal ko'radilar. Hozir o'zbek ustalari atlasning shaxmat atlas, tovus nusxa kabi yangi xillarini hamda kanauz tipidagi ipak gazlamalarini ko'plab ishlab chiqarishmoqda.

Qadimiy to'qimachilik mahsulotlaridan hozirgacha nihoyatda keng tarqalgan va uzoq ellarga manzur bo'lgan juda ham chiroyli turli naqshli shohi choyshablar va yopinchiqlar, ajoyib bezakli dasturxon va so'zanalar amaliy badiiy san'atning yorqin namunalaridir. Ayniqsa, chitgarlar yaratgan bosma gulli gazlamalar, choyshablar va boshqa uy-ro'zg'or bezaklari kishini o'ziga maftun qiladigan darajada yuksak did bilan yaratilgan. Ajoyib rangbarang gullar va naqshlar tushirilgan gazlamalarga bosiladigan yog'och qoliplarni mahalliy naqqosh ustalar yaratganlar. Chitgarlik san'ati uzoq davrlardan saqlanib kelgan.

Badiiy kashtachilik ham o'zbeklarda qadimdan tarqalib, eng sevimli kasb hisoblanadi. Kashtachilik kasbini bilmaydigan oila yo'q desa bo'ladi. O'zbek kashtachiligi bezak buyumlarining an'anaviy turlari juda ko'p. Masalan, palak choyshab, ko'zguxalta, choyxalta, zardevor, gulko'rpa, parda, belbog', yostiqlik ustiga yopiladigan taqyapo'sh, do'ppi, ko'ylak, dastro'mol, joynamoz, nimcha, mahsi, kavush va boshqalar zo'r badiiy did bilan bezatilgan buyumlardir. O'zbek ustalari ishlatadigan kashta usullaridan to'ldirib gul solib to'qiladigan bosma, kandaxayol, iroqi, zanjir kashta, takdo'zi va hokazo orqali yaratilgan ajoyib mahsulotlar hozir ham keng tarqalgan. Keyingi vaqtlarda tikuv mashinasida har xil devorga osadigan bezaklar, turli choyshab, belbog', dasturxon, jiyaklar, yo'laqlar va boshqa uy jihozlari maishiy turmushni bezab kelmoqda. Mohir o'zbek kashtachilari yaratgan go'zal so'zana, zardevor, gurko'rpa, choyshab kabi san'at buyum-

lari Germaniya, AQSh, Belgiya, Hindiston kabi xorijiy mamlakatlarning muzeylarida doimiy ekspozitsiyalarga aylanib qolgan.

Qo'lda va mashinada to'qilgan so'zanalar zanjir kashta yoki kergi chamberak usuli bilan juda guldor qilib yasalgan. So'zanalarni devorga osganlar, choyshab qilib ko'rpa-to'shak va taxmon-to'kchalarga yopganlar. So'zanalar asosan yirik shaharlarda to'qilgan, ammo ayrim viloyatlarda o'ziga xos uslub va naqshlar yaratilgan. Tikuv mashinasi kashtachiligi bilan hozir juda ko'p ustalar shug'ullanmoqda, ularning mahsulotlari yangi mazmunda, hatto peyzaj va me'morchilik naqshlari bilan kashtalangan. Nikoh to'ylarida kelin-kuyovlar uyi va ko'rpa-to'shaklari so'zanalar bilan to'la bezatilgan. Qadimiy analarga ko'ra, o'zbek qizlari — bo'lajak kelinchaklar o'zlarining seplari (har xil kashtachilik buyumlari)ni o'zlarini tayyorlashi lozim bo'lgan. Kashtalar qanchalik nozik va chiroyli bo'lsa, qayliq shunchalik yuqori baholangan. Qizlar 7—8 yoshidan boshlab kashta tikishga o'rgatilgan.

Do'ppi kashtachiligi o'zbek xalqining g'ururi hisoblanadi. Boshqa amaliy san'at sohalari singari do'ppisozlikda ham har bir joyning o'ziga xos uslub va naqshlari o'zaro farqlangan. Bugun O'zbekiston va qo'shni o'lkalarda mashhur Chust do'ppisi o'zining shakli, odmi uslubi, markaziy qalampirli ornament, qora va oq naqshlarining mutanosibliigi bilan xarakterlidir. Daraxt ko'chati va barglarini eslatadigan erkin, ko'p rangli naqshlar, ipak bilan kashtalangan do'ppilar ajoyib san'at namunalaridan hisoblanadi. Shahrisabzda to'la va boy naqshlar bilan bezatilgan ochiq rangli do'ppilar, Qarshi, Boysun, Chelak va boshqa tumanlarda tarqalgan kashtali o'ziga xos naqshli qavim qilib to'qilgan piltado'zi alohida ajralib turadi. Xorazm do'ppi (tax'ya)lari ham o'zining kashta uslubi, shakli va naqshlari bilan alohida o'rinni egallaydi.

O'zbekistonda hozircha Toshkent, Chust, Samarqand, Boysun, Shahrisabz do'ppilari mashhur bo'lib, ular o'ziga xos naqshlar bilan bezatilgan. Do'ppilarning milliy turlari asosan iroqi, chust do'ppi, gilam do'ppi, qizil gul, piltado'zi, zardo'ppi deb nomlangan. Do'ppi tikishda keyingi yillarda yangi mazmundagi naqshlar paydo bo'lmoqda. Masalan, zo'r kashtakor ustalar «kanal», «samolyot», «parashut», «kaptar» kabi naqshlar, ism va raqamlar bitilgan do'ppilarni tikib sotuvga chiqargan.

Har qaysi badiiy-amaliy san'at kasbi zarardo'zlik singari katta obro' va hurmatga ega bo'lmagan. Bunday serhasham san'at

namunalari uzoq o'tmishda juda ko'p tilga olinib kuylangan Arxeologik va tarixiy ma'lumotga qaraganda, O'rta Osiyoda zarbof kiyimlar va bezakli badiiy buyumlar eramizning birinchi asrlaridan ma'lum. Masalan, Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida qazib topilgan ayol kishining zarbof kiyimi I—II asrlarga oid. O'rta asr yozma manbalaridan Abdurazzoq Samarqandiyning «Hindiston safarnoma»sida 1442-yili Shohruh zamonida Hindiston bilan Hirot orasida turgan elchilarning sovg'alari ichida zarbof kiyimlarining bo'lganligi to'g'risida xabar bor. O'sha davrga oid «Ishratxona» maqbarasi haqidagi hujjatlarda zarbof kiyimlar haqida bayon etiladi. Hirotlik shoir Vasiyning risolalarida ham zarbof kiyimlar va zardo'zlik kasbi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. XVII asrda yashab ijod etgan atoqli Samarqandlik shoir Fitrat asosan zardo'zlik bilan shug'ullangan, u kiyim va matolarga zardan ajoyib kashtalar tikkan.

Asrimizning boshlariga kelib zardo'zlikning o'ziga xos maktablari Buxoro, Samarqand, Farg'ona va boshqa joylarda yaratilgan. Chiroyli qilib bezatilgan qimmatbaho matodan tikilgan zardo'zi sarpolar mahalliy aholining turli tabaqalari o'rtasida keng tarqalgan. Bu kiyim-kechaklar asosan zodagonlar, amir saroyidagilar va boy tabaqalar uchun yuzlab qo'ligul mohir ustalar tomonidan tiktirilgan. Ota-bobolarimizdan meros bo'lgan bu kasb egalari zardan bezatilgan kamzul, chakmon, chalvir, belbog', salla, do'ppi, quloqi va poyabzal tikkanlar. Tadqiqotchilarning ta'rificha, hech kim, xatto eng katta amaldorlardan birortasi ham mazkur sarpolarni o'ziga buyurtirib kiyishga haqi bo'lmagan, ular amir tomonidan sovg'a sifatida in'om qilingan. Zarbof kiyimlarni xon yoki uning yaqinlari tomonidan bironta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan tayyorlash buyurilgan va keyin sovg'a sifatida in'om qilingan. Buxoroda to'ntarishgacha hukmdorlik qilgan mang'itlarning oxirgi sulolasiga oid zarbof kiyimlar muzeylarda saqlanmoqda. Zardo'zlarning g'oyibona homiysi Hazrati Yusuf pir hisoblanib, u to'g'ridagi afsona va rivoyatlar maxsus risolada hikoya qilinadi. Bizning zamonamizgacha faqat Buxoroda saqlanib kelgan bir noyob amaliy bezak san'ati namunasi xonlik davrida podsho saroylarida maxsus do'konlarda ishlatilgan. Vana davrida Buxoroda 350 ga yaqin zardo'z ustalar bo'lgan. Hozir zardo'zlikni badiiy san'at korxonalarida mohir ustalar davom ettirmoqda. Zardo'zlik uch xilda bo'ladi: umumiy ko'rinishi yoppasiga

ya'ni kashtalangan, ya'ni zamindoz va maxsus qalin qog'ozni matoda ustiga qo'yib gul (naqsh) berilgani hamda rasm ustiga yalpi zar to'qilgani, ya'ni guldoso'zi. Zardo'zlik mahsulotlari asosan an'anaviy o'simlik ornamentlari bilan bezatilgan, ammo zamonaviy tashkiliy yulduz, paxta guli kabi naqshlar ham uchraydi. Shu bilan birga mohir ustalar tematik katta pannolar ham yaratgan.

O'ziga xos kashtachilik san'atini tashkil qilgan ipak hamda zar tasma va jiyaklar ilgari ko'plab ishlab chiqarilgan. Ular naqshlari to'qilish yoki tikish jarayonida bitilgan, ba'zilar yaxlit matoga tushirilgan.

O'zbek hunarmandchiligida, ayniqsa keyingi yillarda qayta tiklanib rivojlangan boshlagan badiiy-amaliy san'at sohasidan gilamdo'zlik uzoq tarixiy an'analarga ega. Gilam va sholcha to'qish, arxeologik ma'lumotlarga qaraganda, eramizdan avvalgi I ming yillik davrlaridan bizgacha yetib kelgan kasb bo'lib, uring markazi Andijon, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazmda joylashgan. Serhasham gullar bilan bezatilgan o'zbek gilam va sholchalari sakkiz-to'qqiz bo'yqli rangda bo'lib, shulardan eng ko'p ishlatiladigani to'q va ochiq qizil rangdir. Ilgari mahalliy gilamdo'zlar gilam va sholchadan tashqari naqshli bezatilgan xurjun, osma xalta va boshqa buyurtma mahsulotlar ham to'qilganlar.

Tadqiqotchilarning fikricha, O'zbekistonda asosan uch xil gilamdo'zlik maktablari ajralib turadi: Samarqand, Andijon, Xorazm. Andijon gilamlari o'zining chidamliligi, pishiqligi, aniq qizil-ko'k ranglari va gullari bilan farq qiladi. Farg'onada to'q ko'k va geometrik naqshli, qisqa tukli, chetiga alohida-alohida naqshlar ishlatilgan gilamlar to'qilgan. Bu maktabga kiradigan Buxoro gilamlari o'zining rang-barangligi, uzun patililigi, kattaligi va chiroyli naqshlari bilan ajralib turadi. Dastgohda to'qilgan bunday gilamlar o'zining chidamliligi, nafisligi, tabiiyligi va sifatiligi bilan ko'zga tashlanadi. Unda hoshiyador estetik jihatdan chiroyli, qalqon deb nomlangan turunj naqshi ko'proq ishlatiladi. Xiva, Urgut, Qarshi va boshqa joylarda tayyorlanadigan to'qima gilamlar o'zining geometrik o'simliksimon naqshi, bejirmiligi, tabiiyligi va zo'r sifati bilan mashhur. Gilamning to'qima, tikma va bosma xillari bo'ladi. O'zbek gilamlari asosan to'qima xilda ishlangan. Ular yopiq holda o'rnatilgan pastak oddiy dastgohda tikuvchi ayollar tomonidan tuya tiviti, qo'y juni, paxta tolasi va

ipakdan tayyorlangan. XIX asr oxirlarigacha gilam to'qishda o'simliklardan tayyorlanadigan bo'yoqlardan, hozir esa kimyoviy usulda tayyorlangan bo'yoqlardan foydalanilmoqda.

O'zbekistonning chorvachilik rivojlangan tumanlarida qadim zamondan kigiz bosish amaliy san'ati keng tarqalgan. Mahalliy aholi kigizni ilgari yerga bo'ya (chipta) ustiga solishgan, o'tovlarni o'rashgan, qalpoq, piyama, ayrim hollarda badiiy buyum sifatida ishlatilgan. Guldor, chiroyli kigizlar oq, qizil, qora rangdagi naqshlar bilan bezatilgan, ba'zan gulsiz bosilgan. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida qora qo'y va chaydim kigizlar, Xorazmda taqyanaman xillari ma'lum. Kigiz qo'yning kuzgi junidan yoki echki junidan tayyorlangan. Jun titib tozalangan, yuvib quritilgan, so'ng maxsus savagichlar bilan titilib, rangi va sifatiga qarab yuzlik va oraliqqa saralangan. Tanlab ajratilgan jun yuziga maxsus rang bilan to'qilgan mayin junlardan shoh yulduz, romb, bulut va oddiy geometrik shakldagi naqshlar bilan kigiz bosiladi. Kigizni maxsus chiy sholcha yoki qalinq matoga o'rab arqon bilan mahkam bog'lab ustidan tez-tez qaynoq suv sepib ko'p marta dumalatiladi. Uni uch-to'rt kishi o'tirib qo'lda dumalab, uqalab tayyorlaydi. Hozir kigizlar maxsus mashinalarda ishlab chiqarilmoqda. Kigizchilikda ishlatiladigan murakkab naqshlardan gajara uslubi, Samarqandda beshkamta uslubi keng tarqalgan. Hozir ham bezakli, bir necha rangga bo'yalgan junlardan ajoyib kigizlar bosib chiqarilmoqda.

Badiiy amaliy san'atning noyob turlaridan biri hisoblangan savat to'qish ham o'zbekning azaliy hunar-kasbi bo'lgan. Savat va bo'yani ota-bobolarimiz qadimdan tomorqa va hovli atroflaridagi ariq va ko'llarda o'sadigan qamishlar, shoh-shabba va har xil novdalaridan to'qiganlar. Ular o'zining shakli va ishlatilishiga qarab har xil nomda bo'lgan. Masalan, qadimdan kajava savat, guldor savat, non savat, elama savat, dasturxon savat, uzum savat, to'r savat, bosma savat kabilar to'qilib, maxsus do'konlarda sotilgan. Har xil shakl va hajmdagi savatlar turli maqsadlarda foydalanilgan. Qurilishda yirik novdalaridan to'qilgan maxsus savatlar tuproq, qum, ganch, g'isht, tosh tashishda, nozik novdalaridan to'qilganlari esa meva-cheva, non va boshqa narsalar solishda ishlatilgan. Savat to'qishda eman, terak, tol, turangil, yulgun novdalari yoki qamish, bug'doypoya kabi materiallardan foydalanilgan. Ayniqsa, qoratol novdalaridan to'qilgan savatlar ancha chidamli bo'lgan.

Bo'yarchilik san'ati mahsulotlaridan ham uy-ro'zg'or ishlari-da keng foydalanilgan. Bo'ya gilam, namat, palostlar tagidan tolingan, to'y va marosimlarda, mevalarni quritishda va saqlashda ishlatilgan. Undan, shuningdek qop o'rnida, derazalarni qorong'ilatishda parda o'rnida, dafn marosimida, imorat tomini yopishda (lo'mboz bosishda) va boshqa hollarda foydalanilganlar. Shaharlarda va katta qishloqlarda bo'yarchilar mahallalari bo'lgan. Masalan, Buxorodagi Olimxo'ja mahallasida 120 ta oiladan 70 tasi bo'ya to'qish bilan shug'ullangan. Bo'yarchilar turli nomlar bilan yuritilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zbek xalqi uzoq tarixiy taraqqiyotda har tomonlama rivojlanib kelayotgan ko'p qirrali va boy analarga ega amaliy bezak san'ati nihoyatda rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib, bemsil va betakror namunalari yaratib kelgan. Badiiy tafakkur va shu bilan birga shakillanib kelgan badiiy ijod o'zbek milliy hayotining muhim sohasi hisoblangan xalq amaliy san'atida ayniqsa namoyon bo'ladi. Milliy estetik ta'b va didning o'ziga xosligi nafaqat mazkur sohada, balki musiqada, raqslarda, milliy kiyim va bezaklarda, me'morchilik qurilishlarida, rassomchilikda va boshqa ma'naviy madaniyat sohalarida o'z ifodasini topgan.

O'zbek milliy bezak san'atining gurkirab rivojlanishi va doimio takomillashishi jahonga mashhur me'morchilik obidalarimizdagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, tosh-tashlik, kashtachilik va boshqa turlarining afsonaviy darajada uyg'unlashgan mujassamligida o'z ifodasini topgan. Xalqimizning tabiiy iste'dodi va katta mehnati tufayli paydo bo'lgan ajoyib me'morchilik va xalq amaliy san'ati yodgorliklari bo'lmish ajdodlarimiz yaratgan barkamol, bebaho va noyob san'at asarlarining namunalari o'zbek xalqining jahon madaniyatiga qo'shgan zo'r hissasi desa bo'ladi. Ayni zamonda mazkur an'anaviy san'at yangi turlar va sohalar bilan boyimoqda. Ayniqsa, amaliy san'at bezagi bilan bir qatorda yangi mazmun va shakllarda o'z ifodasini topgan tasviriy san'atning gurkirab o'sishi diqqatga sazovordir. Respublikamizning mustaqillikka erishib istiqloq yo'liga o'tishi nafaqat xalq amaliy san'ati, balki barcha san'at sohalari, shu jumladan tasviriy san'atda ham taraqqiyotimizning yangi darajasiga ko'tarilib yanada yuksak samaralarga erishish imkoniyatini yaratib bermoqda.



## XX ASR O'ZBEKISTON AMALIY-BEZAK SAN'ATIDA FOLKLOR MAVZULARI TALQINI

Folklor mavzulari XX asr O'zbekiston amaliy-bezak san'atida boy va xilma-xil. Ular xalq og'zaki ijodi va musiqiy merosining qadimiy an'alarini yoritgani bois, xalq hunarmandchiligining hamma sohalarida uchraydi:

1. An'anaviy o'simlik tasvirlari — «guldasta», «g'unchagul», «lolagul», «bodomgul», «qalampir», «isiriq», «anorgul» va b.
2. Geometrik naqshlar — «aylana», «ko'pburchak», «to'rtburchak», «uchburchak», «egri-bugri» va b.
3. Hayvonot olami va ularning ba'zi turlari bilan bog'liq naqshlar — «baliq», «zuluk», «oltin qo'ng'iz», «humo qushi», «qo'chqor sboxi», «echki izi», «ilon izi», «chashmi bulbul» (bulbul ko'zi), «dumi burgut», «dumi baliq», «qanoti boyqush», «tog'echkisi shoxi» va b.
4. Maishiy buyumlar bilan bog'liq naqshlar — «pichoq», «tumorch», «pichoq qini», «chovgun», «oftoba», «kalit» va b.
5. Fazoviy naqshlar — «bulut zanjiri», «naqshi oftobi», «oy barg», «yulduz» va b.
6. «Qur'on», «Hadisi-sharif»dan baxt va omad tilovchi arab va kirill imlosidagi matnlar.

O'zbekistonning zamonaviy hududida, tarixiy davr mobaynida bir necha madaniy qatlamlar vujudga keldi. Qadimgi davrlardan davom etib kelayotgan tasvirlar turli dinlarning (zorastrizm, budizm, xristianlik, islom) ta'sirida ma'nosini boyitib, ma'no jihati-dan sayqallanib bordi, naqshlar zaminida ham asrlar davomida shakllangan folklor unsurlari namoyon bo'lib bordi. Islom tarqalgach, ularga, arab imlosidagi diniy-falsafiy ma'nodagi yozuvlar hamrohlik qila boshladi.

O'zbekiston amaliy-bezak san'atidagi folklor mavzulari, XX asr davomida ko'proq xalq hunarmandchiligining mahalliy maktablarida to'laqonli aksini topdi.

Amaliy-bezak san'ati zaminini xalq hunarmandchiligi tashkil qilgani bois, unda mahalliy xalqning urf-odat, marosim, bayram, diniy va dunyoviy dunyoqarashlari bilan bog'langan tasvirlar, doimo ramziy ohangda, yetakchi mavzu sifatida talqin etib kelingan. Mahalliy xalqning yil fasllari, urf-odatlari bilan bog'liq marosimlarda aytiladigan aytishuv, ertak-laparidagi asosiy qahramon — inson, tabiat va koinot bo'lib qolaverdi. Ularda dastlab, dunyoning paydo bo'lishi, tabiat hodisalarini ilohiylashtirish tarannum etilsa, davrlar osha ular orasidagi bog'liqlik avval diniy, keyin falsafiy tarzda namoyon bo'la bordi. XX asr davomida O'zbekiston hunarmandchiligi va amaliy-bezak san'atidagi folklor mavzularini qiyosan o'rganishdan, shunday xulosaga kelindi-ki, ularning zaminini diniy-falsafiy dunyoqarash bilan uzviy bog'liq ekan. Unda yerdagi o'simlik, hayvonot olami, diniy ahamiyat kasb etgan ramziy tasvirlar va koinot ramzi, inson tabiatning zarrasi ekani va ruh abadiyligini ifoda etadi.

## KIYIM-KECHAK, SARPO, BEZAKLAR VA PARDOZLAR

O'rta Osiyo xalqlarining kiyim-kechaklari ko'p asrlik tarixga ega. Har bir elat va etnik guruhlarining o'ziga xos xususiyati boshqaroq kiyimlari bo'lsa-da, mintaqada yashovchi etnoslar umumiy xarakteridagi sarpo mavjudligi, ularning tarixiy taqdiri, madaniyatni uzoq davr o'zaro yaqin bo'lganligidan dalolat beradi. Arxeologik qazishmalardan topilgan qadimiy devoriy rasmlar, har xil buyumlarga tushirilgan tasvirlar, o'rta asrlardagi kitob miniaturalari ajdodlarimizning o'tmishdagi kiyim-kechaklari to'g'risida boy ma'lumotlar beradi. O'rta asrlarga oid miniaturalar o'zbek kiyimlarining tipi shakllanganligi va ular keyingi davrgacha saqlanganligini isbot qiladi. Eski xalq kiyim-kechaklaridagi o'zgarishlar asosan XX asr boshlarida sezilarli ravishda namoyon bo'ladi va undagi transformatsiya asosan shaharlarda ochiq-oydin ko'zga tashlanadi.

Ishtonni ham eski ko'ylakdek bir parcha gazlamani ikkiga bo'lib, oldi va orqasidan tikib, og'ini yopishtirilgan. Erkaklarining ishtoni ayollarnikidan uncha farq qilmagan. Ularning bichimi bir bo'lsa-da matosi har xil, ya'ni yo'l-yo'l gazlama yoki ipak matodan bo'lib, erkaklarnikiga nisbatan uzunroq, pastki qism (tasma) bilan bezatilgan. Ayollar ishtoni (lozim) ilgari ikki qismdan: yuqori qismi oddiy matodan, pastki qismi qimmatbaho matodan (ba'zan ko'ylakka moslashtirib) tikilgan, pochasiya jiyak tikilgan.

Umuman olganda, erkaklarning ko'ylak-ishtoni odatda bir rangda (asosan oq), ayollarniki rang-barang materialdan tikilgan. XIX asrning oxirlarigacha kiyim-kechaklar mahalliy kosiblar to'qilgan mato — (bo'z, kalomi, alacha)dan tikilgan, keyin rus fabrikantlari mahsulotlaridan tikila boshlangan (ayollarga gulli chitidan, erkaklarga oddiy oq chitidan). Hozirgi davrda milliy va ovro'pacha kiyimlarning turlari nihoyatda ko'p. Ayniqsa, keyingi

paytlarda o'zbek ayollari yaltiroq kumush tilla ipli gazlamalardan zamonaviy modaga moslashtirib kiyim tikirib kiyimoqda. Ichki kiyimlar butunlay yangicha trikotaj va sun'iy matolardan tikilgan fabrika mahsulotidan iborat. Ammo hozirgacha ayollarning eng sevimli va keng tarqalgan kiyimi rang-barang, chiroyli xonatlas va boshqa yupqa ipak matolardan tikiladi.

O'zbek xalqining milliy ramzi sifatida saqlanib kelayotgan ustki kiyim — chopon (to'n) shu kungacha katta hurmatda. Chopon ochiq yoqali yaxtak shaklida astarli va paxtali qilib tikilgan. Chopon uzun yengli, yuqori qismi keng, pastki tomoni torayib ketgan, ayrimlarining etagi, o'ng va so'l tomonida qiyiq joyi bo'lgan, yerda o'tirishga qulay. Odatda choponning belbog'i bo'ladi, unga erkaklar pichoq (qini bilan) osib yurganlar. Chopon asosan paxtali, qavilgan, ayrim joylari juda mayda qaviladi (Xorazmda), pishiq qattiq bo'ladi. Yozgi choponlar qavilmagan (avra-astar chopon) yoki umuman astarsiz (avra chopon) ham bo'lgan. Namanganda dala ishlarida oq matodan yupqa qavilgan kalta chopon kiyiladi, u issiqdan saqlaydi. Surxondaryo va Zarafshon bo'ylarida o'nashgan yarim ko'chmanchi o'zbeklar-da ham tizzagacha keladigan astarsiz kalta (avra) chopon ko'p uchraydi.

O'zbek choponlari rangi, uzunligi, kengligi va kiyish uslubiga qarab har joyda har xil bo'lgan. Masalan, Buxoroda, Qashqadaryo, Surxondaryo va Zarafshon vodiylarida uzun va keng, uzun yengli, paxta yoki yarim ipak rangli matodan tikilgan chopon, Farg'ona va Toshkentda yashil yoki ko'k-yashil chopon kiyish odat bo'lgan. XX asr boshlaridan qora satindan tikilgan chopon keng tarqalgan. Yoshlar orasida bayram libosi sifatida ochiq rangli yo'l-yo'l beqasam to'n moda hisoblangan. Qishloq joylarda bunday chopon kuyov sarposiga kirgan. Biroz tor va kalta, kamar yo'lli naqsh berilgan yaltiroq alachadan tikilgan Xorazm choponi qadimdan keng tarqalgan. Choponni yaktak ustidan kiyib belbog' osish asosan Farg'ona vodiysida odat bo'lgan, boshqa joylarda belbog'siz yaktakchasigina kiyilgan.

Ayollarning o'ziga xos chopon shaklida bichib tikilgan ustki kiyimi mursak ilgari juda ham keng tarqalgan. Ular Buxoro, Xorazm va Qashqadaryoda yengli tirsakkacha kalta va kengligi bilan, Samarqand va Toshkentda uzun, ensiz, bilakkacha bo'lgan yengli bilan farqlangan, xolos. Mursak astarli qavima qilib tikilgan,

qishki mursakka paxta solingan. XX boshlarigacha u oddiy ko'chalik libosi sifatida kiyilgan bo'lsa, keyinchalik mursak motam libosi sifatida belbog' bilan kiyilgan. Ayrim ayollar uni to'yga yoki mehmonga borganda ham kiyganlar. Hozirgacha Toshkentda mursakni dafn marosimida tobut ustiga yopib qo'yadilar.

XX asrning 30-yillarigacha o'zbeklarda, ayniqsa shahar aholisi orasida ayollar paranni yopinganlar. Paranni soxta yengli, to'nimon, uzun yopingichdan iborat bo'lib, otning dum qilidan to'qilgan to'r parda chachvon betga tutilib, ustiga paranni yopilgan Chachvon yuzni bekitib, beigacha yopgan. Uni, odatda, uydan ko'chaga chiqqanda yopinganlar. Qishloq joylarda parannini kam ishlatganlar, bayramlarda va uzoq safarga chiqqanda yopinganlar. Ba'zan qishloqlarda ayollar uydan chiqqanda bola choponi yoki oq bekingich bilan yuzlarini bekitganlar. Shahrisabzda va Samarqand viloyatida yarim ko'chmanchi o'zbek qabilalari yo'l-yo'l matodan tikilgan chopon (jelak) yopinganlar. Uzun va tor soxta yengli yopingich ja'dani Xorazm ayollari kiygan. Bunday yopingich Surxondaryo va Samarqand viloyatlarida ham uchraydi.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ovro'pacha kamzul (kamzur) paydo bo'lib, uni erkaklar ham, ayollar ham kiyishgan. Erkaklarning kamzuli tik yoqali, uzunligi tizgacha yetadigan, asosan qora matodan tikilgan, ayollarning kamzuli rang-barang duxobadan yoki beqasmdan tor belli qilib tikilgan. O'sha davrda butun O'zbekistonda yengsiz jiletka ham tarqala boshlagan, uni ko'ylak ustidan yoki kamzul ustidan kiyganlar. Ingliz kastumi tipidagi jaket ham, ovro'pacha kastum, palto va makentosh ham do'konlarda paydo bo'lgan yoki tikuvchi usta (chevar)lar buyurtma asosiga tikib berganlar. Ziyolilar orasida zamonaviy moda kiyimlar tez tarqala boshlagan.

Qadim davrlardan bosh kiyimiga qarab o'zbeklarning etnik va lokal guruhlari farq qilingan. Erkaklar boshiga asosan turli xildagi do'ppi (to'ppi, taxyo) kiygan, ayollar esa ko'pincha rang-barang ro'mol yopingan. Do'ppining dastavval taguni va gardishi (qizagi)ni ayrim holda tikib kashtalaganlar va mayda qavib qo'shib tikkanlar. Odatda, do'ppiga nozik qadab gul tikiladi. Bunday do'ppilar nozik do'ppi deb ataladi. Ayrim ayollarning do'ppisiga mayda munchoq, marjonlar, xorazmliklarda jiyak va popuk taqiladi. Ilgari konus shaklidagi do'ppilar Toshkent, Samarqand, Shahrisabzda tarqalgan, endi esa Shahrisabzda saqlangan. Biroz

ypaloq yassi shaklda ichiga qog'oz o'rab mayda qaviq qilingan do'ppilar asosan Farg'ona vodiysida ma'lum. Ayniqsa «bodom» yoki «qalampir» naqshli oq ipak ip bilan tagi qora matoga kashtalangan Chust do'ppi nafaqat vodiya, balki undan tashqarida ham mashhur. Tagi kashta qilinib, rang-barang barggul shaklidagi Xo'jand-O'ratepa do'ppilari butun O'zbekistonga tarqalgan.

Erkaklar kiyadigan uchli qalpoq — kuloh to'rt bo'lak uchburchak matodan gardishsiz tikilgan. Konus shaklidagi baland kulohni ilgari qatandarlari kiygan, tuxum shaklidagi chakkasi biroz yumaloq kulohni Buxoroda qari kishilar qishda kiyganlar. Bunday bosh kiyim o'rta asr miniaturalarida ko'p uchraydi. Aslida kulohni ruhoniylar va dindor kishilar ko'proq kiyganlar. Kulohga o'xshash teridan tikilgan qishki telpak Samarqand va Buxoroda uchraydi. Farg'ona vodiysida va Toshkent viloyatida telpak duxoba yoki movutdan tikilgan, tepasi tulki yoki suvsar mo'ynasi, ba'zan qo'y terisidan tikilgan. Telpak bichimida kigizdan tikilgan qalpoqni asosan dashtda yashovchi aholi kiygan. Qalpoqning ikki chetida kesigi (o'yiqli joyi) va soyabon uchun keng hoshiyasi bo'lgan. Odatda qalpoq oq kigizdan, hoshiyasining chekkasi esa qora chitdan tikilgan.

Xorazm o'zbeklarining ayollari ipakdan tikilgan doirasimon shakldagi gulli taxyo (do'ppi)ga ipdan yoki qush patidan popuk o'rnatganlar, tangalar osganlar. Taxyo ustidan odatda ro'mol yopinilgan. Bu yerda ro'mol turlari ko'p bo'lgan: mahalliy ustalar to'qigan oq takana va ipak ro'mol (chitkor gul bosilgan), jundan to'qilgan naqshli sergul ro'mol, chetdan keltirilgan boku ro'moli, parang (fransuz yoki ovro'pa) ro'moli va hokazolar.

Erkaklarning qadimdan kiyadigan bosh kiyimi cho'girma bir necha turda qo'y terisidan tikilgan. Qorako'l terisidan tikilgan sherozi popoq va quloqchin keyinroq paydo bo'lgan.

Butun O'zbekistonda salla o'rash ayniqsa bayramlarda ilgari-dan shartli odat bo'lib kelgan. Ammo Farg'onaning ayrim tumanlarida va Xorazmda bayram bo'lsa-da, ba'zi kishilar salla o'ranga do'ppi yoki telpak kiygan, xolos. Sallani do'ppi yoki kuloh ustidan o'rganlar, rangi va o'rash ushbu bilan biroz farq, qilgan. Hozir salla o'rash kam tarqalgan, uni asosan qariyalar va dindor kishilar ko'pincha ma'rakalarda va diniy bayramlarda o'rab chiqadilar.



Ayollarning qadimiy an'anaviy bosh kiyimi — gardishi baland yumshoq kulta (kiygich) hozir butunlay kiyilmaydi. Kultaning eski turida tepasi ochiq bo'lib, soch o'rimi chiqarilgan, yosh qizlarning kiygichida tepasi yopiq bo'lgan. Salla o'rash o'zbek ayollarining qadimiy bosh kiyim kiyish odati hisoblangan. XIX asr oxirlariga kelib Samarqand, Toshkent va Andijonda bu odat qolib ketgan. Hozirgacha ba'zi o'zbeklarda salla o'ragan ayollarni qisman uchratish mumkin. Ayollar sallasi o'zaro biroz farq qilgan. Ko'pchilik ayollar uni o'ziga xos shakldagi maxsus bosh kiyimi — lachak ustidan o'raganlar. Xorazmliklarning lachagi uzun matodan o'ralib, ko'krak va kurakni bекitib turgan. Toshkentliklarda ham xuddi shu bichimda lachak kiyilgan. Samarqandliklar lachakni uzunroq matodan biroz boshqacha shaklda tikkanlar. Janubiy Xorazm o'zbeklari sallani lachak kiymasdan o'rama salla shaklida aylantirib, bir uchini ko'krakiga tashlaganlar. Odatda ilgari uydан tashqariga chiqilsa, ayollar salla ustidan mursak yoki uchburchak ro'mol shaklida oq yoki qizil ip matodan tikilgan yopinchiq yopinib chiqqanlar.

Eski odatga binoan sallani ayol birinchi farzand ko'rgandan so'ng o'ray boshlagan. Keyingi vaqtlarda ona birinchi nabira ko'rgach, salla o'rash odati paydo bo'lgan. Salla o'rash maxsus irimlar bilan qadimiy davrlardan kiyilgani to'g'risida tarixiy ma'lumotlar mavjud. O'zbek lachagiga o'xshash bosh kiyim kimishek nomi bilan qozoq va qoraqalpoqlarda ham ma'lum.

Ayollarning ko'pchiligi keyinchalik an'anaviy bosh kiyimidan voz kechib, har xil rangdagi va turli materialdan to'qilgan ro'mol yopina boshladilar. Ro'mol o'rash yoki yopinish ham turlicha, har kim qulayiga qarab yopingan. Faslga qarab katta rangli ko'p gulli ipak, jun yoki to'qilgan tivit ro'mol keng tarqalgan. Yoshi katta ayollarning oq doka ro'mol o'rash odati hozirgacha saqlangan. Hozirgi davrda ko'pchilik qizlar va yosh ayollar bosh yalang zamonaviy turmashga o'tganlar.

Ilgari qizlar va ayollarning soch o'rimi jiddiy farqlangan. Qizlar va kelinchaklar (bola tuqunigacha)da qirq o'rim soch, ayollarda ikki o'rim soch qo'yish odat bo'lgan. Ayrim joylarda qirq o'rim sochli, onda-sonda ikki o'rimli va jingalak sochli ayollar uchraydi. Hozirgi ayollar ko'pchiligining sochlari kalta qirqilgan modaga o'tilgan. Erkaklar ham hozirgi zamonaviy turmashga o'tgan, ayniqsa shahar yoshlarida bu kuchliroqdir.

An'anaviy kiyimlarga xos taqinchoq va bezaklar yaqin davrlargacha odat bo'lib kelgan. Ilgari turli zargarlik zeb-ziyinat buyumlaridan ko'pchilik ayollarning bosh va ust kiyimlari bezatilgan. Kiyim-kechaklarning yangilanishi taqinchoqlarning yo'qo'lishiga sabab bo'lgan. XIX asr oxirlarigacha ayollar uchun zargarlar ishlab chiqargan zeb-ziyinat buyumlari juda ham ko'p va har xil bo'lgan. Masalan, Farg'ona vodiysida bezak-ashyolar eng ko'p tarqalgan. Ularning har biri bir necha shaklda maxsus nomga ega: bo'yin va ko'krakka taqiladiganlardan paykoncha, arpa jevak zebgardon, nozigardon, tangajevak tumor, bozvand, tilla tumorcha, bo'yintumor, ko'kraktumor, sochning ikki tomoniga taqib, ikki yelkaga tushirib oladigan zarkokil, orqaga taqiladigan tanga chulpi, peshonaga taqiladigan tilla bargak tillaqosh, jiga va har xil sochpopuk (par sochpopuk, naycha sochpopuk, panjara sochpopuk, bekokil yoki beshkokil, qubbali sochpopuk va h.k.), qo'ltiqqa taqiladigan qo'ltiq tumor va buringa osiladigan aravak va lativa. Isirg'a turlari ham ko'p bo'lgan: kana zira, turkiston baldoq, qashqar baldoq, uchkokilli yoki uchoyoqli zira, zulukzira, oy baldoq, farg'onacha baldoq, toshkent baldoq, shaldiroq baldoq, ko'zlik zira, arava baldoq (yumoloq shaklda), anjir baldoq va hokazo. Uzuk turlaridan: afg'oncha uzuk, ko'zsiz uzuk, rumcha uzuk, ayriband uzuk, shaxonak quyma uzuk, o'rama uzuk, mis uzuk, tilla uzuk, xoji uzuk. Bilaguzuk turlari: suqma bilaguzuk, qo'chqor shoxli rosmana bilaguzuk, chorroq bilaguzuk, ilonbosh bilaguzuk, tugmali bilaguzuk, baqabosh bilaguzuk, bodomcha bilaguzuk va hokazo. Zeb-ziyinatlarni zargarlar o'yma usulda yasagan turli rangdagi toshlar: marjon, shisha, sadaf kabilar bilan bezaydilar. Surxondaryo qishloqlarida ko'krakka taqiladigan rangli mayda munchoqlardan tizilgan bezaklar keng tarqalgan. Ko'p joylarda ipga tizilgan marjon shodasi, Toshkentda mayda durdan yasalgan munchoq, marjon va shishadan ishlangan isirg'a, uzuk va bilaguzuk osish odat bo'lgan. Ko'ylak yoqasiga har xil nozik to'g'nag'ichlar osganlar. Yosh bolalarga ham ko'z tegmasin deb, qora munchoq osilgan. Buxoroda oltin isirg'a (shibirmak) yaproqsimon shaklda katta yoqut ko'zli marvarid yoki dur bilan bezalgan. Barcha bezaklar boy tabaqalarda tilla, kumush va qimmatbaho toshlardan, kambag'al tabaqalarda esa mis, jez yoki tilla suvi berilgan metallardan yasalgan. Ayniqsa tillaqosh,

osmado'zi, tillabargak va boshqa zeb-ziyinatlar juda qimmatbaho bo'lgan.

Ayollar orasida qadimdan o'ziga pardoz berish, atir sepih qosh-ko'zni bezash odat bo'lgan. Arxeologik qazishmalardan topilgan va miniaturalardan olingan rasmlarda ayollarning o'ziga pardoz-andoz berganligi aniq ko'rinadi. Husni ochish, yana ham go'zallik hosil qilish maqsadida o'zbek ayollari orasida o'sma, xina, upa-elik surtish, o'ziga zeb berish, gul suvi bilan oynanib qarab pardozlash odati keng tarqalgan. Xalq orasida tarqalgan iboralardan birida: «Onangni otanga beparдоз ko'rsatma», deb bejiz aytilmagan. Hozirgi o'zbek ayollari zamonaviy nozik va xushbo'y upa-elik, atir va kremlarning turli xillaridan zo'r mahorat bilan foydalanadilar.

Bolalar kiyimi kattalarnikidan uncha farq qilmagan. Ammo bola tug'ilishi bilan unga ko'ylak kiygizish odatiga binoan yumshoq matodan kipta, ko'ylakcha, ko'rpacha tayyorlangan. Bunday ko'ylakni yetti uydan to'plangan matodan tikib, chillasi chiqquncha kiygizish shart bo'lgan. Shuning uchun unga chilla ko'ylak deb nom berilgan. Bolaga ko'z tegmasin, mard bo'lsin degan irim bilan ko'ylakni itga yoki qayroq toshga surkaganlar (itko'ylak, qayroq ko'ylak shundan kelib chiqqan). Bir yoshga yetgan bolaga turli bichim uslubida tikilgan ko'ylak, issiq kiyimdan qishdagi guppicha (toncha, jamocha) tikib kiygizganlar. Bolaga to uch to'rt yoshga yetguncha etakcha ham tikilgan (peshgir, oshxo'rak). Bosh kiyimi ikki-uch bo'lak matodan konus shaklida tikilgan. Qish paytlarida qalpoq kiygizilgan yoki chor-su, qiyiq o'ralgan. Ko'p joylarda besh-olti yoshdan keyin o'g'il-qiz kiyimlari farqlanib boshlaydi. O'g'il bolalar uchburchak (Toshkent vohasi) yoki yaktak (Farg'ona vodiysi) yoqali ko'ylak kiyganlar. Diniy maktab talabalari ruhoniylardek mullacha yoki musulmon ko'ylak kiyganlar. XX asr boshlarida yoshlar orasida tik yoqali no'g'ay yoqa, bo'g'ma yoqa ko'ylak kiyish odati paydo bo'lgan.

Oyoq kiyimlardan erkak va ayollar kiyadigan an'anaviy mahsi-kalish hozirgacha saqlangan. Ilgari kambag'allar charmdan tikilgan muki, oq etik kiygan, boy tabaqalarda yumshoq teridan tikilgan ovro'pacha etik va mahsi kiyilgan.

## TAQINCHOQLARNING YARATILISHI VA TURLARI

Yer yuzida zargarlik san'atining vujudga kelishi va rivojlanishi bir necha ming yillik tarixga ega. So'nggi yillarda O'zbekiston hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan bronza davriga oid arxeologik yodgorliklari orasida qadimgi ijodlarimizning taqinchoqlariga oid qator ashyoviy dalillar ham bor. Jumladan, O'zbekistonning janubidagi Baqtriya, Sopolitepa, Jarqo'rg'on manzilgohlaridagi sag'analardan topilgan taqinchoqlar namunalari rang-barang bo'lib, ularning asosiy qismini bosh, peshona, quloq taqinchoqlari, to'g'nog'ichlar, tugmalar, bilaguzuklar tashkil etadi. Mazkur ashyolar ushbu hududda yashagan aholi qadimdan boy moddiy madaniyat sohibi bo'lganligidan dalolat beradi.

Tarixdan ma'lumki, davrlar o'tishi bilan muayyan bir hudud miqiyosida taqinchoqlarning ba'zi turlari keng yoyilsa, ayrimlari o'z o'rnini yo'qotgan, yangi ko'rinishdagi taqinchoqlar paydo bo'lib, oldingilari kundalik turmushdan chiqqan. Natijada taqinchoqlar va ularning turlari hamisha o'zgarib turgan. Shu sababli taqinchoqlarni etnografik jihatdan o'rganishda tadqiqotchilar taqinchoqlardagi shakliy o'zgarishlar, ularning turlaridagi almashinuvar sabablariga asosiy e'tibor qaratadilar. Olib borilgan etnografik tadqiqotlar va ilmiy xulosalar asosida shuni aytish mumkinki, respublikamizning boshqa hududlarida bo'lgani singari Surxon vohasida ham ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy, hududiy omillar bilan bog'liq, uch asosiy yirik jarayon yoki holat an'anaviy taqinchoqlarda davriy o'zgarishlar ro'y berishiga sabab bo'lgan.

1. *Badiiy an'analar*. Ma'lum bir taqinchoq turlarining tarqalish hududi (areal)da usta zargarlarning o'ziga xos mahorati, zar-garlikning mahalliy va etnik xususiyatlardan kelib chiqqan holda taqinchoqlarda ma'lum bir shakl hamda ko'rinishlarga e'tibor qaratilgan.

2. *Hududiy o'ziga xosliklar.* Bunda aholi yashaydigan muayyan hududlar yirik shaharlar atrofida yoki ulardan olisda joylashganligi taqinchoqlarning bevosita va bilvosita o'zgarishiga ta'kid qilgan.

3. *Madaniy-iqtisodiy aloqalar tarixiy-madaniy hududlar o'rtasidagi o'zaro savdo-sotiq munosabatlari ham taqinchoqlarning yangi turlari paydo bo'lishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.* XIX asr oxiri — XX asr boshlarida respublikamizning Buxoro, Xiva, Samarqand, Qo'qon, Andijon, Toshkent, Shahrisabz, Kitob, Boysun, Denov, Sherobod, Urgut kabi shahar va qishloqlarida usta zargarlar faoliyat yuritishgan. Bu davrda butun o'lkamiz bo'ylab Buxoro, Qo'qon, Xiva zargarlarining mahsulotlari ommaviy urf bo'lgan. Zargarlarning o'ziga xos mahorati ular yaratgan zargarlik buyumlarining sifati, taqinchoqning ma'danlari va yasatish usullarida o'z aksini topgan. O'rganilayotgan davrda vohaning usta zargarlari asosan o'z uylarida ishlashgan, lekin ayrim hollarda ular buyurtmachilar talabiga ko'ra ularning uyida ham ishlaganlar, Har bir usta zargarning o'z kasbiy siri bo'lgan va ular taqinchoq tayyor bo'lguniga qadar mahsulotni hech kimga ko'rsatmagan. Bu davrda Surxon vohasidagi usta zargarlar faoliyatida quyidagi asosiy xususiyatlarni kuzatish mumkin:

1. Qishloq zargarlari faqat buyurtmachilar didi va talabiga mos ravishda bozorda sotish uchun taqinchoqlar tayyorlashgan.

2. Usta zargarlar ko'p hollarda yakka holda faoliyat yuritib o'z kasb-hunarlarini, zargarlik sirlarini faqat o'z o'g'illariga qoldirishgan va ular uzoq vaqt o'zlariga shogird olishmagan.

3. Zargarlar asosan dehqonchilik qilib, undan bo'sh vaqtlaridagina zargarlik kasbi bilan shug'ullanishgan.

4. Mahalliy zargarlar taqinchoqlar uchun zarur ma'danga doimo muhtoj bo'lganliklari bois asosan buyurtmachilarning ashyolaridagina taqinchoqlar yasashgan.

5. Zargarlarning mehnati uchun buyum yoki narsa berish orqali oldindan kelishilgan holda haq to'langan.

Yuqorida qayd etilgan xususiyatlar yirik shaharlardan olisda joylashgan zargarlar faoliyatining asosiy xususiyatlarini tashkil etgan va ular, avvalo, faqat zargarlik bilan shug'ullanish orqali kun kechirib bo'lmaganligi bois, dehqonchilik bilan ham mashg'ul bo'lganligi, qolaversa taqinchoqlar uchun ma'danga muhtojlik zargarlarning yasagan buyumlarini bozorda o'zlari sotishi kabi

shablar tufayli qishloqlarda zargarlik yaxshi rivojlanmagan. Qolaversa, usta zargarlar o'zlariga shogird olmasdan ishlashlarining shababi shundaki, ular yasagan taqinchoqlar uzoq, vaqtgacha sozilavermaganligi bois shogirdga ish haqi to'lash muammosi tug'ilgan. Shuning uchun zargarlar o'zlariga chetdan shogird ololmaganlar. Shuningdek zargarlik kasbi muqaddas hisoblanib, usta o'z o'g'illariga ishonch bilan o'z kasbini o'rgatgan, ya'ni zargarlikni ota meros kasb deb bilishgan. Agar shogird olish zarurati tug'alsa, nasl-nasabi toza, taqvodor kishilarning farzandlari shogirdlikka olingan. Bozorlarda zargarlik buyumlari sotilmay qolsa, iqtisodiy zarar jabrini ham ota-o'g'il va oilaning o'zigina ko'rgan.

Vohada zargarlik san'atining o'ziga xos sir-asrorlari bo'lgan. Ma'lum bir taqinchoq turini yasashda har bir zargar o'ziga xos bezaklar, shakllar, ko'rinishlardan foydalangan. Ustalar ishida ana shu o'ziga xoslik bo'lmasa, boshqa ustalar yasagan taqinchoqlar bilan o'xshashlik ro'y berib, bozorda o'zaro raqobat paydo bo'lgan. Yuqorida qayd etilgan sabablar tufayli ham qishloqlarda zargarlar juda kam bo'lgan. Aholi esa bozorlardan yoki savdogarlar chetdan keltirgan zargarlik buyumlarini sotib olishgan yoki biror buyumga almashtirishgan.

Vohaning yirik shaharlari va unga yaqin yerlarda yashagan zargarlarda bir nechta shogirdlari bo'lgan. Ular taqinchoqlarning ma'lum bir bo'laklarini yasashda o'z ustozlariga yordam berishgan. Sherobod, Boysun, Denov kabi shaharlarda yashovchi shaharlik zargarlar qishloq xo'jaligi, ya'ni dehqonchilik bilan shug'ullanmasdan, faqat zargarlik kasbini qilganlar va ular o'z mehnatlariga pul hisobida haq olishgan. Yuqorida ko'rsatilgan omillar ushbu hududlarda zargarlikning keng rivojlanishini ta'minlagan.

Shaharda o'z ustaxonalarida ishlagan zargarlar buyurtmachilarning saviyasi, didi va moddiy holatidan kelib chiqqan holda taqinchoqlarning xilma-xilligiga hamda sifatega e'tibor qaratishgan. Demak, shahar va uning atrofida joylashgan zargarlik ustaxonalarida yasalgan taqinchoqlar bilan mayda usta-zargarlarning uylarida yasalgan taqinchoqlar o'zining sifati, ko'rinishi va yasatish uslubi jihatidan bir-biridan farq qilgan. Shaharda bir-biridan o'z ustubi, kasb mahorati bilan farq qilibuvchi usta-zargarlar o'zlarining ko'p sonli zargarlik ustaxonalariga ham ega bo'lishgan.



Taqinchoqlar bilan savdo-sotiq qilish turli iqtisodiy-madaniy hududlar o'rtasidagi savdo munosabatlarining eng qadimiy va keng tarqalgan turidir. Xalqlar orasida ommaviy urf bo'lgan taqinchoqlar ushbu sohada savdo-sotiq munosabatlarining asosini tashkil etgan.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida O'rta Osiyo hududidan bir necha yirik karvon yo'llari o'tgan. O'rta Osiyoda Qo'qon shahri savdo-sotiq munosabatlarida oldingi o'rinlarda tursa, Samarqand va Buxoro zargarlari mintaqani yuqori darajada taraqqiy etgan zargarlik buyumlari bilan ta'minlagan. O'zbekistonning janubiy viloyatlari va janubiy Tojikiston hududlariga Ko'lob, Mo'minobod shaharlari orqali afg'on savdogarlari arzon taqinchoqlar olib kelishgan. Shuningdek ular Denov, Kitob, Shahrisabz hududlarida ham bo'lib, turli xil taqinchoqlar, matolar savdosini amalga oshirishgan. Bu davrda yana Kofarixon va Surxon daryosi sohillarida joylashgan Xisor va Qoratorg' qishloqlari orqali Shimoliy Afg'oniston shaharlari bilan savdo-sotiq aloqalari yo'lga qo'yilgan. Ikki yirik dovon yo'li: Qora Qiziq va Tengizboy Sharqiy Buxoro hududini Farg'ona vodiysining savdo markazlari bilan bog'lashda muhim rol o'ynagan.

Savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi natijasida qo'shni mintaqalardan taqinchoqlarning xilma-xil turlari kirib kelishi ularning yasalish texnikasi, badiiy jihatlari (ornament), umumiy ko'rinishi, taqinchoqlarning mahalliy turlari bilan yaqinlashib, o'zaro uyg'unlashib ketishiga olib kelgan. Xullas, zargarlarning shaxsiy mahorati va ish yuritish usullari bilan bog'liq, kasbiy an'analari; ma'lum bir hudud aholisi uchun an'anaviy tus olgan taqinchoqlarning umumiy ko'rinishi, turlari, umuman, xalqning taqinchoqlar bilan bog'liq badiiy-bezak an'analari; taqinchoqlarning yaratilishi, tarqalishi zargarlarning ish faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi hududiy belgilar yaxlit holda ma'lum bir hududda taqinchoqlarning shakllanishiga muhim ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi.

Taqinchoqlarning davr o'tishi bilan o'zgarib turishi va ularning turlari ko'payishida savdo-sotiq munosabatlari muhim rol o'ynagan. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan uch asosiy omil an'anaviy taqinchoqlarning umumiy ko'rinishida o'zgarish yuz berishi va yangi ko'rinishdagi taqinchoqlarning ommaviy urfga aylanishiga sabab bo'lgan. Xalqlar o'rtasida ro'y bergan etnik va madaniy jarayonlar

larning taqinchoqlar turkumida o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Xullas, har qanday turdagi va ko'rinishdagi taqinchoqlar ikki muhim jarayon, ya'ni, birinchidan, mahalliy badiiy-bezak an'analari (taqinchoqlardagi ma'lum bir xalq, hududga xos bo'lgan o'ziga xos belgilarning saqlanib qolishi); ikkinchidan, savdo-sotiq munosabatlarining keng rivojlanishi natijasida turli ko'rinishdagi taqinchoqlarning savdo-sotiq yo'li bilan kirib kelishi va doimiy bo'lmagan holda ma'lum bir hudud va xalq orasida keng tarqalishi bilan uzviy bog'liqdir.

Xullas, taqinchoqlarning yaratilishi va hududiy tarqalishi jarayoni har bir hududda o'ziga xos tarzda ro'y bergan. Usta zargarlar o'zlarining badiiy-bezak an'analari asosida ma'lum bir taqinchoqlarini buyurtmachining shaxsiy didi va iqtisodiy holatiga qarab tayyorlab bergan. Vohada taqinchoqlarning kirib kelishi va tarqalishida savdo-sotiq munosabatlari muhim rol o'ynab, natijada taqinchoqlar xilma-xilligi ortib borgan. Surxon vohasi qadimdan Buyuk ipak yo'lining janubiy tarmoqlarida muhim o'rin tutib Afg'oniston, Hindiston, Eron va Old Osiyo kabi yirik tarixiy-madaniy o'lkalar bilan o'zaro savdo aloqalarini doimiy amalga oshirib turgan.

Vohada ayollarning keng tarqalgan an'anaviy taqinchoqlari-  
dan biri peshonaga aylantirib taqiladigan «sinsila» bo'lib, ayol-  
larning bosh o'rovleri «sallabosh», «shoxbosh» va «peshona-  
band»ning peshona qismiga kashtali jiyaklar ustidan taqilgan.

Peshona taqinchoqlaridan yana biri «bargak»ning eni 3,0—  
3,5 sm uzunlikda to'g'ri shaklda bo'lib, unga aylana shaklda na-  
qshlar tushirilgan. Shuningdek, uning yuqori qismiga ham alohi-  
da bo'rtib turuvchi bejirim naqshlar tushirilgan. U qizlar turmush-  
ga chiqqach, baxmal matolarga biriktirib, ro'mol yoki salla ustidan  
peshonadan aylantirib bog'lab kuyilgan. Samarqand va Buxoroda  
bargakni tillaqosh bilan taqish rasm bo'lgan. Peshonadan boshga  
tomon qistirib qo'yiladigan taqinchoqlardan «mohitillo» Samar-  
qand va Buxoroda keng tarqalgan. Bu taqinchoq vohada  
«bibishak» deb nomlangan. «Bibishak» yarim oy shaklida bo'lib,  
uzun zanjirchalarning yuqori doirasimon qismi to'g'nog'ich orqali  
yoki ip bilan boshga qistirib qo'yilgan, yarim oy shaklining pastki  
qismlarida kichik qistirigich ilmoqlardan bir tekis, ba'zan uzun,  
ba'zan kalta shaklda munchoq, rangli toshlar zanjirga terilib,  
o'ziga xos ko'rinish olgan. Vohaning qo'ng'iroq ayollari «bushak»  
nomi bilan ataluvchi mohitillo ko'rinishidagi taqinchoq taqishgan.  
Surxondaryo viloyat o'lkashunoslik muzeyida «sinsila», «tillaqosh»,  
«zulfi tillo» kabi an'anaviy peshona taqinchoqlari xalqimiz moddiy  
madaniyatining qiymatbaho namunalari sifatida saqlanmoqda.  
Chakka taqinchoqlaridan «gajak» juft holda ipak iplar, ya'ni du-  
gocha bilan chakkaga qistirilgan. O'zbekistonda gajaklarning ikki  
xil ko'rinishi ma'lum bo'lgan. Bulardan biri Buxoro gajaklari  
qalampirsimon shaklda yasalgan bo'lsa, ikkinchisi Toshkent  
ayollarining gajaklari bodomsimon ko'rinishda bo'lgan.

Chakkaga taqiladigan taqinchoqlar asosan kumush, mis, ba'-  
zan oltindan yasaliib, xilma-xil toshlar, katta-kichik o'yina naqshlar  
bilan bezatilgan. Vohada chakkaga taqiladigan taqinchoqlarni  
kefinlar, qizlar asosan sayllar va to'ylarda taqishgan. Respublika-  
mizning boshqa hududlarida qushlar, hayvon shoxlari tasviri  
tushirilgan quloq-chakka taqinchoqlari ham ma'lum bo'lgan.  
Jumladan, Buxoroda «qush duo», «qush kokili», Xorazmda «butun  
tirnoq», «yarim tirnoq» va «xo'kiz shoxi» nomlari bilan chakka-  
quloq taqinchoqlari keng tarqalgan.

Vohia ayollarining taqinchoqlari ichida sirg'alar alohida ajralib  
turgan. Sirg'alar turli yoshdagi barcha ayollarning nafaqat bayra-

## SURXON VOHASIDAGI TAQINCHOQLARNING ASOSIY TURLARI

Vohada ayollarning an'anaviy taqinchoqlari juda xilma-xil  
bo'lib, ular ma'dani, shakli, umumiy ko'rinishi bilan bir-biridan  
tubdan farq qilgan. Taqinchoqlar kiyimlar bilan o'zaro uyg'un-  
likda ayolga yanada go'zallik va ulug'vorlik baxsh etgan. An'anaviy  
taqinchoqlar taqilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lingan.

1. Bosh taqinchoqlari: peshona, soch, quloq, chakkaga taqi-  
ladigan taqinchoqlar;
2. Ko'krak, bo'yin, panjaga taqiladigan taqinchoqlar;
3. Tananing bel qismiga o'raladigan yoki taqiladigan taqin-  
choqlar.
4. Qo'l taqinchoqlari.

Peshona taqinchoqlari ichida eng keng tarqalgani tillaqosh-  
dir. Bu taqinchoq asosan turmushga chiqqan kelinchaklar  
tomonidan taqilgan. Tillaqoshlarning uch xil, ya'ni buxorocha,  
xivacha, toshkentcha turlari ma'lum bo'lgan. Vohada o'ziga to'q  
oilalar qizlarining seplari uchun savdogarlardan tillaqosh sotib  
olishgan va to'y kuni yoki to'ydan so'ng o'tkaziladigan «kelin  
salom», «yuz ochar» marosimlarida kelinga taqishgan. Tillaqosh  
kelinlikning o'ziga xos ko'rki hisoblangan. Samarqand va Buxoro-  
da ham tillaqosh asosan kelinlarning to'y tantanalarida taqiladigan  
peshona taqinchoq'i hisoblangan. Tillaqoshlar XIX asr oxiri —  
XX asr boshlaridagina cho'qqisimon, baland ko'rinishda yasala  
boshlangan. Qadimda bu taqinchoq faqat qosh ko'rinishida, ya'ni  
qoshning pastki qismidagi soch tolalariga o'xshash osilib turuvchi  
osilchoqlar tushirilgan ingichka va past ko'rinishda bo'lgan. Til-  
laqoshning dastlabki, ya'ni nisbatan qadimiy ko'rinishi Buxoro-  
da keng tarqalib, faqat qoshlar tasviri tushirilgan pastki qismiga  
osilchoqlar tushib turuvchi «bolo obro'» taqinchoq'i bilan aynan  
bir xil ko'rinishda bo'lgan.

mona balki kundalik taqinchoqlaridan ham biri hisoblangan. Mahalliy aholi quloqqa taqiladigan taqinchoqlarni «sirg'a», «isirg'a», «halqa», «baldoq», «zirak» kabi atamalar bilan nomlagan. O'zbekistonda hududiy belgilariga ko'ra sirg'alar Buxoroda «shibirma», Toshkentda «zirak», Samarqandda «bargak», Farg'ona «baldoq» deb atalgan. Sirg'alar shakli va ko'rinishi bilan bir-biridan keskin farqlangan.

Sherobod tumanining Pashxurt, Maydon, G'oz qishloqlarida ayollar doira shaklidagi osilchoqlarsiz turli xil aqiq, yoqut, zumrad, gavhar ko'zlar qo'yib yasalgan sirg'alar taqishgan. Bu «Muhammadi sirg'a» deb atalgan. «Muhammadi sirg'a» jannatdan hurlar tomonidan keltirilgan deb tasavvur qilingani bois shu nom bilan atalgan. Kexsa yoshli ayollar umrining oxirigacha bunday sirg'alarni taqqanlar va ular vafot etganidan keyingina sirg'ani yechib olishgan.

Quloqqa taqiladigan taqinchoqlar vohaning tojik aholisi orasida «baldoq», «mahak», «qashg'ari», o'zbeklarning toqchi, qo'ng'iroq urug'larida «halqa», «isirg'a» deb yuritilgan. Osilchoqlari bo'lgan sirg'alar osilchoqlarining soniga qarab uch oyoqli, besh oyoqli, o'n oyoqli, o'n bir oyoqli sirg'a deb nomlangan. Vohada o'n, o'n bir oyoqli sirg'alarni o'ziga to'q ayollar quloqlarining teshigi kattalashib yirtilib ketmasligi uchun iplar bilan quloq ustidan boshga qistirib qo'yishgan. Ayollar sirg'alari ichida bir-biriga tutashib keigan, naqshlar bilan bezatilgan sirg'alar keng tarqalgan bo'lib, aholi orasida yakka sirg'a — «halqayi yakkadur», oynali sirg'a — «halqayi oynadur» deb yuritilgan. Vohada keng tarqalgan uy isirg'a yarim ko'chmanchi hayot kechirgan va asosan o'tovlarda yashagan aholining an'anaviy uylari o'tov, qora uy ko'rinishiga monand ramziy shaklda yasalgan. Vohada XIX asrning oxirida o'rta yoshdagi ayollar orasida «qoziq isirg'a», «oy baldoq» kabi sirg'alar taqish rasm bo'lgan. Qoziq sirg'a kumushdan yasalgan va uzun tik ko'rinishda bo'lib, quloqlarga o'tkaziladigan qismi katta ilgaksimon yoki qoziq ko'rinishida bo'lgan hamda turli xil munchoqlar va toshlar bilan bezatilgan. Bu o'rinda shuni ham ta'kidlash joizki, qoziq shaklidagi sirg'alar boshqa xalqlarda ham uchraydi.

Ayollarning burunga taqiladigan taqinchoqlari ham juda qadimiy bo'lib, ularning tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. O'rta Osiyo minaturalarida (XV—XVI asrlar) tasvirlangan ayollar

burnida halqasimon taqinchoqlar uchraydi. Respublikamizda burunga taqiladigan taqinchoqlar «arabak», «latiba», «xolbini», «xolcho'p» deb atalgan. Burunga taqiladigan sirg'alar asosan burunning ikki chetiga, burunning parraqlariga va burunning o'rta devoriga taqilgan. Burunning o'rta devoriga taqilganlari «buloqi», «o'rta natti», burunning chetiga taqilsa, «chet natti», «aravak» deb atalgan. Boysun tarixiy o'lkashunoslik muzeyida misdan yasalgan, viloyat o'lkashunoslik muzeyida esa kumushdan yasalgan «latiba» saqlanmoqda. Vohada latiba, natti, latbin atamalari bilan ma'lum bo'lgan burun taqinchoqlari asosan magik tasavvurlar, ya'ni yomon kishilar nazari, qarashlaridan saqlovchi, himoyalovchi vosita sifatida taqilgan. Bundan tashqari, burun taqinchoq'ining aynan qaysi maqsad bilan taqilganligi haqida ilmiy adabiyotlarda ma'lum bir xulosalar mavjud bo'lsa-da, bu o'rinda shuni aytish mumkin, zargarlar tomonidan yaratilgan ushbu taqinchoq bezak sifatida emas, balki ko'proq xalqimizning magik qarashlarini o'zida ifoda etuvchi ashyo tarzida taqilgan.

Soch taqinchoqlari. O'zbek ayollari qadimda yalangbosh yurmaganlar. Ular ro'mol o'rashgan va sochlari kiygichlar ostida yig'ilib, ixcham bo'lib turishi uchun turli xil ko'rinishdagi sochga taqiladigan taqinchoqlar taqishgan. Turmushga chiqqan qizlar ipak va paxtali iplardan qo'lda to'qilib, uchlari turli xil temir naychalar, feruza toshlar bilan bezatilgan qora rangli soch po'pakni bezak sifatida va yomon kishilar nazaridan saqlanish maqsadida sochlariga taqishgan. Soch popuk har bir soch o'rini uchiga soch bilan birga o'rilib uzun holatda yurganda sochpopukning naychalari bir-biriga urilib, o'ziga xos qo'ng'iroqdek ovoz chiqargan. Sochpopukning «zar kokil», «tuf» deb atalgan maxsus naychalari dan soch o'tkazilib, soch o'rmlariga taqilgan. Yasalishi jihatidan ancha murakkab bo'lgan soch popugi kumush, mis, tangalar bilan bezatilgan. Vohada o'rta yosh ayollar «sadaf», «sitora» deb atalgan soch bezaklari taqishgan. «Sadaf» — matoga oq tugmachalar qadab, pastida qora ipakdan tikib chiqilgan qator-qator osilchoqlar tushirilgan taqinchoq. Sitorada tugmalar o'rinda tangalar va metallardan turli xil shakldagi to'g'nog'ichlar matoga qistirib chiqilgan va soch o'rmlari ustidan elka bo'ylab bog'lab qo'yilgan. Vohada keng tarqalgan soch taqinchoqlaridan «jamalak», «jumlak», «kokul» soch o'rmlarining har biriga taqiladigan ipakli,



paxtali iplardan to'qilgan qora chilvir iplar shaklida bo'lib uchlariга mayda-mayda munchoqlar, po'pakchalar taqilgan. Yarim ko'chmanchi hayot kechirgan qo'ng'iroq, juz ayollarida ushbu soch taqinchog'i «cholband» nomi bilan keng tarqalgan. Ushbu atamada xalqimizning cholu kampir bir-biriga doimo yaqin, hamdard bo'lib yursin degan qarashlari asosida ikki o'rta sochga taqilgan taqinchoq uchlari bir-biriga bog'lab qo'yilgan.

Bo'yin va ko'krak taqinchoqlari. Bo'yinga taqiladigan taqinchoqlar vohada «munchoq» nomi bilan atalsa-da, lekin ularning ko'plab mahalliy turlari mavjud bo'lgan. Jumladan, bulardan eng ko'p tarqalgani marjondir. Marjon bir necha shodalarning alohida to'qimasidan tuzilgan bo'yin taqinchog'i bo'lib, ular ham o'z navbatida «qalampir marjon», «cho'li marjon», «murg'ak marjon» kabi nomlar bilan atalgan. Murg'ak marjon — Samarqandda qush tasviri tushirilgan munchoq yoki metall shakllaridan iborat bo'lgan.

Ayollarning an'anaviy bo'yin taqinchoqlaridan vohada keng tarqalganlaridan yana biri tanga munchoqdir. Mazkur munchoq, turli xil tangalar orasiga xilma-xil toshlar, rangli munchoqlar qo'yib tayyorlangan. Xafaband, gulband har xil rangdagi mayda munchoqlarning bir tekis naqsh berib tizib chiqilishi asosida yasalgan va qo'chqor shoxi, romb shaklidagi naqshlar bilan bezatilgan. Ushbu taqinchoqlarning kelib chiqishi va ommalashishiga ayollarimizning magik qarashlari, ya'ni qayg'uni, g'am-g'ussani bog'lab, faqat quvonch va shodlik keltiradi degan qarashlari asos bo'lgan. Voha qo'ng'iroqlarida bu taqinchoq, aholi orasida «xapamat» nomi bilan atalgan. «Gulband» nomli bo'yin taqinchog'ini asosan vohaning tog'li aholisi ayollari taqqanlar. Chunki chorvachilik bilan shug'ullanib, tog'larda yashagan xalq orasida qizamiq kasalligi, ya'ni badanga qizil toshmalar toshishi xastaligi tez-tez uchrab turgan, uni xalq «gul kasali» deb atagan va shu sababli ayollar bo'yiniga taqiladigan «gulband» shu gul kasalini daf qilish maqsadida xafabandga nisbatan ingichkaroq ko'rinishda bo'lgan mayda munchoqlar shodasini tomoq ostidan bo'yinga siqib taqishgan.

Xalqimizda ko'krakka taqiladigan taqinchoqlarning ko'plab turlari ma'lum bo'lgan. O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda keng tarqalgan «zebigardon», «nozigardon», «tavq», «jevak» kabilar shular jumlasidandir.

Butun O'zbekistonda ayollarning an'anaviy ko'krak taqinchog'i alfida keng tarqalgan «zebigardon» o'rtasida aylana bezaklari bo'lgan qavat-qavat uzun zanjirsimon ko'rinishdagi uchburchak, to'rtburchak, rombsimon shakllarda mavjud bo'lgan. «Zebigardon»ni vohaning shaharlik ayollari, ayniqsa, turmushga chiqqan qizlar to'ydan keyin kelinlikning ko'rfki sifatida taqib yurishgan.

Zebigardon qo'ng'iroq, juz ayollarida «hakal», tojik, chig'atoylarda «zebisina» deb nomlangan. Zebigardon tuzilishi ancha murakkab, ko'rinishidan bezakka boy va rang-barang, o'rtasida uch yaproqli yoki g'uncha shakli bilan bezatilgan yirik bodom nusxa turunji (medalon) joylashgan. Uning har ikki tomonida uchta, to'rttadan romb shaklidagi plastinkalar qadaliib, plastinkalar bir necha zanjir qatorlari bilan turunjga mahkamlangan. Katta turunjning yuqori-sida yana bir turunj joylashtirilib, har ikki tomonidan zanjirlar yordamida plastinkalarga birlashtirilgan. Turunj va rombsimon plastinkalarning girdi turli xil shishalar, feruza, yoqut ko'zlar bilan bezatilgan. Markaziy turunj (medalon) aholi orasida «tavq» yoki «qush» deb yuritilgan.

Ko'krak taqinchoqlaridan yana biri «nozigardon» dir. Bu taqinchoq tuzilishidan zebigardonga o'xshash bo'lgan. Ushbu taqinchoq, vohaga savdogarlar tomonidan Toshkent, Samarqand, Farg'ona shaharlaridan keltirilgan. Ko'krakka taqiladigan «tavq», «jevak» nomlari bilan ataluvchi taqinchoqlar Buxoro zargarlari tomonidan yasalgan va o'ziga to'q boy-badavlat ayollar taqishgan. Vohada ayollarning keng tarqalgan ko'krak taqinchoqlaridan yana biri tanga va tugmalardan yasalgan «tupbog'i» yoki «tupbovi» bo'lib, u turli xil naqshli iplarni bir-biriga tutashtirib, unga turli xil munchoq, marjon va tangalarni tizib chiqib yasalgan. Mayda munchoqlardan ipga tizib tayyorlangan taqinchoqlarni ko'proq qizlar taqishgan. Agar qizlarga qizamiq toshmagan bo'lsa, ular mayda munchoqlar tizib tayyorlangan bo'yin taqinchog'i taqishmagan. Bu bilan aholi orasida «gul» nomi bilan ataluvchi qizamiq kasaligi qizlarning badaniga toshmasdan shu toshmalar ichki a'zolarga toshib ularni kasalmand qilib qo'yadi deb o'ylashgan. Keng tarqalgan ko'krak bezaklaridan «gardi xazina» oq-qora yoki xilma-xil rangli munchoqlardan naqsh berib ipga tizib tayyorlangan. Vohada xuddi shu ko'rinishdagi bo'yin taqinchog'i «shavg'in» nomi bilan ham atalgan. Bir necha xil rangli munchoqlarning orasiga ip bog'lab chiqilishi natijasida munchoq shodasi

o'ziga xos to'liqsimon ko'rinish olgan. Ayollar chin marjondan yoki tabiiy o'simlikdan, ya'ni qalampirunchoqdan bir nechta qatorini ipga tizib taqib yurishgan.

Vohada ayollarning «tangamunchoq», deb nomlangan bo'yin-ko'krak taqinchog'i ham keng tarqalgan. Buxoro o'yma tangalari vohada «hamal tanga» deb yuritilgan. XX asrning boshlariga kelib butun O'zbekistonda bo'lgani kabi ayollarning bo'yin-ko'krak taqinchoqlarida rus tangalari ham ishlatila boshlandi. Tangalar bir-biriga zanjirlar yordamida, ba'zan ip vositasida birkittilib, ko'p hollarda tangalar bir bo'lak matoga tizib tikib chiqilgan. Vohada «poshshoyi tanga» deb atalgan mis, kumush tangalar bir-biriga ilmakchalar bilan ildirilgan holda o'ziga xos naqsh berib yasalib, ayollarning an'anaviy ko'krak taqinchoqlari sifatida keng tarqalgan.

Ayollarning bo'yin-ko'krak va qo'ltig'iga taqadigan taqinchoqlaridan pardoz va bezak vazifasini bajaruvchi «peshovuz», «peshxalta» va turli xil hajmdagi uchburchak, to'rtburchak shakldagi metall tumorlar bir tomondan bezak ko'rk vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan ayollarimizning magik qarashlari asosida turli xil insu-jinslardan himoya vazifasini ham o'tagan.

To'g'nog'ichlar turmushga chiqqan ayollarning o'yma uzun tik yoqasiga taqilgan. Ular vohaning yuz, qo'ng'iro't urug'iga mansub ayollarida «to'y nochi», tojik-chig'atoy ayollarida «qulfi giribon» — yoqa qulfi ma'nosida yoki «sadaf» nomlari bilan atalgan. Uni taqish uchun ko'ylak yoqasiga qistirilgan. To'g'nog'ichlar yaltiroq tugma shaklida aylana, romb, yaproq ko'rinishida bo'lgan. To'g'nog'ichni asosan turmushga chiqqan ayollar taqishgan, uni qizlar taqishmagan.

Belga bog'lanadigan bog'lov taqinchoqlari ham xilma-xil ko'rinishda bo'lgan. Erkaklar to'y, tantana, ko'cha kiyimlarida kamar taqishgan. Kamarlar jimjimador, qubbasimon naqshli, o'tkazgichlari metallardan yasalib, yarimoy, quyosh, barg shaklida bo'lgan.

Taqinchoqlar milliy-badiiy madaniyat tarixining ajralmas qismi bo'lib, ular xalqning o'limishdagi oliy maqsadlarini o'rganishda yordam beradi. Necha ming yillar davomida xalqimiz taqinchoqlarida ziynat, nafosat, bezak vazifalaridan tashqari irimlar bilan bog'liq, xususiyatlar ham mujassamlashgan. Taqinchoqlarning asosiy vazifasi va ularni yasashdan maqsad bir tomondan kishilarga

zavqu-shavq bag'ishlash, ularga zebolik baxsh etishdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan taqinchoqlar har xil balo-qazo, insu-jinslardan asrovchi, yaxshiilikka eltuvchi, savob keltiruvchi, baxti-iqbol eshigini ochuvchi karomatlariga ega deb hisoblashgan.

Qadimiy urf-odatlar, an'analar o'ziga xos shaklda, mukammal saqlangan hududlardan Boysun tumanining o'zbeklar va tojiklar yashaydigan qishloqlarida ayollar bo'yin, ko'krakka taqiladigan taqinchoqlarga alohida e'tibor bilan qarashgan. Bo'yinga yopishgan holda taqiladigan «gulband», «xapamat» taqinchoqlari bezak bo'lishdan tashqari, asrovchi va aholi orasida «gul» nomi bilan keng tarqalgan yuqumli «qizarniq» kasalidan asrash va ayollarga xushnudlik, xursandchilik beruvchi bezak sifatida ham taqilgan.

Boysunda tumor vazifasini o'taydigan buyumlar yomon ko'zdan, balo-qazodan himoya sifatida taqilgan. Turli xil o'simlik, giyohlar, hayvonlar tishi, tirmog'i ayollar yoqasiga yoki yelkasiga taqib qo'yilgan. Hayvonlardan bo'ringning tishi, ayiq, burgut tirmog'i, ilon va baliq suyagi ham himoya vazifasini bajargan va shu hayvonlarning quvvati, xislatlari kishiga o'tadi degan qarash asosida taqinchoq tumor sifatida taqilgan.

Ayollar, «osh-halollik» ramzi sifatida qo'lga kumush, jez uzuk taqib yurishgan, agar qo'lga birorta uzuk taqilmasa, ana shu qo'l bilan pishirilgan taomlar, bajariladigan yumush nohalol hisoblangan.

Kelin tushirishda kelinga atalgan sarpolar ichida taqinchoqlar, kuyov to'yidan oldin sovg'a sifatida yoki nikoh ramzi sifatida kelinga, shuningdek, uzuk sovg'a qilingan. Aholi orasida taqinchoqlardagi har bir qism, belgiga alohida ramziy qarashlar bo'lib tabiat kuchlariga sig'inish asosida «oy baldoq», sirg'a, ko'krakka taqiladigan «sitora» (yulduz) taqinchoqlari ham xalqimizning qadimiy qarashlari bilan bog'liq. Boysunda alohida ramziy belgilarni ifodalovchi «oynali sirg'a» keng tarqalgan.

Nikoh liboslarida ham zeb-ziynat buyumlarini ko'ramiz. Taqinchoqlar ayollarning boshlari uzra tashlangan, peshona, bo'yin, ko'ksini qoplagan, shu yo'l bilan kelishi mumkin bo'lgan dardu-balolarning oldini olganlar.

Vohada erkaklarning qishki mavsumiy kiyimlari po'stin, kebenaklar ustidan bog'lab qo'yish uchun hayvon terisidan, qamish va tol po'stidan to'qima ro'mollar tayyorlangan. Erkak-

larning kamar bog'lashida magik qarashlar, ya'ni boy-badavlatlik, kasb-kor, ma'lum bir xizmatda mashg'ullik, marosim va udumlarning ramziy belgisi ifoda etilgan. Xonlar, amirlar kamari-ning qimmatbaho toshlar bilan bezatilishi ularning iqtisodiy qudratini anglatasa, darveshlar kamaridagi maxsus tosh va naqshlar ularni atrofda boshqa kishilardan ajratib turgan. Erkaklar kamarlariga hamyon, pichoq va nosdon osib yurishgan.

Voha ayollarining kiyimlarida bog'lovlar bezak sifatida ishlatilgan. Ayollar xo'jalik ishlarini bajarishda, gilam to'qishda va boshqa yumushlarni qilishda chaqqon, tetik bo'lish uchun bellariga ro'mol bog'lashgan.

Qo'liga taqiladigan taqinchoqlar — «bilaguzuk», «dastbona», «dastmona», «dastaxon» nomlari bilan yuritilgan bo'lsa-da, bu taqinchoq vohada ko'pincha «bilaguzuk» nomi bilan mashhur bo'lgan. Kumush va misdan yasalgan bilaguzuklar asosan juft holda yasalib, ikki qo'lga taqilgan. Bilaguzuklar sirg'alar kabi xilma-xil bo'lib, o'zining shakli va bezaklari bilan bir-biridan farqlangan. Bilaguzuklar ikki xil ko'rinishda, ya'ni aylana halqasi bir-biriga tutashgan va halqa qismi bir-biriga tutashmagan bilaguzuklarga bo'lingan. Bilaguzuklarda o'simlik hayvonot dunyosi asosiy bezak ustubi sifatida olinib, burama ilon shakli va hayvonlarning o'tkir tishlari va jimjimador o'yma naqshlar bezak uchun asos qilib olingan. Bilaguzukni bir-biriga tutashirish uchun uzun naychadan temir o'tkazilib, bu bilan go'yoki bilaguzuklar qulflan-gan. Qulf vazifasini o'tagan temirdan zanjir osiltirib qo'yilgan. Vohada qizlar turmushga chiqqanlaridan so'ng qo'llariga bilaguzuk taqishgan. Xo'jalarga mansub o'rta yosh ayollar har doim bir qo'llariga bilaguzuk taqishgan. Ularning tassavuricha, bilakni ochiq, qo'yish gunoh hisoblangan. Turli xil munchoqlar — marjon, ko'zmunchoq, tizib tayyorlangan «poncha», «panja», «dastak» kabi bilak taqinchoqlari qizlarga yoshligidayoq taqilib, turli xil ko'z, suq tegishidan, yomon kishilar nazaridan saqlovchi o'ziga xos himoya vazifasini o'tagan.

Qo'lga taqiladigan taqinchoqlardan yana biri uzuk bo'lib, u ayollar va erkaklarning ommaviy bezak buyumi sifatida vohada ham keng tarqalgan. Kexsa kishilarning ta'kidlashlaricha, ayollar doimo qo'llariga uzuk taqishi lozim bo'lgan. Chunki xalqona tasavvurga ko'ra, qo'lga uzuk taqmagan ayolning ro'zg'or ishlarini bajarishi «harom», makruh hisoblangan. Ayollar uzugi respublika-

mizning turli hududlarida turlicha nomlangan. Xalqimizda ayollar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidan kelib chiqqan holda bir necha uzukni ko'rsatkich, nomsiz, chimchiloq barmoqlariga taqishgan. Erkaklar uchun uzuk nafaqat taqinchoq, bezak vazifasini, balki muhr ichida duolar yozilgan tumor vazifasini ham bajargan. Vohada uzuklarni amaldorlar, qozi, boy, qushbegi, shayx va boshqalar taqishgan. Erkaklar uzugi kishining jamiyatdagi iqtisodiy o'rini, qaysi tabaqaga mansubligini ham bildirgan. Marhumlarni yuvuvchi «murdashuy»lar past tabaqaga mansub kishilar sifatida o'rta qo'llariga kumush uzuklar taqishi shart bo'lgan. Shuningdek, kexsa yoshdagi kishilar kumushdan yasalgan, tosh qo'yilmagan «rajabi» deb atalgan uzuk taqishgan. Uzuk taqish qadimda boylik, rizq, nasiba, podsholar uchun adolat ramzi hisoblangan. Dunyoning ko'plab xalqlarida to'y kuni kelin-kuyov nikoh ramzi sifatida qo'llariga uzuk taqishgan. Jumladan, vohada ham nikoh uzugi — «shohnak» necha ming yillardan buyon nikoh, oila, sadoqat, sevgi ramzi sifatida qadrlanib, taqilib kelinmoqda.

Umuman olganda o'rganilayotgan davrda taqinchoqlarning xilma-xil turlari ma'lum bo'lib, ular ko'rk, bezak, magik himoya, haloskorlik sifatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Taqinchoqlardagi shakllar, naqsh bezaklari, ramziy belgilar kishilarning e'tiqodi, atrof-muhit haqidagi qarashlari, tabiat va moddiy olam bilan uzviy bog'liqlikni o'zida mujassamlashtirgan. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Surxon vohasida keng tarqalgan taqinchoqlar xalqimizning turmush tarzi, xo'jalik mashg'ulotlari, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti, diniy qarashlari bilan bog'liq holda o'zida mahalliy-hududiy belgilarni ham to'la saqlab qolgan.



## VOHA AYOLLARINING SOCH, YUZ PARVARISHI BILAN BOG'LIQ MASHG'ULOTLARI VA PARDOZ BUYUMLARI

Ma'lumki, ayollar hamisha go'zallikka intilib yashashgan va qadimdan o'zlariga oro berish sirlarini bilishgan. Vohada ayollar mahalliy sharoitga mos ravishda pardoz berishning, soch, yuz parvarishining an'anaviy usullaridan foydalanganlar. Xalqimizda sochning sehrli kuchi haqidagi animistik qarashlar va u bilan bog'liq udumlar, irim-sirimlar ko'p uchraydi. O'rganilayotgan davrda ayollarimiz garchi yalangbosh yurmasalar-da, soch turmaklash va soch parvarishiga alohida e'tibor bilan qaraganlar. Odatda ayollar sochlarini qatiq bilan yuvganlar. Keksa yoshlilarning ta'kidlashlaricha, qatiq sochni yumshatish xususiyatiga ega ekan. Qizlar hamisha sochlari uzun, tolası mustahkam bo'lishini xohlaganlar va shu bois ular sochlarini erta ko'klamda tok suvi, bahor yomg'iri, qor suvi bilan yuvishgan. Voha ayollari soch tolası mustahkam bo'lishi uchun sochlarini o'sma suvi, tuxum sarig'i, maysa shirasi bilan ham yuvganlar. Sochni qoraytirish uchun ivitilgan guruch suvidan ham foydalanganlar.

Voha ayollari sochlaridagi qazg'oqlarni tozalashda ham tabiiy mahsulotlardan foydalanganlar. Buning uchun suyuq qatiqni xaltaga solib undan sizib chiqqan zardob, ya'ni «sariq suv»ga sochlarini yuvganlar.

Ayollar soch yuvishda haftaning yaxshi kunlarini tanlab olishib, uni «sag'at kun» deb, soch yuvish man etilgan kuni esa «besag'at kun» deb nomlashgan. Voha qishloqlarida kimdir vafot etgan bo'lsa, shu kuni qizlar bosh yuvishmagan, kekse ayollar esa uch kungacha bosh yuvishmagan. Marhum qabrga qo'yilgunga qadar soch yuvilsa, boshga «o'lik yara» toshadi, yoki qizlarning baxti bog'lanadi deb ishonilgan. Oilada ota-ona yoki yaqin kishi vafot qilsa, erkaklar «marhumning savobi» uchun sochlarini oldirib yerga ko'mganlar. Go'yoki, narigi dunyoda marhumning savobi

va gunohlari tortilayotgan taroziga solingan marhumning savoblariga yaqinlarining sochi ham qo'shilib, savob olib berar ekan. Sochga peshonadan yuqoriga qarab qo'yiladigan «farq» (arabcha bo'linish) ko'p hollarda to'g'ri tik holda bo'lgan. Qizlar, kelin-chaklar va kekse yoshli ayollarning soch o'rimlari bir-biridan keskin farq qilgan. Qizlar 4—8 qator qilib soch o'rishgan, turmushga chiqqan ayollar 10—20 qator, ba'zan qalin sochlar 30—40 qator qilib o'rilgan. Oilada birinchi farzand tug'ilgach, ayolning sochlari to'zg'itilib, ikki o'rim qilib o'rilgan va sochni bunday o'rish ayolning butun hayoti mobaynida saqlangan. Sochning ikki o'rim qilib o'rilishi qiz bolaning ayollikka o'tishi, ya'ni juftlik belgisi hisoblangan va ikki yosh bir-biriga har doim yaqin bo'lib yursin degan ramziy ma'noda ikki o'rim sochlar jamalak iplar bilan bir-biriga bog'lab qo'yilgan. Qo'ng'iroq ayollarida qiz bolalarning soch o'rimini o'zgartirish udumi to'yning ertasi kuni o'tkaziladigan «yuz ochar» marosimidan so'ng amalga oshirilgan. Qizlar, kelinchaklar sochini boshqa-boshqa ayol o'rgan va bu vazifa katta savob hisoblangan. Ayollar quloqdan chakkaga tushib turuvchi «zulf» qo'yishgan. Vohada bu «zulfak», «kush zulf», «kokul» deb atalgan. Boysunda yashovchi tojik ayollarining peshonaga, sochning farqidan quloqqa qadar qo'rgan kokili «p'icha», «pecha» deb atalgan va u tarqatilmagan. Demak tojik ayollari ikki qator zulf yoki kokul qo'rganlar, birinchi qator kokul quloqdan chakkaga tomon, ya'ni quloq ustidan, ikkinchi qator zulf peshonadan quloq orqasiga tomon qo'yilgan. Kelin-chaklar zulflari to'zg'imasligi uchun maysani siqib uning shirasi yoki o'sma suvini zulflariga surtib qo'yganlar. Qiz bolalar uy sharoitida sochlariga paxtadan yigirib tayyorlangan iplarni taqib kuyishgan va bu chilvir ip «pilikcha» yoki «paxta pilik» deb yuritilgan. Vohada ayollar sochlariga jamalak soch popuk taqishgan. Kelinlar, qizlar jamalaklariga turli xil munchoq, sadaf, tugma, kumush tangalar osib bezatishgan, kekse yoshli ayollarning jamalagi oddiy qora rangga bo'yalgan ipakli chilviridan iborat bo'lgan. Boysun, Sayrob, Darband, Panjob, Machay, Maydon, Poshxurt, Oqtosh kabi tog' va tog'oldi qishloqlarida ayollar sochlariga uzun qora matodan tayyorlanib ustiga xilma-xil, tanga, munchoq, tugmalar qadalgan sitora nomli soch bezagini taqishgan. Odatda bunday soch bezagini turmushga chiqayotgan qizlar taqqanlar. Sherobodda XX asr boshlarida nikoh to'yi marosim-

larida boy oilalar qizlarning sochlariga vertikal tik holda birin ketin 3 qator soch bezaklari taqqanlar. Bunda dastlab ipakli qora chilvirdan, uchlariغا munchoq qadalgan jamalak solingan, undan keyin kumush tangalar, sadaf tugmalar bilan bezatilgan nuqqa po'pak qadalgan, so'ngra undan ham pastroqqa uchlariغا xilma-xil munchoqlar qadalgan toshkentcha munchoq po'pak taqqanlar. Xullas, qadimda ayollarning soch turmagi kishining yoshiga, oilaviy ahvoriga bevosita bog'liq bo'lgan. Boysun tojiklarida turmushga chiqqan qizlar avval zulf qo'ygan bo'lib, bu kelimlikning asosiy belgisi hisoblangan. Yosh qizlarda soch o'rimlari 10—20 tagacha bo'lgan. Ona bo'lgan va keksa yoshli ayollar sochi ikki o'rim qilib o'rigan bo'lib ikki o'rim soch juftlik, ayollik, onaliking ramziy belgisi hisoblangan.

Ayollar o'zlariga pardoz berishda xilma-xil an'anaviy usullardan foydalanishgan. An'anaviy usullardan biri qoshga o'sma qo'yishdir. Bunda uy sharoitida o'stiriladigan o'smaning bargi olinib, quyoshga qo'yib biroz so'litilgandan so'ng uni siqib, ajratib olingan yashil suyuqligi qoshlarga surtilgan. O'sma tog'larda asosan issiq iqlim sharoitida o'sgan. Vohaning xo'ja toifasiga mansub ayollari qoshlariga o'sma qo'yilmaganlar. Ularning tasavvuricha, o'sma qo'yish gunoh yoki yengiltaklik deb qaralgan. O'sma qoshga tim qora rang berishi uchun unga kul, ba'zi joylarda ipak qurtining go'ngini qo'shganlar. Ko'pincha o'sma qoshda yaxshi iz qoldirishi uchun uni uch marta qo'yishgan. Qizlar o'smaga sochlarini bo'yaganlar, igna uchimi o'smaga botirib chakkaga, peshonaga sun'iy xol, qo'llariga surtib bilaguzuk, uzuklar hosil qilishgan. O'smadan tashqari qosh, ko'zga surma surtilgan, surma shifobaxsh xususiyatga ega deb qaralgan, uni ko'z ichiga surtilishgan, surmadan ko'proq keksa yoshli ayollar foydalanishgan. Surma uy sharoitida tayyorlangan. Bunda yog' surtilgan paxtadan tayyorlangan tasma chiroqda yoqilib, undan tushgan qora kukun mol yog'i, qo'y yog'i bilan aralashtirilib, qora rang beruvchi surma tayyorlangan.

Vohada qo'ng'iro't, tog'chi, qatag'on, tojik, chig'atoy ayollari tishidagi kasalliklarni davolash maqsadida, «tishqoli» bilan tishlarini bo'yaganlar. «Tishqoli» bilan tish bo'yash odati ko'proq keksa yoshdagi ayollarda keng tarqalgan.

Boysun tumanining Passurxi qishlog'ida yong'oq bargini kuydirib tishga qora rang berganlar. Keksa ayollarning guvohlik

berishlaricha, tishni qora rang bilan bo'yash odati islomiy aqidalar bilan bog'liq, bo'lib, qizlar turmushga chiqadigan kunlari tishlarini qoraga bo'yashgan, bu bilan kelin yangi tushgan xonadonida eriga, qaynona, qaynotalariga gapirganda, kulganda oq tishlari ko'rinsa, bu hurmatsizlik beodoblik hisoblangan. «Tishqoli» pista bargiga qizdirilgan temirdan ajralib chiqadigan kukunni aralashtirib tayyorlangan.

Voha ayollari yuz parvarishida ham an'anaviy usullarga amal qilishgan. Ayollar yuzlarini chang, shamol, oftob ta'siridan saqlash, terini yumshatish maqsadida qatiq, qaymoq, mol yog'i, uzum bargini, yuzdagi dog'larni ketkazish uchun esa emizikli ayolning sutini, anjir mevasining shirasini va uning tanasidagi sutini yuzga surtilishgan. Bundan tashqari yuzdagi dog'larni ketkazishda o'ziga xos kosmetik usullarni ham qo'llashgan. Bunga ko'ra homilador ayolning yuzlarini dog' qoplasa, tug'ish vaqtida ayolning tanasidan chiqqan teri bilan doya xotin ayol yuzini uch marta artsa yoki og'iroyoq ayol sochining uchlari bilan, yoinki ona ko'krigidan kelgan birinchi sut bilan artilsa, yuzdagi dog'lar yo'q bo'ladi deb hisoblaganlar.

Ilgari ayollarimiz yuzlariga sun'iy xol qo'yishgan va bu kosmetik amal ancha og'riqli kechgan. Avval igna bilan ip olinib, ko'k qora rangli bo'yoqni kuydirilgan yog'ga qo'shib maxsus suyuqlik tayyorlangan va unga ip ivitib qo'yilgan, so'ngra barmoqlarning yuqorigi qismi va markaziga rangli suyuqlik qalin qilib surtilgan va uning ustida bir necha bor igna va ip teriga qadab o'tkazilgan va igna izi o'rninga rangli bo'yoq bir necha bor tomizilgan va shu usul orqali qo'lida hech ketmaydigan sun'iy xol hosil qilingan.

Boysun tumanining tojik-chig'atoylar yashaydigan Sayrob, Darband, Machay, Passurxi qishloqlarida ayollar ikki qoshi o'rtasiga ham sun'iy xol qo'yganlar, ya'ni igna rangli suyuqlikka botirib olinib, aylana shaklda kichik qora va ko'k rangli sun'iy xol hosil qilingan. Xuddi shunday sun'iy xol peshonaga, chakkalarga ham qo'yilgan. Yuzga, qo'lga sun'iy xol qo'yish odati vohada hozir butunlay yo'qolib ketgan.

Shaharda yashovchi ayollar qoshlari tekis va chiroyli bo'lishi uchun qoshlaridagi ortiqcha tuklarni ip va o'tkir uchli mo'ychinak yordamida olib tashlaganlar. Surxon qizlari turmushga chiqqunlariga qadar qosh terdirishmagan va bu odatiy hol hisob-

lanmagan. Boshqa xalqlardagi kabi yuzdagi tuklarni olib tashlash, ya'ni yuz terisini tozalash odati ham vohada uchramaydi.

Qizlar, ayollar, ayrim hollarda bolalar bayramlarda, to'ylarda qo'l, oyoqlarini xinaga bo'yashgan, bu an'anaviy odat hozirga qadar saqlanib qolgan. Sherobod tumanining Munchoq qishlog'ida bolalar sochini xinaga bo'yashgan, ayollar sochini xina bilan bo'yash esa gunoh hisoblangan. Xinani tayyorlash, quritish, yanchish, qo'l va oyoqqa qo'yish usullari barcha hududlarda bir xil bo'lgan. Bunda xina o'simligining barglari quritilib, yanchilib, qo'l kaftiga nam holatda qo'yilgan va qo'l niisht holatiga keltirilib, bir parcha latta bo'lagi bilan bog'lab qo'yilgan. Oyoqlarga esa timoqlar va tovon qismlari bilan qo'yilib, ustidan bir bo'lak mato bilan bog'lab qo'yilgan, xinadan o'tkir sariq-qizil rang hosil bo'lgan. Oyoq, qo'ldagi xina bo'yoqlari bir oy muddatga qadar ketmagan. Oyoq, qo'l va timoqlarni rang beruvchi o'simlik suvlari bilan bo'yash dunyoning ko'plab hududlarida, Janubi-Sharqiy Yevropa, Osiyo va Afrika qit'alarida ham keng tarqalgan.

Ayollar tomonidan kosmetik ashyo sifatida foydalaniladigan xina o'simligi oyoq shishlarini davolab, qo'l-oyoqning issiq va sovuqda qizarishi, qavarishining oldini olgan, xina shifobaxsh giyoh sifatida xalq tabobatida ham ishlatilgan.

Ilgari vohada fabrikalarda tayyorlangan atir-upalar bo'lmagan, ni sababli tabiiy giyohlardan yoki kraxmal va kumush kukuni kabi tabiiy ashyolardan tayyorlangan upalar bozorlardan xarid qilingan. Ayollar insu-jinslarni haydash, yovuz ruhlardan himoyalash, qolaversa, o'zlaridan yoqimli hid tarqatish maqsadida o'tkir hid tarqatuvchi giyohlar, xususan, yalpiz, rayhon, jiyda barglarini ko'ylak yoqasi yoki ro'mol chetlariga qistirib yurishgan. Ayollarning an'anaviy kosmetika (pardoz) usullari bilan birga, pardoz buyumlari ham bo'lgan. Peshxalta, quloq tozalagich-gushkovak qoshtergich-mo'ychinak-qoshchinoq, tish tozalagich-dandonkovak, burun tozalagich-barak kovak kabi nomlar bilan atalgan. Har bir alohida yasalgan pardoz buyumlari markazida atirdon turgan. Ularning barchasi doirasimon halqaga tizib yasalgan va ko'krakka taqib qo'yilgan.

Xalqimizning soch turmashlash, pardoz va oro berish borasidagi an'anaviy usullari xilma-xil bo'lgan, ularning ko'plari hozirda ayollarimiz tomonidan qo'llanilmasa-da, o'sma, surma, xina

qo'yish (tabiiy giyohlardan foydalanish) singari ba'zi bir an'anaviy kosmetik usullar o'zining ahamiyatini yo'qotmagan. Soch o'rish, qosh terish, yuz tozalash kabi pardoz usullari ayollarning yoshlari bilan bog'liq bo'lgan. Ayollarimiz to'y, bayramlarda ochiq yuz, yalangbosh yurmasalar-da, doimo orasta va go'zal bo'lishga harakat qilishgan. «Onangni otangga pardozsiz ko'rsatma», «dunyoni go'zallik qutqaradi» kabi xalq maqollari ham ayollari-mizning doimo o'zlariga oro berib, pardoz qilib yurishlari, ularning yanada latofatli, go'zal bo'lishlariga yordam beradi degan hayotiy xulosaga olib keladi.



## ZARDO'ZLIK SAN'ATI

Zardo'zlik — bezak san'ati turi; amaliy san'atning zar (tilla va kumush suvi yuritilgan) ip, nozik sim, ipak bilan kashta tikib bezak yaratadigan sohasi. To'rtburchak chambarakka (korcho'pga) o'rnatilgan baxmal, shoyi, movut, charm va boshqa matolarga zardo'zi usulida kashta (gul, naqsh, tasvir) tikiladi. Kashtada ba'zan metall, tosh, shisha munchoqlar ham ishlatiladi, turli matolar (baxmal, shoyi va b.)dan quroq qilinadi. Oldindan tayyorlangan (rassomlar tomonidan yaratilgan mujassamot nuxasi ko'chirilgan) axta qog'ozlardan keng foydalaniladi. Matoga mustahkamlangan (tikilgan yoki yopishtirilgan) axta qog'oz zar ip bilan bir tomonlama qoplab tikiladi (mustahkamlovchi chok uchun zar ipga mos rangdagi ipdan foydalaniladi), natijada naqsh-gul yuzasi zar iplar bilan qoplanadi, matoning teskarisida naqsh-gul shakliga hosil bo'ladi. Zardo'zlar bezak yaratishda bir necha usulni qo'llaydilar: zardo'zi zamindo'zi va zardo'zi guldo'zi, shuningdek birishimdo'zi (ipak ishlatilganda), po'lakdo'zi (tugmasimon metall yaproqchalar qo'llanganda) va boshqalar. Mustahkamlovchi va tahrir choklarning bir necha xilini mohirona qo'llanilishi hamda ularning naqsh mujassamoti bilan uyg'unlashuvi zardo'zi buyumlarga joziba va nafosat baxsh etadi; ularning badiiy qiymati naqsh mujassamoti, xomashyosi, tikilishi hamda zardo'z ustaning did va mahoratiga bog'liq. Naqsh mujassamotida keng tarqalgan an'anaviy o'simliksimon naqshlar va xandasiy shakllar — davqur, darham, donacha, bodomoy, butador va boshqalardan foydalaniladi.

Zardo'zlik badiiy hunarmandlik turi sifatida Yaqin va O'rta Sharqda keng tarqalgan. Asosan, binolar ichini bezaydigan buyumlar, ayollarning bayram liboslari zardo'zlik bilan tayyorlangan. Arxeologik topilmalar, tarixiy qo'lyozmalar O'rta Osiyo

xalqlari orasida zardo'zi kiyim va badiiy buyumlar tikish qadimdan rivojlanganligini ko'rsatadi. Ispan elchisi Klavixo o'z esdaliklarida zardo'z usulida tikilgan ko'rpa-to'shaklar, ipak matoga zar taqilgan qimmatbaho darpardalar va chodirlar haqida erkak va ayollarning zar ipdan tikilgan kiyimlari haqida zavq bilan yozadi. Abdurazzoq Samarqandiy o'zining «Hindiston safarnomasi» risolasida Shohruh (1442) Hindistonning Kalkutta viloyati hukmdori huzuriga yuborgan elchilari orqali unga zardo'zi do'ppi sovg'a qilgani qayd etilgan. Vosifiy o'zining risolalarida zardo'zlik kasbi to'g'risida so'z yuritgan. Darhaqiqat, 15—18-asrlarda Buxoro, Samarqand, Hirotida zardo'zlik yuksak pog'onaga ko'tarilgan. Uning 19-asrdagi taraqqiyoti Buxoro bilan bog'liq. Buxoroda saqlanib kelayotgan zardo'zlik kasbi uzoq davr mobaynida sayqal topib, takomillasha borgan. Zardo'zlik bilan, asosan erkaklar shug'ullangan (hozir ayollar orasida ham keng tarqalgan), ular ustaxonalarga uyushib ishlashgan. 19-asr o'rtalari 20-asr boshlarida yaratilgan zardo'zi buyumlar (to'n, kamzul, chakmon, chalvor, poyabzal, belbog', salla, kuloh va jul kabi)ning deyarli barchasi amir va uning oilasi, saroy a'yonlari uchun tayyorlangan, qisman badavlat xonadonlar buyurtmalari ham bajarilgan. 19-asrning 30—60-yillarida zardo'zlikda aks ettirilgan mujassamotlar qanchalik oddiy bo'lsa, kash-tagullar ham shunchalik ravon va jozibador bo'lgan. 19-asrning 70—80-yillarida zar ip yoki zar aralashtirib eshilgan ipak ip (push-ti, to'q qizil, moviy, yashil)dan foydalanilgan. 1893-yildan zar iplarning yangi navlari ko'p miqdorda ishlab chiqarilib, ular rangli ipak iplarni siqib chiqardi va umumiy tikish uslubini tubdan o'zgartirib yubordi. 1890—1900-yillardagi zardo'zlik zargarona o'ta nozikligi bilan ajralib turadi. Turi ko'rinishdagi bo'rta girixlar, yulduzchalar va shunga o'xshagan boshqa bezaklar buyumga o'zgachia zeb berib turgan, ayniqsa, davqur mujassamoti alohida o'rin tutgan. 20-asrning 20-yillarida barcha amaliy san'at ustalari qatori zardo'zlar ham artellarga birilashtirildi, ular xomashyo bilan ta'minlanadi, keyinchalik artellar birlashib fabrikaga aylantiriladi.

Hozirda zardo'zi buyumlarning turlari o'zgardi, avvalgi hamshamdor buyumlar o'rnini nafis ishlangan, davr talabiga mos buyumlar egalladi, naqsh mujassamoti soddallashtirildi, an'anaviy naqshlar davr ruhini ifoda etuvchi shakllar bilan boyitildi. Zardo'z-

lar ayollarning bayram liboslari (ko'ylak, nimcha, do'ppi, kamar, kavush, sumkacha), an'anaviy buyumlar, erkaklar uchun sovg'a to'ntar, do'ppilar tayyorlay boshladilar. 40—50-yillar boshida mahobatli zardo'zi namoyonlar yaratish sezilarli darajada rivojlandi. Dastlabki yirik ish Navoiy teatri uchun tikilgan zardo'zi parda bo'ldi (1947, A.Shchusev chizgisi, 7x27 m). Rassomlarning amaliy san'at ustalari bilan hamkorligi hamda ijodiy izlanishlar natijasida yangi mujassamotli mayda buyumlar, badiiy jihatdan qimmatli namoyonlar yaratildi va yaratilmoqda: «Kitoba» (1952, N. Aminov chizgisi), «Paxta» (1955, M. Prutskaya chizgisi), «Bayram» (1959, V.Stolyarov va M. Ahmedova chizgisi), «Girih» (1962, V. Stolyarov chizgisi), Alisher Navoiyning 525 yilligiga (1968) va b.ga bag'ishlangan namoyonlar zardo'zlikning katta yutug'i bo'ldi. 90-yillarga kelib zardo'zlik qayta tiklandi. Buxoro, Andijon, Namangan, Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Urgut, Qarshi, Jizzax shaharlari, Surxondaryo viloyati zamonaviy zardo'zlik san'atining markazlari hisoblanib, zardo'z ustalari (N. Aminov, B. Jumayev, S. Akbarova, T. Sodiqova, G. Bozorova, G. Pirimqulova, M. Xabibova, G. Nurto'yeva, M. Muhtiddinova, D. Tosheva va b.) chopon, do'ppi, nimcha kabi liboslar qatorida mavzuli namoyonlar, teatr pardalari hamda sovg'a buyumlar, ignadonlar, ko'zoynak g'ilofi, upa-elik sumkachalarini zardo'zlik usullarida bezatishni rivojlantirdilar.

B. Jumayev rafiqasi M. Jumayeva bilan birgalikda Buxoro zardo'zlik san'ati maktabini tiklash va rivojlantirish maqsadida markaz tashkil qildi (1995). B. Jumayevning «Bahouddin Naqshbandiy» (1997), «Buxoroyi Sharif» (1997), «Qo'shtovus» (1998), «Gultuvak» (1998), «Alisher Navoiy» (1998) mavzularidagi devoriy namoyonlari yuqori darajadagi texnik ijrosi hamda muallifning o'ziga xos uslubi va badiiy an'analarning uyg'unlashganligi bilan ajralib turadi. Ustalar va rassomlar yaratayotgan yirik mavzuli zardo'zi buyumlar respublika va chet mamlakatlar ko'rgazmalarida namoyish etilmoqda, muzeylarida saqlanmoqda.

Badiiy hunarmandlik sohasi: oltin, kumush, mis, qalay kabi rangli metallardan zeb-ziyinat buyumlari (taqinchoqlar), bezak buyumlari yasash kasbi. Zargarlik bezak buyumlari tayyorlashda quyish, bolg'alab (zarb berib) yasash, bosma, hallash (oltin va kumush suvi yuritish), o'yib yoki bo'rttirib naqsh yasash, bosma, zigarak sovotkori, qolipaki, shabaka kabi usullardan keng foydala-

niladi. Qimmatbaho toshlar (gavhar, feruza, dur, haqiq va b.)ga ishlov berib, zargarlik buyumlari (bargak, bibshak, bilaguzuk, bozuband, bozgardon, boldoq, buloqi, bo'yintumor, gajak duotuzi, jevak jiga, zarkokil, zebigardon, zulf, isirg'a, kokil, oybaldoq, sanchiq, tillaqosh, turunj, uzuq shokila, qashqarbaldoq, halqa kabilar) yaratilgan.

Arxeologik topilmalar zargarlik qadimdan mavjudligini ko'rsatadi. Qadimiy Misr, Yunoniston, Eron, Xitoy zargarlari zargarlik buyumlari tayyorlashda marjon, nefrit, qahrabo va gotikalardan keng foydalangan. Yevropada, ayniqsa, roman va gotika davrida (12—15-asrlar) zargarlik san'ati yuksak pog'onaga ko'tarilgan, zargarlikning yangi usul va uslublari vujudga kelgan. O'zbekiston Respublikasining ko'pgina muzeylarida saqlanayotgan topilmalar respublika hududida (Yunon-Baqriya podsholigi, mil. avvalgi 3—2 asrlar; Qad. Xorazm, asosan mil. avval 1-ming yillik o'rtalari-dan milodning 8-asrigacha) zargarlik rivoj topganini ko'rsatadi. Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva, Qo'qon, Shahrisabz va boshqa shaharlarda zargarlik rivojlangan. 19-asr oxiri 20-asr boshida o'ziga xos ishlanishi, shakli, bezaklari, xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilgan xilma-xil zargarlik buyumlari keng tarqalgan, ziyinat buyumlari to'plamlari vujudga kelgan. Asrlar osha avloddan avlodga o'tib kelayotgan zargarlik san'ati 20-asr boshlarida inqirozga yuz tutdi, xalq ustalarining soni qisqara boshladi. Ustalariga qimmatbaho xomashyolardan foydalanishga yo'l qo'yilmadi. Zargarlik fabrikalarida ijod qilgan usta-zargarlar ish jarayonida asta-sekinlik bilan mavjud an'analardan yiroqlasha boshdilar. Natijada ular tomonidan ishlab chiqarilgan buyumlarning shakli-shamoyili o'zgarib, bir xillikni yuzaga keltirdi va ba'zi an'analarning butkul yo'qolishiga olib keldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng zargarlik san'ati jonlandi. Qimmatbaho metall materiallardan foydalanishga imkoniyat yaratildi.

Ijod qilayotgan ustalar, asosan, 2 yo'nalishda: mahalliy zargarlik (unutilib borayotgan an'analarni qayta tiklash) va an'anaviy zamonaviy uslubda zargarlik buyumlar yaratish ustida ijod qilmoqdalar. An'anaviy zargarlik buyumlari — tumorlar, isirg'alardan «uch ko'zach», «oy baldoq», «yer bidor», «qashqarbaldoq» va boshqalar yaratildi. Ustalardan Dadamuhamedovlar sulolasi, G. Yo'ldosheva, R. Muhametshin, M. Nozirxonov, Sh. Nizomov,

I. Olimov, G. Tosheva va boshqalar zargarlik an'analarini o'rganish, rivojlantirish va yangi yo'nalishlarni kashf etish borasida qator ishlarni amalga oshirdilar. Buxoro, Xorazm, Surxondaryo va boshqa zargarlik maktablarining ayrim chizgilari bir-biriga uyg'unlashtirildi, yangi zamonaviy zargarlik buyumlari yaratilmoqda. A. Ulumbekovanning «Ayol» (1998), «Afrika» (1999), «Baliqcha» (1999), E. Gostayevning «Parvoz» (1998) asarlari, R. Muhametshin ijodiy namunalari («Hayot daraxti», 1993, «Tog' irmog'i», 2001) o'zining bezakdorligi, tasvirining nozikligi hamda xalq san'atining mumtoz namunalari asosida yaratilishi bilan farqlanadi.

Hozirgi kunda usta-zargarlar bilan bir qatorda bir necha birlashmalar — «Fonon» va «Kumush» birlashmasi, «Nur» davlat zargarlik markazi, «Musavvir», «Ustazoda» kabi markazlar ham ichki bozorni zargarlik buyumlari bilan to'ldirmoqda. Toshkentda 2001-yil aprelda «Zargarlik-2000», 2002-yil aprelda o'tkazilgan «Zargarlik-2002» xalqaro ko'rgazmada ko'pgina davlatlarning zargar ustalari o'z asarlari bilan qatnashdi.

**Zargarlik san'ati** — yuksak badiiy ishlov berish yo'li bilan nodir metallar va qimmatbaho toshlardan, shuningdek boshqa metallardan buyumlar, taqinchoqlar ishlab chiqaradigan sanoat tarmog'i. Zargarlik sanoatida xomashyo sifatida qimmatbaho va rangli metallar (platina, oltin, kumush va boshqalar), ularning qotishmalari, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar (feruza, fionit, olmos, oniks, zumrad, yoqut), tabiiy toshlar, plastmassa, suyak, emal, shisha va boshqalar ishlatiladi.

O'zbekistonda zargarlik sanoati korxonalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar qo'mitasi huzuridagi «Fonon» ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi tarkibida. Ularning yiriklari: «1-Toshkent zargarlik korxonasi», «2-sonli zargarlik zavodi», «Kumush» O'zbekiston-AQSh qo'shma korxonasi, «Eyshn-Reyz» O'zbekiston-AQSh qo'shma korxonasi (Toshkent shahri), Shahrisabz zargarlik korxonasi, Burchmulla zargarlik zavodi, 1992 yilda ishga tushgan Zarafshon shahridagi Navoiy zargarlik zavodi (avvalgi «Zarispark» O'zbekiston-AQSh qo'shma korxonasi) respublikadagi yetakchi zargarlik korxonalari hisoblanadi.

Bu korxonalar 585 va 750 asillik darajali (probali) tilla qotishmasi, 925 asillik darajali kumush qotishmasidan turli xildagi

zargarlik buyumlari (sirg'a, uzuk, zargarlik zanjirlari, sovg'abop mahsulotlar, kumushdan yasalgan oshxona anjomlari, yuqori badiiy sifatga ega bo'lgan zargarlik buyumlari, yakka buyurtmalar, yangi zargarlik buyumlarining modellari)ni ishlab chiqaradi. Shahrisabz va Burchmulla zargarlik korxonalarida zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish bilan birga qimmatbaho va qimmatbaho bo'lmagan toshlarga qirrali ishlov beriladi.

«Fonon» IIB ilmiy-texnika laboratoriyalarida zargarlik sohasida ishlatiladigan turli rangdagi sun'iy kristallar o'stiriladi.

Zargarlik sanoati korxonalari bilan bir qatorda mamlakatimizda buyurtmachining ashyosidan zargarlik buyumlari tayyorlash va ularni ta'mirlash bilan shug'ullanuvchi zargarlik ustaxonalari va yakka tartibda ishlovchi zargarlar ham faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikamizda ishlab chiqariladigan va chet ellardan ketiriladigan zargarlik sanoati mahsulotlari sifati va asillik darajasini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 8-fevraldagi farmoni bilan tashkil qilingan Davlat asillik darajasini belgilash palatasi nazorat qiladi. 2001-yil 7-dekabrda «Qimmatbaho metallardan yasalgan buyumlarning asillik darajasi va tamg'alanishi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. 1999-yilning 4-iyunida O'zbekiston Respublikasining Davlat asillik darajasini belgilash palatasi Asillik darajasi palatalarining Yevropa uyushmasiga to'la huquqli a'zo bo'ldi. Davlat asillik darajasini belgilash palatasi qimmatbaho metallardan yasalgan buyumlarining sofligini tekshirish va tamg'alash Xalqaro konvensiyasiga kirish masalalari bilan 1996-yildan beri shug'ullanib keladi va kuzatuvchi mamlakat maqomida uning barcha kengashlarida qatnashadi.



XX asr boshlarida kashtachilikda qardosh xalqlar madaniyatining ta'siri kuchli bo'ldi. Bu san'atda har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari uchraydi. Chunonchi o'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'p bo'lsa, rus kashtachiligida geometrik, o'simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko'p tasvirlanadi. Qozoq va qirg'iz kashtachiligida esa ko'proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.

Kashtachilikning maxus turlaridan biri applikatsiyadir. Applikatsiya lotincha yopishtirish degan ma'noni bildirib, gazlama, qog'oz va boshqa materiallarga rang-barang gazlama, qog'oz bo'laklarini yopishtirish yoki tikish yo'li bilan bezash demakdir. Applikatsiya kashtado'zlikning maxsus turi bo'lib, u o'ziga xos texnologiyaga ega. Asosiy matoga rangdor mato parchasini, charam va boshqalarni qadab, atrofi choklanadi. Applikatsiyada ko'pincha chizma choklardan foydalaniladi. Kashtaning bu turi O'zbekiston-da yaxshi rivojlanmagan. Hozirgi vaqtda ko'pincha bolalar paltolariga, ko'ylaklariga, bosh kiyimlariga har xil qush, meva, gul va hayvonlar tasviri applikatsiya usulida choklanadi. Ayrim hollarda ayollarning kiyimlari shu usulda bezatilyapti.

Arxitekturada va biror buyumlarni bezashda applikatsiya usulidan keng foydalanib kelinmoqda.

O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo'lgan. Shuning uchun har bir oila o'zi uchun kirpech, so'zana, dorpech, ko'zgxalta, choyxalta va boshqalarni o'zi tayyorlagan. Bezak buyumlarining turi juda ko'p masalan, so'zana, kirpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta, zardevor, palak, gulko'rpa, dorpech, bug'joma, parda, belbog', takyapo'sh (yostiqlik ustiga yopiladigan), do'ppi, ko'ylak, dastro'mol, hamyon, joynamoz, sumka, nimcha, mahsi-kavush, xaltacha va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan. O'tmishda bu kashtalar oq va malla matolarga tikilgan. Keyinchalik satin, shoyi, baxmalga tikiladigan bo'ldi. Kashtachilikda ishlatiladigan bezak buyum turlari.

Do'ppi — O'zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyim. Do'ppi kiyish dastlab Eronda va turkiy xalqlar o'rtasida, Rossiyada XIII asrda rasm bo'lgan. Asrlar davomida do'ppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, satinga, sidirg'a shoyiga ip, ipak va zar bilan do'ppi gullari tikilgan. O'zbekistonda Toshkent, Chust,

## KASHTADO'ZLIK SAN'ATI

O'zbek milliy kashtachiligi amaliy san'atning eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O'zbek milliy ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpech, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Germaniya, Belgiya, AQSh, Hindiston, Afg'oniston kabi xorijiy mamlakatlarda va shuningdek, mamlakatimizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san'atining eng qadimiysi saqlanmagan. XIV—XV asrlarga mansub miniaturalar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini yozib qoldirgan. 1467-yili Kamoliddin Behzod «Zafarnoma»ga ishlagan «Temur taxtda» miniaturasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashtalarning ko'plab ishlab chiqarilishi ularning badiiyligiga putur yetkazdi. Qo'l kashtalari unutila boshlandi. Lekin ayrim xillarigina saqlanib qoldi. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. O'zbek kashtalariga nazar solsak, unda hind, xitoy, rus, afg'on, qozoq, qirg'iz va tojik kashtachiliklarining usul va uslublarini uchratamiz.

Buxoro, Samarqand, Boysun, Shahrisabz do'ppilari mashhur bo'lib, ular o'ziga xosdir. Mamlakatimizning barcha tumanlarida do'ppi tikiladi. Iroqi, Qizil gul, Piltado'zi, Zardo'ppi, To'ldirma deb nomlanadigan milliy do'ppilar bor. Har bir do'ppi yaratilish uslubiga ega bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi. O'zbekistonda ommaviy bosh kiyimi asosan uch xil shakliga ega: «kuloh», «araqchin», «tus do'ppi».

Kuloh — konussimon bosh kiyim. U asosan darveshlar qalpog'i hisoblanadi. Uning shakli toq uchburchak parchalaridan bichilib yonlamasiga tikiladi. Kuloh (erkaklar bosh kiyimi) hozir juda kam uchraydi.

Araqchin — sharsimon do'ppi, uni asosan keksalar kiyadi. Toshkentda sharsimon do'ppilar kanda xayol, bosma, chakmatur, iroqi chok usullarida tikiladi.

Tus do'ppi — keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi. Ko'pincha chus do'ppi deb yuritiladi. Tus do'ppilarning birgina klassik variantining o'zida sakkizta yuvelir chok uslub bo'lib, tepasi yarim shar pildiriq. Tus do'ppi kvadrat shaklida bo'lib, tepasi yarim shar ko'rinishdadir. Toshkent do'ppisi sidirg'a baxmaldan (gulsiz) tikilgan bo'ladi. Buxoro do'ppilari sidirg'a yoki gulli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi, jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo'rma usulida tikilgan bo'ladi.

Joynamoz — yerga solib ustida namoz o'qiladigan to'shama. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar ishlatishadi. U ibodat vaqtida kishini bu dunyodan ajratuvchi omil deb tasavvur qilinadi. Joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning yuqori tomoni mehrob shaklida tikilgan bo'ladi. Undan maschit, madrasa va uylarda foydalaniladi. U turli o'ichamda bo'ladi. Ibodatni kanda qilmaslik uchun boshqa narsalardan foydalanish mumkin. Masalan, cho'pon, qiyiqcha, sholcha kabildardan, chunki ular diniy nuqtayi nazardan pok hisoblanadi. Joynamoz kashtachilikda juda chiroyli qilib bezatilgan bo'ladi.

Zardevor — uy jihozi, u sidirg'a shoyi, baxmal, satinga kashta tikib bezatilgan badiiy buyum. Zardevor o'zbek hamda tojiklarda yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo'yiladi. U zar ip yoki ip gajimli bo'lib, eni 40—70 sm, uzunligi mo'ljallangan uning devoriga moslab tikiladi.

Palak — devorlarga ilinadigan eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biri. Palakda osmon va to'lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq yoki malla bo'zga kashta tikib tayyorlangan. U so'zadan gullarining yirikligi, zaminiga ham kashta qoplanishi bilan farq qiladi. Palakning o'rtasida yirik oy tasviri qizil qirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi va atrofiga juda chiroyli qilib o'simliksimon naqshlar tikiladi. Naqshlar ichida ko'pincha bodom, qalampir elementlari qo'llaniladi. Palakda qirqtacha oy ham tasvirlash mumkin, shuning uchun o'zining soniga qarabolti o'ylipalak, o'n ikki o'ylipalak, hattoki katta uylar uchun qirq o'ylipalak, tikilgani ma'lum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan. Mashhur kashtado'zlar ba'zida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab, o'z mahoratlarini namoyon etganlar. Agar o'zining ichi sidirg'a rangda ifodalangan bo'lsa, uni oypalak, agar naqshli bo'lsa, gullipalak va hokazo nomlar bilan yuritiladi. Keyingi vaqtlarda palakni qo'l mehnati ko'p bo'lgani uchun so'zana deyila boshlandi. Hozir palakni qo'lda tikishga katta ahamiyat berilmoqda.

Kirpech — kirpo'sh, tokchaga taxlab kuyilgan kiyim-kechak ustidan yoki devorni vertikal bo'sh joylariga ilib, uyni bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyum. Kirpech kashtalari qo'lda yoki mashinada tikiladi.

Har bir qiz turmushga chiqishidan oldin o'zi uchun so'zana tayyorlagan. So'zana kelinlarning sepi hisoblangan. Kambag'al oilada so'zanani malla, oq bo'zdan, badavlatroqlarida esa shoyi-dan, baxmaldan tikishgan. So'zana uchun kompozitsion joylashgan o'simliksimon naqshlardan foydalaniladi. So'zana o'rtasiga ko'pincha doirasimon gul tikilib atrofi guldor naqshlar bilan bezatiladi. So'zana tikish juda qadimdan rivojlangan bo'lib, XIX asrgacha bo'lgan so'zanalar saqlanmagan. Faqat XIX asrga oid Samarqand, Buxoro, Nurota, Farg'ona va boshqa joylardagi so'zana turlaridan namunalari bor. San'atning bu turi ayniqsa O'zbekiston va Tojikiston hududlarida qadimdan keng tarqalgan. Keyingi paytlarda, ya'ni XX asrning 40-yillaridan boshlab so'zana mashinada ham tikilib kelinmoqda.

Choyshab (forscha-tojikcha ruyjo) — tun chodiri degan ma'noni bildiradi. Choyshab asosan taxmonga tutish, yotganda yopinish uchun, to'shak ustidan to'shaladi. To'shak ustidan yotladigan choyshab ham kashtali oq surup, taxmonga tutiladigan satin, shoyi, baxmal va boshqalardan tikiladi. Hozirgi vaqtda

choyshabdan soʻzana kabi badiiy buyum sifatida ham foydalanib kelinmoqda.

*Kashta* — turli rangdagi ipak mulina, zar ip bilan igna, ilmoqli bigizda har xil matoga mashinada gul tikishdir. Kashta har xil kiyimlarga poʻzgʻop buyumlariga tikiladi. Kashtachilikda mato, kigiz, charm, karton, zigʻir, jun, ipak, sunʻiy iplar, zar iplar, mayin sim, xom charmdan tayyorlangan tasmalar, munchoq, marjon, metall boʻlakcha, qimmatbaho tabiiy va sunʻiy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar va boshqa materiallar ishlatiladi. Kashtachilikda oʻziga xos ish qurollari mavjud boʻlib, ular oʻziga xos operatsiyani bajaradi. Kashtachilikda ignalar, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, toʻgʻnagʻich, angishvona, qaychi hamda chamberaklar ishlatiladi.

Chamberak (gardish) asosan yogʻochdan yasaladi, u doira, kvadrat, toʻgʻri toʻrtburchak shaklida boʻladi. Kichik kashtalarga doira chamberak ishlatiladi, chunki u qulaydir. Hamma kashtalarga ham chamberak ishlatilavermaydi. Ip va igna kashta tikiladigan matolar qalinligiga mos qilib tanlanadi. Kashtachilikda yogʻoch dastali ikki xil, yaʼni ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Ayrim materiallarga masalan, charm va kartonga qiynalmasdan tikish uchun ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Naqshlar uchun oʻtkir uchlil 10—12 sm uzunlikdagi qaychilar ishlatiladi. Tikish qulay boʻlishi uchun mato qatʼiy 50—60 sm dan uzun boʻlmasligi lozim. Kashta chamberakda tikilsa, angishvona qoʻllanilmaydi. Naqsh nusxasi har xil materiallarga har xil yoʻllar bilan tushiriladi. Masalan, nusxa koʻchiriladigan qogʻozlar, axta, yorugʻlik yordamida, naqsh chizilgan qogʻozni material ustidan koʻklab chiqiladi, keyin bu qogʻozlar yirtib olinadi. Kashtaga iplar rangini moslab tanlash kashtadoʻzdan katta mahorat hamda did talab qiladi. Toʻgʻri tanlangan ip kashtaning jozibador chiqishiga sabab boʻladi.

Qoʻlda kashta tikishning ikki turi mavjud: birinchisi matoning arqoq hamda oʻrim iplarini sanab kashta tikish, ikkinchisi esa matoga gul tasviri konturini chizib, erkin kashta tikish turlari. Arqoq oʻrim iplari kesishtirib tikilgan polotno yoki boʻz shaklida toʻqilgan matolarga tikiladi. Buning sababi kashta tikishda mato iplarini sanab tikish qulaydir. Sanama kashta turi Oʻzbekistonda keng tarqalgan. Erkin kashta mato tanlamaydi, tushirilgan tasvir chiziqlari asosida tikiladi. Oʻzbek kashtachiligida yoʻrma, ilma, iroqi, bosma, xomdoʻzi, chamak chipta xayol, baxya choklar keng

tarqalgan. Badiiy kashtalarda turli joyda turli choklar ishlatiladi. Chunonchi Shahrisabzda yoʻrma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda koʻproq bosma choki, Buxoro, Nurota, Samarqandda yoʻrma choki bilan tikiladi.

Chamak choki — kashta tikish choklaridan biri boʻlib, chapdan oʻngga ikki parallel chiziq boʻylab tikiladi va ip oʻtkazilgan igna oʻngdan sanchiladi. Soʻng yuqoriga chapga tomon qiya qilib chiqariladi va pastki chiziqqa parallel ravishda tufi qadaladi hamda past ham qiya qilib chiqariladi. Chamak choki koʻpincha naqshlarni ramkaga olishda yoki doʻppi qizaqclariga badiiy bezak berishda ishlatiladi. Qaychini kichik, oʻtkir uchlisi ishlatiladi.

Baxya choki — kashta chetlarini mustahkamlashga xizmat qilib, matoga xuddi koʻklagandek, lekin bir tekis chok hamda masofa hisobga olinib tikiladi. Shundan soʻng mato oʻgʻirilib, yana tikib chiqiladi, natijada tekis ip chiziq hosil qilinadi. Bu chok juda qadimdan qoʻlda, keyinchalik mashinada tikiladigan boʻlgan. U ikki qator, yaʼni qatorlar oʻzaro tutashib chiqishi ham mumkin.

Koʻppa choki — turli yoʻnalishda, yaʼni chapdan oʻngga, oʻngdan chapga, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga sidingʻa tikib hosil qilinadi. Yonma-yon tikiladigan choklar bir tekis yoki gul shakliga qarab kichikdan kattalashib, kattadan-kichiklashib boradi. Bu chok duruya (ikki tomonlama), sanama, piltadoʻzi nomlar bilan yuritiladi. Doʻppidoʻzlikda va kashtalarda juda keng foydalanadi.

Chindi xayol — duruya choka, matoga igna qadalib bir meʼyorda tikib chiqiladi, teskari oʻgʻirib yana tikib chiqiladi. Shu tariqa matoning oldi va orqa tomonida bir xilda gul hosil qilinadi. Bu chok ikki tomoni ham koʻzga tashlanadigan buyumlar, yaʼni sochiq, roʻmol va boshqalarni bezashda ishlatiladi.

Yoʻrma choki — yoʻrmaki, ilmoqli bichiq yoki igna bilan matoning oʻng tomonida halqalar zanjiri hosil qilib tikilib, bigizga oʻtkazilgan ipak matoning sirtida chap qoʻl bilan ushlab turiladi. Sanchilib chiqqan igna bilan esa halqa hosil qilinadi. Yoʻrma choklari bilan yirik kashtalarning hoshiyalari, gul va barglarni asosiy shoxga ulaydigan band va boshqalar qadimdan shunday usulda tikilgan. Yoʻrma chokdan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo kashtadoʻzlari koʻp foydalanadilar. Yevropada kashtadoʻzlik uygʻonish davrida yuqori pogʻonaga koʻtarildi. Davrning buyuk rassomlari kashtadoʻzlar uchun andazalar tayyorlab berganlar. Bu



kashtalarning badiiyligini oshirdi. Kashta tikuvchi hunarmand kashtado'z yoki kashtachi deb ataladi. Kashtado'zlik ayollar hunari bo'lib, kashta mashinasi yaratilishi munosabati bilan mashinada erkaklar ham kashta tikadigan bo'ldilar. Mashinada yo'rma chok bilan kashta tikiladi. Lekin mashina guillarining mayda detallarini aks ettira olmaydi, mashina kashtasining sifati ham qo'lda tikilgan kashtaga nisbatan past. Shunga qaramay, mashina bilan tikish oson va ish tez bajarilishi tufayli keyingi paytlarda mashina kashtasi kashtado'zlikda katta o'rin egalladi, bu esa yo'rma chokning asosiy chok bo'lishiga sabab bo'ldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q / Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. — T.: O'zbekiston, 1999. 7-jild. 132—155-b.
2. I.A. Karimov. Qashqadaryo vohasining zumrad gavharlari / Biz tanlagan yo'l — demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. — T.: O'zbekiston, 2003. 11-jild. 56—63-b.
3. T.A. Abdullaev, S.A. Xasanova. Odeжда узбеков (XIX — начало XX вв.). — T.: Фан, 1978. — 115 с.
4. U. Abdullayev. Farg'ona vodiysida etnoslararo jarayonlar. — T.: Yangi asr avlodi, 2005. — 215-b.
5. Абду-ур-Рауф. Рассказы индийского путешественника (Бухара как она есть). — Самарканд: Б.И., 1913. — 56 с.
6. С.М. Абролов. Киргизы и их этнографические историко-культурные связи. — Л.: Наука, 1971. — 403 с.
7. Абу Али ибн Сина. Канон врачебной науки. — Т.: Академия наук УзССР, 1954. — 550 с.
8. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik / Asqar Mahkam tarjimai. — T.: Shaq, 2001. — 384-b.
9. G.A. Agzamova. So'nggi o'rta asrlar O'g'ri Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo. — T.: O'zbekiston, 2000. — 53 b.
10. Л.И. Альбаум. Живопись Афрасиаба. — Т.: Фан, 1975. — 112 с.
11. А.А. Аскарлов. Сапалитепа. — Т.: Фан, 1973. — 140 с.
12. М. Asomiddinova. Кiyim-kechak nomlari. — T.: Fan, 1981. — 114-b.
13. А. Ashirov. «Avesto»dan metos ma'nosimlar. — T.: Metos, 2003. — 31-b.
14. А.М. Беленицкий. Монументальное искусство Пенджикента. Живопись. Скульптура. — М.: Искусство, 1973. — 67 с.
15. И.В. Бентович. Находка на горе Муг // Материалы Института археологии. — Душанбе, 1958. — № 66. — С. 363—378.
16. М. Биксанова. Одежда узбечек Ташкента XIX — начала XX вв. // Костюмы народов Средней Азии. — М.: Наука, 1979. — С. 133—151.
17. O. Bo'riyev, I. Shoyimardonov, K. Nasriddinov. O'zbek oilasi tarixi. — T.: O'qituvchi, 1995. — 128-b.
18. X. Yamberi. Vuxoro uxoht Movarounnahr tarixi. Kitobdan parchalar. / To'plam: S. Ahmad. — T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990. — 96-b.

## MUNDARIJA

So'zboshi .....	3
Milliy o'zlikni anglash .....	5
Kiyinish madaniyati bilan bog'liq udumlar .....	8
Folklor-etnografik jamoalarida libosning o'rni .....	18
Libos inson ziynati .....	20
O'zbek an'anaviy kiyimlarining o'rganilish tarixi .....	23
O'zbek xalqi an'anaviy kiyimlarining shakllanish tarixidan .....	29
Eng qadimgi kiyimlar .....	31
O'rta asrlarda yashagan ajdodlarimiz kiyim-boshlari .....	32
Ayollarning kundalik va bayram kiyimlari .....	37
Surxon vohasi erkaklarining mavsumiy kiyimlari va ularning o'ziga xos ko'rinishlari .....	54
Kiyimlarni bichish-tikish, kiyish va saqlash .....	61
Bolalar kiyimlari bilan bog'liq urf-odatlar .....	65
Xalq amaliy bezak san'ati .....	68
XX asr O'zbekiston amaliy-bezak san'atida folklor mavzulari talqini .....	90
Kiyim-kechak, sarpo, bezaklar va pardozlar .....	92
Taqinchoqlarning yaratilishi va turlari .....	99
Surxon vohasidagi taqinchoqlarning asosiy turlari .....	104
Voha ayollarining soch, yuz parvarishi bilan bog'liq mashg'ulotlari va pardoz buyumlari .....	114
Zardo'zlik san'ati .....	120
Kashtado'zlik san'ati .....	126
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .....	133

*Yo'ldosheva Saodat Nazirovna  
Davlatova Saodat Tilovberdiyevna  
Sattorova Gulruh Eshboyevna*

## FOLKLOR KIYIMLARI VA BEZAKLARI

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent — «Talqin» — 2007

Muharrir *F. Oripova*  
Musahhih *R. A'zamova*  
Kompyuterda sahifalovchi *Y. Gilmudinova*

Bosishga 05.12.07 da ruxsat etildi. Bichimi 60×90<sup>1/16</sup>. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b.t. 8,5+0,5 rang.vkl. Nashr. t. 9,0. Adadi 794.  
Shartnoma № 13/07. 327-buyurtma.

«Talqin» nashriyoti, Toshkent-129, Navoiy ko'chasi-30.

«Arnaprint» MChJda sahifalanib, chop etildi.  
Toshkent, H. Boyqaro ko'chasi, 41.




S. YO'LDOSHEVA  
S. DAVLATOVA  
G. SATTOROVA

**FOLKLOR  
KIYIMLARI  
VA BEZAKLARI**



ISBN 978-9943-325-28-9



9 789943 325289